

Ashirboyev Samixon

AREAL LINGVISTIKA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'zbek shevashunosligi markazi

Ashirboyev Samixon

Areal lingvistika

43310



"BOOKMANY PRINT"

TOSHKENT – 2023

UO'K: 81'286(075)

KBK: 82.1-67ya7

A 93

Ashirboyev, Samixon.

Areal lingvistika [Matn] : darslik / S. Ashirboyev. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 148 b.

O‘zbek tilshunosligida areal lingvistika nisbatan yosh fan hisoblanadi. Bu fan qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida shakllangan bo‘lsa-da, u keyinchalik dialektologiya bilan birga rivojlandi va uning natijalariga asoslandi. Endilikda u mustaqil fan darajasiga ko‘tarildi. Areal lingvistika oliy ta’limning “Lingvistika (o‘zbek tili)”, “Folklorshunoslik va dialektologiya” magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalarida majburiy fanlar blokidan joy oldi va uning ta’limi bo‘yicha tajribalar to‘plandi. Bu darslikda areal lingvistik aning paydo bo‘lishi, uni o‘rganish metodlari, lingvistik geografiya bilan umumiyligi va xususiyligi, uning arealogiya bilan munosabati hamda areal lingvistik aning areal, takson va izoglossa kabi nazariy masalalari *turkiy tillar va o‘zbek tili hamda uning shevalariga tatbiqan* yoritildi. Darslikdan magistrantlar bilan birga, ilmiy xodimlar va til ilmi bilan qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

O‘rozboyev Abdulla,

Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Hakimova Muhayyoxon,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug‘iga asosan barcha mutaxassisliklar uchun talabalarga darslik sifatida tavsiya etgan.

© Ashirboyev S.

ISBN 978-9943-9441-9-0

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

Kirish

Areal lingvistika fan sifatida shakllanib ulgurdi. U oliv ta'lim muassasalarining filologiya yo'naliши о'quv rejalaridan о'rın oldi. Ayniqsa, "Lingvistika" va "Folklorshunoslik va dialektlogiya" magistratura mutaxassisligi о'quv rejasida majburiy fanlardan biri sifatda shakllantirildi. Garchand bu fan dialektlogiya negizida, uning bevosita tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik u o'zining mustaqil obyektiga ega bo'ldi va dialektlogiya bag'ridan ajralib chiqdi hamda umumiy tilshunoslik, geografiya, tarix, arealogiya (biologiya) fanlari bilimlariga suyangan holda, til faktlarining vujudga kelishi, ayni bir til va sheva faktlarining (izoglossa) tarqalishi, u namoyish qiladigan lingvistik belgining xususiyatlarini lingvistik kartada aks ettirish va uni sharhlash orqali o'rganadi, tillar va shevalar guruhi, ular kesishgan chegaralardagi hamda ularning yaxlit bir hududdagi xususiyatini tadqiq qiladi. Demak, areal lingvistika bir til va bir sheva doirasidan chiqadi hamda kichik va katta hajmli hududlarda til va shevalarning xususiyatlari to'g'risida bahs qiladi.

Areal lingvistika fanining shakllantirilishiga keyingi davrlarda til va shevalarni o'rganishga nisbatan o'zgacha qarash, uning taraqqiy qilish xususiyatlariga bo'lgan yangicha yondashuv sabab bo'ldi. Avvalo, areal lingvistikating rivojlanishida sotsial jarayonlar, ya'ni dunyo bo'y lab aholi vakillari migratsiyasi jarayonlarining kuchayishi muhim rol o'ynamoqda. Dunyoning deyarli barcha regionlarda shaharlar kundan kunga yiriklashib, u yerda sanoatning, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish jarayonlari jadallashmoqda, shu bilan bog'liq ravishda mamlakat aholisining muayyan qismi shaharga tomon og'moqda, hatto Yevropaning yirik shaharlarida tub millat vakillari bilan birga etnik jihatdan turlicha bo'lgan aholi ham paydo bo'lmoqdaki, bu ijtimoiy jarayonlar an'anadagi lahja, dialekt, sheva degan tushunchalarga nisbatan boshqa rakursdan qarashga majbur qilmoqda, natijada fanda "Urban dialekt" degan tushuncha paydo bo'ldi. Bu kabi shahar dialektlarida yetakchi pozitsiyalarni, garchi an'anadagi etnik guruh shevasi egallayotgan bo'lsa-da, u tamomila yangi (aralash) dialekt holatiga kelib qolmoqda. Ayrim yirik davlatlarda dialektlar to'g'risida fikr yuritish qiyin. Bunday sharoitda

dialektologik tadqiqotlar olib borishning imkoniyati chegaralanadi, balki muayyan hududda qaysidir dialektning izlarini qidirish va uning interferensiya sharoitiga tushib qolganligini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Bu esa dialektologiyaning emas, balki areal lingvistikating vazifasiga kiradi.

1-mavzu. Areal lingvistika fanining predmeti va vazifalari

Reja

1. Areal lingvistikaning maqsad va vazifalari.
2. Areal lingvistikaning talqinlari.
3. Areal lingvistikaning obyekti.

Tayanch tushunchalar: *areal lingvistika, lingvistik geografiya, area, areal, dialektologiya, arealogiya, kartografiya.*

Matn

Areal lingvistikaning maqsad va vazifalari. Areal lingvistika tushunchasi lotincha *area – maydon, kenglik, hudud* hamda *lingvistika – tilshunoslik* tarkibiy qismlaridan iborat. Areal so‘zidagi -*l* affaksi sifat yasovchi bo‘lsa-da, uning yasovchiligi funksional emas.

Areal lingvistika termini dastlab M. Bartoli va G. Vidossilar tomonidan 1943-yilda kiritilgan¹ va uning asosiy tamoyillarini M. Bartoli 1925-yilda ishlab chiqqan².

Areal lingvistikaning maqsadi til va dialektlarning hududiy xususiyatlarini o‘rganishdir, ya’ni muayyan til hududini frontal qamrab olish, undagi keng tarqalgan va shu hududda dominant tilning aloqadagi tillarga ta’siri va o‘zaro ta’sirini tadqiq qiladi, til massividagi tillarning dialektal zonalarini belgilaydi hamda zonadagi tayanch dialektning xususiyati va uning atrof (periferiya) tillari va shevalari bilan munosabatini ilmiy talqin qiladi. Eng muhimi, areal lingvistikaning o‘z metodi bo‘lib, u *lingvistik geografiya* deyiladi, shu metodda til va shevalardagi izoglossalarning tarqalishi o‘rganiladi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda, til va shevalarning hududiy belgilari aniqlab olinadi. Ular til va dialektlardagi izoglossalarning harakatlanish kengligi, innovatsiya, marginal va oraliq zonalardan iboratdir.

Areal lingvistikaning mohiyati. Areal lingvistika umumilingvistik muammolar kompleksini tadqiq qiladiki, ular quyidagilarda ko‘rinadi:

¹ Bartoli M., Vidossi G. Lineamenti di linguistica spaziale. – Millane, 1943.

² Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica. Geneve, 1925.

muayyan hududda o‘zaro aloqadagi tillar va dialektlarning areal xususiyatlari tavsiflarini amalga oshiradi;

til aloqalari (kontaktlari) qonuniyatlarini o‘rganadi;

aloqadagi til va dialektlarning kartalari va atlaslarini tuzish ishi bilan shug‘ullanadi;

areal tipologiya tamoyillarini ishlab chiqadi;

til interferensiyasi;

chegaradosh tillarning etnolingvistik va ijtimoiy lingvistik tipologiyasi;

areallarning turlari va tiplarini aniqlaydi;

til va shevalarni zonalarga ajratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi va h.k.

Areal lingvistika fan sifatida shakllangan bo‘lsa-da, uning muammoli masalalari ham yo‘q emas. Bu haqda N. Z. Hojiyeva (Гаджиева) bir qator fikrlarni bayon qilgan. U dialektologik izlanishlar ko‘لامи katta ekanligini, areal lingvistika metodlari mavjudligini e’tirof etadi, ayni o‘rinda Markaziy Osiyo turkiy tillari dialektlari to‘liq o‘rganib chiqilmaganligini, dialektologik atlaslar hali yaratilmaganligini ham ta‘kidlaydi³. Bu aytiganlarga qaramay, areal lingvistika rivojlanmoqda va o‘zining aniq predmetiga ega bo‘ldi.

Areal lingvistikaning talqinlari. Areal lingvistikaning ta’riflari ko‘p, shunday bo‘lsa-da, ularning aksariyatida umumiylit saqlanadi. Manbalardan olingan ma’lumotlarda areal lingvistika tilshunoslikning til faktlarining keng hududlarga tarqalishi, tillararo va shevalararo aloqalarning xususiyatlari, uning eng asosiy metodi lingvistik geografiya ekanligi aytildi. Shuningdek, uning quyidagi tavsiflari bor:

1. Areal lingvistika lingvistik areallarni (til va dialektlarning tarqalish hududlari), til va dialektlarning geografik joylashuvini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limidir. Bu fikr e’tirozga sabab bo‘lmasa-da, u juda tor ta’riflangan, chunki areal lingvistika dialektlogiya, til tarixi, arealogiya masalalarini ham qamrab oladi.

2. Areal lingvistika asos e’tibori bilan lingvistik areallarni tadqiq qiladi, tillarning geografik tarqalishi va ularni muayyan hududdagi

³ Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – Москва: Наука, 1975. – С. 3.

boshqa tillar bilan birgalikda o'rganadi. Bu talqin ham avvalgi ta'rifni deyarli takrorlaydi, unda muayyan hududdagi tillar uning tarkibidagi boshqa til va shevalar bilan birga o'rganish masalasi rivojlantirilgan bo'lib, areal lingvistikaning muhim tadqiqot yo'nalishini aks ettirgan.

3. Areal lingvistika hudud lingvistikasi (пространственная лингвистика) bo'lib, lingvistik geografiya metodi orqali tillarning muayyan makonda va tillar (dialektlar) aralashgan hududlardagi holatini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limidir. U tarix va tarixiy dialektologiya bilan uzviy bog'langan (Hojiyeva). Bu fikr areal lingvistikaning mohiyatini nisbatan to'liq aks ettiradi.

4. Areal lingvistikaning asosiy vazifalaridan biri til va sheva xususiyatlарining hududlarda taqsimlanishi va izoglossalarini sharhlashdir, buning natijasida til va dialektlarning o'zaro munosabati, umumiy struktur xususiyatga ega bo'lgan tillarning hamkorligi aniqlanadi. Bu ta'rifda lingvistik geografiya tilga olinmagan. Shuningdek, "umumiy struktur xususiyatga ega bo'lgan tillar" deganda qarindosh tillar nazarda tutilishini inobatga olish zarur.

5. Areal lingvistika umumlingvistik muammolar kompleksini tadqiq etadi, shu jumladan, areal lingvistika sheva xususiyatlарining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida kartada aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyaning bir bo'limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini kartada ifodalashdir.

Bu banddagи "umumlingvistik muammo" tushunchasi izoh talab qiladi, ya'ni bu tushunchani areal lingvistikaning dialektologiya, til nazariyasi, til tarixi kabi fanlar bilan ba'zi masalalarda o'rganish obyekti tutashishi mumkin deb tushunish lozim bo'ladi.

6. Areal lingvistika tillar va shevalarni, asosan, kartalashtirish (atlaslar tuzish), ularni sharhlash orqali o'rganadi, lekin bu ilmiy mulohaza yuritilmaydi, gipoteza qo'yilmaydi, o'rganilayotgan masalaning tabiatи ochilmaydi, xulosalar qilinmaydi, degan so'z emas. Bu fanda til va sheva faktlarining tarqalishi jarayonlarining ilmiy masalalari kompleks ravishda olib boriladi.

Areal lingvistikaning obyekti sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

areal lingvistikaning paydo bo‘lishi;
til va dialektlarni areal o‘rganish metodlari;
lingvistik arealning xususiyatlari;
izoglossalar tizimi;
lingvistik takson masalasi;
areal lingvistikada innovatsiya masalasi;
til va shevalar kontaktlari;
til va dialektal zona;
lingvistik karta va lingvistik atlas;
lingvistik kontinuum;
til va dialektlar sistematikasi;
jahonning ijtimoiy kartasida tillarning tarqalishi va ular zonalarining belgilanishi;
tillar va shevalar kesishgan hudud tili (oraliq til) va shevasining xususiyatlari;
til va shevalar migratsiyasi;
til va shevalarning tasnifi;
qarindosh til (idiom) va lahja munosabatlari va h.k.

Areal lingvistikada dialektologiya, geografiya, biologiya, umumiy tilshunoslik fanlarining materiallaridan foydalanilganligi uchun tilshunoslar areal lingvistikadagi tadqiqot usulini “kabinet ishi”, ya’ni ularning materiallari nazariy rivojlantiriladigan fan deb ham yuritganlar, jumladan, M. A. Borodina dialektologning vazifasi sheva materiallarini aholidan yig‘ib olish orqali o‘rganish bo‘lsa, areal lingvistika mutaxassisasi dialektolog to‘plagan materialni xonada (kabinetda) o‘tirib unga ilmiy ishlov beradi, deb qaraydi⁴. Bu fikrda qisman haqiqat bor, chunki areal lingvistikada mutaxassis o‘zi sheva yoki konkret tillardan faktlar to‘plashi ham mumkin hamda o‘zi to‘plamagan til va shevaning tayyor materiallari asosida ham ish yuritishi mumkin. Bunday usul muayyan hududning kartalarini yaratish chog‘ida amalga oshiriladi.

Areal lingvistika nazariy va amaliy maqsadlarda qo‘llanadi: uning nazariyligi lingvistik kontaktlogiya masalalarini yechishda,

⁴ Qarang: Бородина М. А. Проблемы лингвистической географии. – М. – Л.: 1966. – С. 7.

til substrati muammosini hal qilishda yordamga keladi, arxaizm va izoglossalar innovatsiyasini aniqlashning yangi metodikasini tavsiya etadi, uning amaliyligi esa til va sheva faktlarini kartalarda aks ettiradi va h.k.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Area(l) so'zining ma'nosini izohlab bering.
2. Areal lingvistika nimani o'rganadi?
3. Areal lingvistikaning qanday talqinlari bor?
4. Areal lingvistikaning predmeti nimadan iborat?

2-mavzu. Areal lingvistika va yondosh fanlar

Reja

1. Areal lingvistika va dialektologiya.
2. Areal lingvistika va lingvistik geografiya.
3. Areal lingvistika va arealogiya.
4. Areal lingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch tushunchalar: areal lingvistika, dialektologiya lingvistik geografiya, arealogiya, tarix, til nazariyasi, kartografiya.

Matn

Areal lingvistika garchand qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bilan bir vaqtida va uning asosiy nazariyalariga oppozitsiyani hosil qilgan bir davrda yuzaga kelgan bo'lsa-da, u o'zining mustaqil tekshirish metodikasiga ega bo'ldi.

Areal lingvistikada ham tillar va shevalar sinxron va diaxron aspektlarda o'rganiladi. Diaxron aspekt bobo tilining (праязык) areal bo'linishiga va shevalararo o'xshashligini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Sinxron aspekt esa muayyan davr areallarini o'rganadi.

Areal lingvistika va dialektologiya. Ma'lumki, areal lingvistika til va shevalarni muayyan hududiy qamrab olish asosida o'rganadi va shu jihatdan dialektologiyadan farqlanadi. Ularning farqlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (1-rasm):

Dialektologiya va areal lingvistika munosabati

Dialektologiya	Areal lingvistika
Bir til doirasida shevalarning fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarini o'rganishi o'rnatiladi.	Shevalarning fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarini o'rganishda bir til doirasidan chetga chiqishi mumkin.
Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug'atlar yaratish orqali o'rnatiladi.	Shu bilan birga, ular xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilari va raqamlar vositasida kartada aks ettirish bilan shug'ullanadi.
Shevalarni sinxron va diaxron aspektida o'rnatiladi	Til va shevalarning o'rganilayotgan davri areali yaratiladi. Lozim o'rnlarda til tarixiga murojaat qilinadi.
Shevalarga xos qonunlarning tabiatini o'rnatiladi.	Tillar va shevalarga xos qonunlarning hududlarda saqlanish chegaralarini belgilaydi.
Bir etnik tarkibga ega bo'lgan, ya'ni bir lahjaga taalluqli bo'lgan shevalarning turli hududlardagi xususiyatini o'rnatiladi.	Til va shevalarni muayyan hudud doirasida o'rnatiladi.
Shevalarni hududlar nuqtayi nazardan emas, balki kelib chiqishiga ko'ra tasnif qiladi.	Til va shevalarni fokus nuqtasiga ko'ra tasnif qiladi.
Shevalarni o'rganishda birlamchi bosqichdir.	U o'rganilgan, yani tadqiq qilingan til va sheva materiallari va xulosalariga asoslanadi.

Bu qiyosiy tahlillardan ma'lum bo'lmoqdaki, areal lingvistika dialektologiya bag'ridan o'sib chiqqan. Shuning uchun ham uning nazariy va amaliy xulosalari areal lingvistikaning birinchi manbasi hisoblanadi, undan oziqlanadi va dialektologik materiallarni qayta ishslash orqali areal tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Areal lingvistika va lingvistik geografiya. Aksariyat adabiyotlarda bu ikki tushuncha tenglashtiriladi. Aslida areal lingvistika keng tushuncha bo‘lib, lingvistik geografiya uning izoglossalarini kartalashtirish bilan shug‘ullanadigan bir bo‘limidir. Shuningdek, *lingvistik geografiya* areal lingvistikaning o‘z tekshirish metodi hisoblanadi (bu haqda o‘z o‘rnida fikr yuritiladi).

Areal lingvistikaning bevosita hamkorlik qiladigan fani bor. Bu fan *geografiyadir*. Areal lingvistikadagi *lingvistik geografiya* degan bo‘limning mavjudligi uning geografiya bilan zich munosabatini ko‘rsatadi. Lingvistik karta va atlaslar yaratish bu bo‘limning tadqiqot obyektidir.

Areal lingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ma’lumki, hech bir fan yo‘qliki, u yakka holda taraqqiy etgan bo‘lsin. Bu, albatta, areal lingvistikaga ham aloqador. Bular quyidagilar:

arealogiya. U tabiatdagi turli jonivorlar va tabiiy boyliklarning tarqalish hududlarini o‘rganadigan biogeografiyaning bo‘limidir. Til va dialektlarning tarqalgan hududlarini o‘rganishda bu fanning yutuqlaridan foydalilaniladi. Areal lingvistika, nomidan ko‘rinib turganidek, til va shevalarni hudud doirasida o‘rganganligi uchun arealogiya tushunchalari asosida ish ko‘radi;

tarix va til tarixi. Areal lingvistikada areallarning vaqt va makon, taksonlar, innovatsiya masalalari xalq tarixi va til tarixi faktlariga asoslanadi;

til nazariyasi. Areal lingvistika masalalarini til nazariyasi qonun va qoidalarisiz o‘rganib bo‘lmaydi. Bu fanning o‘zi umumiyligi tilshunoslik natijalariga asoslanadi. Fonologik, grammatik kategoriylar, tillarning kelib chiqishi kabi nazariy masalalar areal lingvistikaning ham tekshirish obyektidir.

Shuningdek, areal lingvistika boshqa lingvistik fanlar – umumiyligi tilshunoslik, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya (linvomadaniyatshunoslik) bilan muayyan masalalarda aloqada bo‘ladi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areal lingvistika uchun negiz vazifasini qaysi fan bajaradi?
2. Dialektologiya va areal lingvistika munosabatlarini qanday izohlagan bo‘lar edingiz?
3. Areal lingvistikaning arealogiyaga aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?

4. Lingvistik geografiya areal lingvistikaga nisbatan qanday maqomda?

5. Areal lingvistika qaysi fanlar bilan aloqada bo‘ladi?

3-mavzu. Areal lingvistikaning shakllanishidagi tayyorgarlik davri

Reja

1. Areal lingvistikaning shakllanishi.

2. I. Shmidt nazariyasi.

3. Areal lingvistikaning ilk davri namoyandalari.

4. Mahmud Koshg‘ariy va areal lingvistika.

Tayanch tushunchalar: areal lingvistikaning tayyorgarlik davri, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, “to ‘lqin nazariyasi”.

Matn

Areal lingvistikaning shakllanishi. Areal lingvistika qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bilan oldinma-keyin paydo bo‘ldi. Bu fanning shakllantirilishiga ehtiyojning paydo bo‘lishi keyingi davrlarda til va shevalarning taraqqiy qilish xususiyatlari, davr tilshunosligi muammolari, ya’ni qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning kamchiliklari, tadqiqot metodlariga yangicha qarash va yondashuvlar sabab bo‘ldi. Bunda bosh sabab sifatida dunyo bo‘ylab aholi migratsiyasi jarayonlarining kuchayishi bo‘ldi. Avval aytilganidek, dunyoning deyarli barcha regionlarida shaharlar kundan kunga yiriklashib, u yerda sanoatning, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish jarayonlari jadallashdi, shu bilan bog‘liq ravishda har bir mamlakatning aholisi shaharga tomon og‘di va hozir ham davom etmoqda, hatto dunyoning yirik shaharlarida tub millat vakillari bilan birga, etnik jihatdan turlicha bo‘lgan aholi ham paydo bo‘lmoqdaki, bu ijtimoiy sharoitlarda an'anadagi lahja, dialekt, sheva degan tushunchalar nisbiy bo‘lib qolmoqda.

Tilshunoslikda areal lingvistika qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ichida shakllanganligi to‘g‘risidagi fikr ustundir. Bu fikr areal lingvistikada keng tarqalgan.

Bu sohani rivojlantirishda ko‘plab xorijiy va rus olimlari, turkologlar ishtirok etgan. Ular ichida Iogan Shmidtning asosli fikrlari muhimdir.

Iogan Shmidt nazariyasi. 1872-yilda I. Shmidtning “*Hind-Yevropa tillarining o‘zaro qarindoshlik munosabatlari*” degan kitobi bosilib chiqdi [Гаджиева 1975:6] va unda I. Shmidt qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yirik vakili A. Shleyxerning “*Shajara-daraxt*” nazariyasiga *lingvistik uzviylik* tamoyilini, ya’ni hududiy o‘zaro ta’sirning uzviylik zanjiri sxemasini qarama-qarshi qo‘ydi. I. Shmidt fikricha, dastlab Yevropa tillari orasida hech qanday aniq chegara bo‘lmagan, har bir hind-yevropa tilini bir-biriga nisbatan oraliq til sifatida qarash kerak va barcha hind-yevropa tillari o‘zaro bir-biriga o‘tuvchi zanjir bilan bog‘langan. I. Shmidt bir-biri bilan geografik yaqin joylashgan tillarda o‘xshashlik kuchli bo‘lishi va uzoqlashgan sari esa ulardagi o‘xshashlik kamaya borishiga urg‘u bergen. Tillarning hozirgi holatida I. Shmidtning bu nazariyasi haqiqatga yaqin keladi. Hozirgi dialektologiyada turli lahjaga oid ikki dialektning yoki shevaning xususiyatlarini aks ettirgan oraliq sheva hosil bo‘lishi to‘g‘risida fikrlar bor [Qudratov 1968: 3] Bunday oraliq shevalar har bir tilda bor, jumladan, bu haqda Ozarbajjon dialektologlari ham ma’lumot beradilar [Велиев 1963: 89-120]. Shuningdek, hatto genetik jihatdan qarindosh bo‘lmagan tillar hududiy qo‘sniqchiligidagi ham ular orasida o‘xshash xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Buni o‘zbek-tojik tili munosabatida ko‘rish mumkin.

Areal lingvistikaning ikki omilga ko‘ra yuzaga kelganligi e’tirof etiladi:

1. Hind-yevropa tillarining kelib chiqishi to‘g‘risidagi yangi qarashlar bilan bog‘langan muammolar omili. Bu g‘oya “*Yosh grammatikachilar*” tomonidan igari surilgan tillarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarshi paydo bo‘lgan nazariya sifatida shakllandи, ya’ni bu davrda yangi tillarning va dialektlarning topilishi tilshunoslarni qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka, ularning oddiy sxemalariga qarama-qarshi fikr yuritishlariga sabab bo‘lgan va bu jarayonda areal lingvistik qarashlar yuzaga kelgan.

2. Dialektlarni o‘rganishning yangi metodi omili. Bu davrga kelib tillar va shevalarni o‘rganishning lingvistik geografiya metodi yuzaga keldi.

Areal lingvistikani rivojlantirishda quyidagi kabi olimlarning xizmatlari bor: G.Shuxardt, G.Venker, G.Paul, J. Jilyeron, E.Edmont, M.J.Bartoli (Введение в неолингвистике, 1925), G.Vidossi, A. Meye, G. Bonfonte, G. Devoto, V. Porsig, E. Kosheriu, A.Doza, P.Ivich, Э.А.Макаев, Р.А.Пузук, Р.И.Аванесов, С. В. Bernshteyn, В. М. Jirmunskiy, G. F. Blagova, N. Z. Hojiyeva (Гаджиева), M. A. Borodina, B. A. Serebrennikov, D. I. Edelman, A. Jo'rayev va boshqalar.

Areal lingvistikaning paydo bo'lishida A. Piktening (1859) *lingvistik uzviylik* konsepsiysi ham ahamiyatli bo'lgan.

A. Meye areal lingvistika dialektologik tadqiqotlarning *uzviy natijasi* ekanligini isbot qildi, uning asarlarida izoglossa, innovatsiya masalalari chuquroq o'rganildi (Meillet A. Los dialectos indo-europeens. Paris, 1922);

G. Paul oraliq (tutash) dialektlarda chegaralar bo'lmasligi va har bir til hodisasi o'z chegaralari ichida rivojlanishini fanga ma'lum qildi (Пауль Г. Принципы истории языка. -М., 1960).

G. Venker lingvistik geografiyaning tilshunoslikning muhim sohasi sifatida asosladi va dialektlarni tavsif qilishning yangi shaklini, ya'ni dialektologik atlaslar tuzish orqali o'rganish yo'nalishini kashf etdi (Венкер Г. Диалектологический атлас северной и средней Германии // Общее языкознание. -М., 1973, 125).

Lingvistik geografiyaning burilish nuqtalaridan biri sifatida J. Jilyeron va E. Edmonilarning "Fransiyaning lingvistik atlasi (Gillieron J. Edmont E. Atlas linguistique de la France. Paris. 1902 - 1910)" deb nomlangan betakror tadqiqotining paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin. Bu atlasning yuzaga kelishi umumiyligi tilshunoslikda *fonetik (tovush) qonunlarning mohiyati* masalasiga yangicha yondashishga olib keldi. Ularning fikricha, fonetik qonunlarni jiddiy tahrir qilish kerak, fonetik o'zgarishlar tilda tez va barcha joylarda baravar yuz bermaydi, balki asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Misol sifatida eski fransuzcha *oi* diftongi "*ua*"ga o'tishdan avval *ue* bosqichini bosib o'tgan, lekin u ayrim g'arbiy va sharqiy dialektlarda arxaik *ue* uchrashini ko'rsatadilar.

Yana ularning fikricha, til(sheva)ning tarqalishi davlat chegaralari bilan mos kelmaydi, masalan, Italiyaning Kalabriya, Sitsiliya shevalarida XI asrgacha grek va arab tillari ustunlik qilgan

va shimoliy Italiya shevalarida ularning parallelari qo'llangan. Bu fikr til va shevalar rivojlanishining hozirgi davri uchun ham mos keladi. Bu haqda o'z o'rnida fikr yuritiladi.

A. Doza lingvistik geografiyani “*tilning geologiyasi*” deb ataydi, ya’ni lingvistik geografiya muayyan hududdagi so‘z qatlamlarini (unda *stratigrafiya* termini ishlatilgan), so‘zning tarixiy variantlarini aniqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi (Dauzat A. La geographic linguistique. Paris, 1922).

Mahmud Koshg'ariy va areal lingvistika. Fanda areal lingvistika g‘arb tilshunoslari asarlari orqali o‘rganib kelingan hamda uning paydo bo‘lishi ham ular nomi bilan bog‘langan. To‘g‘ri, bu hozirgi tilshunosligimizda tan olinadi, lekin uning dastlabki namunalari Mahmud Koshg‘ariy tomonidan aytilganligini ta’kidlash o‘rinlidir. Afsuski, g‘arb areal lingvistikachilari hozirgacha ham uning ma'lumotlarini e’tiborga olmagan. Uning asarida hudud tili va shevalari noqarindosh qabilalar tiliga ta’sir etishi to‘g‘risida qat’iy fikrlar bor. Mahmud Koshg‘ariy turkiy qabilalar ichida arablar qabilasiga mansub urug‘lar mavjudligi va ular o‘z tillarini yo‘qotishgan bo‘lsa ham, arab tiliga xos ayrim unsurlarni saqlab qolganligini yozadi: “*Tubutlar turk diyorida yashovchi bir qavm. ... Bular bir jinoyat qilib, Yamandan qochib, dengiz yo‘li bilan Chinga borib o‘rnashib qolgan. Bani Sobit avlodidindur. Turklar yeridin 1500 farsax joyda yashaydi. Sharq tomoni Chin, g‘arb tomoni Kashmir, shimol tomoni Uyg‘ur, janub tomoni Hind dengizidir. ... Ular onani uma, otani abo deydilar* [Кошғарий, 1963, III, 459]. Bu qabila tili atrof tillarning ta’siriga uchragan. Buni o‘rganish areal lingvistikaning mazmuniga mos keladi. Shunisi e’tiborlik, Mahmud Koshg‘ariy turkiylar yashaydigan keng arealda qanday sheva bo‘lsa, ularning turli qabilalar bilan munosabatini ham gemogen, ham geterogenlik jihatidan yoritgan. Bizningcha, g‘arb areal lingvistikasi mutaxassislari buni e’tiborga olishi shartdir. Yana muhim tomoni Mahmud Koshg‘ariy dunyo kartasini tuzishni boshlagan va bu karta lingvistik karta darajasiga yetmagan bo‘lsa-da, o‘sha davr urug‘ va qabilalarining joylashishini (bu uning shevalari degan tushunchani ham anglatadi), Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Chin, Kavkaz va boshqa mintaqalarni ham tasvirlashga harakat qilganki, unga lingvistik geografiyaning dastlabki namunalari deb qarash o‘rinli

bo‘ladi. Demak, areal lingvistikaning shakllanishi sharqdan boshlanganini tan olish lozim bo‘ladi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areal lingvistikaning shakllanishiga sabab bo‘lgan omillar qaysilar?
2. Iogan Shmidt nazariyasining mohiyati nimada?
3. Bu davrda areal lingvistika g‘oyalari kimlar tomonidan rivojlantirildi va ular qanday fikrlarni ilgari surdilar?
4. Mahmud Koshg‘ariyni ham areal lingvistika asoschisi desa bo‘ladimi?

4-mavzu. Areal lingvistikaning yangi davri

Reja

1. Areal lingvistikaning yangi davri mohiyati. M. Bartoli va G. Vidossi. Neolingvistika.
2. E. A. Makayevning areal lingvistik qarashlari.
3. Yangi davr ijodkorlari.

Tayanch tushunchalar: areal lingvistikaning yangi davri, neolingvistika, izoglossa, innovatsiya, hind-yevropa tillari.

Matn

Areal lingvistikaning yangi davri mohiyati. Bu davr *areal lingvistikaning metodlarini til tarixiga tatbiq etish bilan* boshlandi. Bu g‘oyani italiyalik M. Bartoli va G. Vidossilar amalga oshirishga urindilar hamda ular qiyosiy-tarixiy metodni taftish (reviziya) qiladilar va uning natijasi o‘laroq *neolingvistika* degan tushunchaga asos soladilar. Ular *areal lingvistika* terminini ilk bor fanga olib kirishdi va dialektal xususiyatlarni boshqa hududlardagi variantlari bilan birga o‘rganishdi. Dialektologiyani areal lingvistikaning faktologik asosi deb atashdi. Ularning ilgari surgan g‘oyalari keyinchalik hind-yevropa qiyosiy grammatikalariga tatbiq etildi. Bular ichida N. S. Trubetskoyning “til ittifoqi” nazariyasi ahamiyatli edi (bu to‘g‘rida keyingi sahifalarda so‘z boradi).

E. A. Makayevning (Э. А. Макаев) areal lingvistik qarashlari. Hind-yevropa areal lingvistikasining asosiy g‘oyalarni (kriteriya) neolingvistika maktabi namoyandasgi E. A. Makayev shakllantirdi.

Italiya neolingvistika namoyandalari qarashlarini shakllantirishda E. A. Makayevning hind-yevropa tillari taraqqiyoti to‘g‘risidagi quyidagi fikrlari muhim ekanligini qayd qilish mumkin:

1. Fanda hind-yevropa, umumgerman, umumslavyan, umumkelt (irland, gal, uels, breton) bobo tili tushunchasidan voz kechib, unga izoglossalar yig‘indisi tushunchasini kiritish;

2. Tildagi leksik, fonetik, grammatik mosliklar hind-yevropa tillarining kelib chiqishini asoslashda foydalanilishi kerak emas, balki ularga keyingi davr hosilasi sifatida qarash, shuningdek, ayrim tillarning o‘zaro aloqasiga (kontakt) geografik yaqin tillar ekanligi jihatidan yondashish;

3. Neolingvistika maktabi qarashlariga, asosan, markaziy tillarni innovatsiya zonasi, marginal (atrof) tillarni esa konservatsiya zonasi sifatida ta‘riflash lozim. Bu fikrlarni yana rivojlantirib, u “*Hind-yevropa areal lingvistikasi muammolari*” (1964) asarida neolingvistikaning asosiy tamoyillarini quyidagi masalalar bilan bog‘liq deb hisoblaydi:

1) hind-yevropa tillarining ayrim guruhlarini keng tavsif qilish, ularning qarindoshlik darajasini aniqlash, bu guruhdagи ikki yoki bir necha guruhchalar izoglossalari tizimini aniqlash;


2) muayyan areallarning tarkibiy (struktur) xususiyatlaridan bir qatorlarini chiqarib tashlash (afsuski, bu fikri ochiylanmagan), ushbu areallar modellarining aloqada (kontakt) bo‘lgan hind-yevropa areallari modellariga munosabatini belgilash;

3) hind-yevropa tillarining alohida guruhlarida hind-yevropa modellarini qo‘yish asosida innovatsiya va arxaizmlarni belgilash hamda o‘rnatish;

4) hind-yevropa tillarini tasniflash tamoyillarini belgilash, umumhind-yevropa til birligi tushunchasini aniqlash va ulardagи dialektal izoglossalarning miqdorini o‘rnatish⁵. Afsuski, bu fikrlar kyinchalik fanda e’tiborga ega bo‘lmadi.

Yangi davr ijodkorlari. Areal lingvistikaning rivojlanishiga rus va turkiyshunos olimlar ham hissa qo‘shdilar. Jumladan, V. M. Jirmunskiy va G. F. Blagovalar til va dialektlarning lingvo-

⁵ Qarang: Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – Москва: Наука, 1975. – С. 8.



geografik o‘rganilishi til tarixini tadqiq qilish uchun ahamiyatini asoslashdi.

M. A. Borodina areal lingvistikani dialektologiya, lingvistik geografiya va arealogiyaning tadrijiy rivojlanishi natijasi deb bilgan.

Areal lingvistikaning shakllanishi va rivojlanishida turkiyzabon respublikalar olimlari ham ilmiy ishlari bilan qatnashdilar. L.P. Sergeyev “Chuvash tilining dialektologik atlasi”ni tuzgan. V. Tatarin “Tatar tilining dialektologik atlasi”ni yaratishga muyassar bo‘lgan.

O‘zbek olimlari ham lingvistik geografiya bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirgan (ular o‘z o‘rnida yana muhokama obyekti bo‘ladi).

Garchand areal lingvistika terminini qo‘llamagan bo‘lsalar-da, turkiy va o‘zbek tillari faktlarining tarqalishi masalalari V. A. Bogoroditskiy, Y. D. Polivanov, G. O. Yunus, V. V. Reshetov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkovlar tomonidan ham o‘rganilgan.

V. A. Bogoroditskiy tatar tilining vokalizmini, shuningdek, konsonantizmini o‘rganishda turkiy tillar aralashgan hududlarni hisobga olish lozim, chunki eski turkiy tilning xususiyatlari hozirgi jonli turkiy tillarda turlicha taqsimlangan bo‘ladi, degan fikrni bildiradi.

Y. D. Polivanov o‘zbek shevalarining kuchli farq qilinishiga diqqatni qaratadi va unga sabab qilib o‘zbek shevalari turkiy tillarning uch genetik jihatdan farqlanadigan manbagaga borib taqalishi to‘g‘risida fikr yuritadi. Shuningdek, lahjalarning kuchli farqlanishini boshqa turkiy tillar, xususan, qipchoq lahjasiga qozoq tilining, o‘g‘uz lahjasiga turkman tilining ta’siri haqida fikr yuritadi. Bu g‘oya o‘zbek shevalarini tasnif qilishda V. V. Reshetov tomonidan yanada rivojlantirilgan.

V. V. Reshetov O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning shakllanishiga asos solgan. U qurama shevalarini o‘rganish jarayonida uning 49 kartasini yaratishga muvaffaq bo‘lgan.

Y. D. Polivanov Markaziy Osijo turkiylarining bir zonadagi o‘zaro aloqasini yoritishi areal lingvistika mazmunini boyitgan edi. U qoraqalpoq tilining yondosh turkiy tillar bilan aloqasida fonetik va morfologik xususiyatlarining uch toifasini qayd qilgan: 1) o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq tillari uchun umumiy til faktlari belgilari; 2) qozoq va qoraqalpoq tillari uchun umumiy xususiyatlar; 3) o‘zbek

va qoraqalpoq tillari bilan umumiy xususiyatlar. Y. D. Polivanov qoraqalpoq tili qozoq va o'zbek tillari uchun oraliq til vazifasini bajaradi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi⁶.

Y. D. Polivanov va V. V. Reshetovlar o'zbek shevalarini tasnif qilishda aloqada bo'lgan tillarning tarixiy-genetik faktorlarini hisobga olishgan va shu asosga ko'ra shevalarning tarqalishini bayon qilishgan. Shuningdek, ular o'zbek tili va shevalarining qozoq, turkman tillaridan farqlanib qolishini iqtisodiy bo'linish natijasi deb qaraydi, bunda davlat chegaralarning paydo bo'lishi va mustaqil iqtisodiy sharoitlarda yashashini ko'zda tutishgan. Y. D. Polivanovning turkiy tillar va dialektlarining tarqalishida o'g'uz migratsiyasi degan nazariyaga asos solganligi muhim ahamiyatga ega. Bu nazariya hozirgi tarix asarlarimizda o'zini oqlagan.

O'zbek shevalari bilan aloqada bo'lgan turkiy tillar – qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman tillari o'rtasida oraliq shevalarni hosil qilishi masalasi Y. D. Polivanov, V. V. Reshetovlarning tadqiqotlaridan o'rinn olgan.

G. O. Yunus o'zbek shevalari tasnifining ikki variantini yaratgan. Birinchi variantida o'zbek shevalarini *qipchoq, uyg'ur-chig'atoy, o'g'uz* lajhalariga (1927), ikkinchi variantida *o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xeva-Urganch* lajhalariga (1935) ajratgan. Lekin ikkinchi tasnifini izohlash jarayonida birinchi variantidan voz kechadi. Keyingi tasnifida shevalardagi fonetik, leksik, grammatik birlikning tarqalishi va joylashishiga ko'ra ularning guruuhlarini belgilagan, boshqacha aytganda, izoglossalarning tarqalishini (lekin G. O. Yunusda *izoglossa* termini ishlatilmagan) tasnif uchun asos qilib olgan. Bunday yondashuv, albatta, areal lingvistik yondashuvdir. Shuningdek, u o'zbek shevalaridagi a unlisining tarqalishi o'zbek tilining ichki qonuniylari asosida yuz bergenligini ta'kidlaydi.

K. K. Yudaxin qirg'iz dialektlarini o'rganish jarayonida shevalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zarurligi va ular shevalarni bir-biridan farqlashda muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, K. K. Yudaxin o'zbek shevalaridagi ayrim izoglossalarning xususiyatlariga ham to'xtalgan. Bu uning Vodil

⁶ Поливанов Е. Д. Некоторые особенности каракалпакского языка // Труды Хорезмской экспедиции. – Ташкент, 1933. – С. 4, 5.

shevasi to‘g‘risidagi kichik tadqiqotida aks etgan bo‘lib (“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali), unda e unlisining qo‘llangani aytilgan, lekin ushbu ma’lumot izoglossalar izohlangan tadqiqotlarda e’tibordan tushib qolmoqda.

A. K. Borovkov o‘zbek shevalarini tasnif qilar ekan, uning konkret til hodisalariga, areal lingvistika tili bilan aytganda, izoglossalarning (A.K. Borovkov ham *izoglossa* terminini qo‘llamaydi) tarqalishiga ko‘ra tasnif qilinishini asos qilib olgan. U ā, a, j(y, ii), ţ(j, дж) fonemalarining qo‘llanishiga tayanib, o‘zbek shevalarini tasnif qiladi. U o‘zining ikkinchi tasnifida shevalarning tarixiy taraqqiyotiga urg‘u bergen. Demak, u areal lingvistikating shakllanish jarayonida shu ikki g‘oyasi bilan ishtirot etgan.

O‘zbek areal lingvistikasining paydo bo‘lishiga yuqorida o‘zbeklarning nazariy fikrlari va tadqiqotlari asos bo‘ldi. Shu bilan birga, o‘zbek shevalarining lingvistik geografiya metodida o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlari ham yuzaga keldiki, bu ishlarda A. Shermatov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, N. Murodova, Z. Ibrohimova, I. Darveshov, N. Rahmonovlar qatnashdilar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbek areal lingvistikasi nazariyasiga poydevor A. Jo‘rayev tomonidan qo‘yildi. Uning go‘yalari “O‘zbekzabon massivni areal tadqiq qilishning nazariy asoslari” asarida aks ettirildi. Jahon ahamiyatiga molik bo‘lgan bu tadqiqot endigina amaliyotga joriy qilinmoqda.

O‘zbek areal lingvistikasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ushbu asarning muayyan o‘rinlarini yoritishda yana tahlil obyekti bo‘ladi.

Demak, dunyo areal lingvistikasi asosida o‘zbek areal lingvistikasi paydo bo‘ldi va taraqqiyotga yuz tutmoqda.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areal lingvistikating yangi davri qachon boshlangan?
2. Neolingvistika tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?
3. Turkologlarning areal lingvistikadagi faoliyati to‘g‘risida nima deysiz?
4. Areal lingvistika o‘zbek tishunosligida kimlar tomonidan rivojlantirildi?

5-mavzu. Til va dialektlarni o‘rganish metodlari

Reja

1. Tilni o‘rganish metodlari.
2. Shevalarni o‘rganish metodlari.
3. Lingvistik geografiya metodi.

Tayanch tushunchalar: metod, tavsifiy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya, anketa, dialektometriya.

Matn

Til va uning ko‘rinishi bo‘lgan shevalarni o‘rganishda turli metodlar kashf etilgan. Bular tasviriy, qiyosiy, dialektometriya, qiyosiy-tarixiy, chog‘ishtirish, differensial, struktur, distrubutiv, statistik tahlil, transformatsion, komponent tahlil va boshqalar.

Ma’lumki, tilshunoslikning fan sifatida shakllanishida qiyosiy-tarixiy metod nihoyatda muhim rol o‘ynagan. Ayni o‘rinda u areal lingvistika g‘oyalaring paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Har qanday fan o‘z tadqiqot metodlariga ega. Hozirgi davrda fanlar taraqqiy etar ekan, endilikda u bir metod bilan chegaralanib qolmaydi, balki bir necha metodlarga ham murojaat qiladi. Bizning nazarimizda, dastlab til va sheva faktlarini qayd qilish metodi yuzaga kelgan. Mahmud Koshg‘ariy ham shu metoddan unumli foydalangan, lekin u analiz va sintez metodlarini ham qo‘llagan. Til va shevalarning xususiyatlarini aniqlash va unga ilmiy jihatdan ishlov berishda tilshunoslikdagi barcha metodlardan o‘z o‘rnida foydalaniladi va ularning aksariyati hozir ham faol qo‘llanadi.

Tavsify (tasviriy) metod. Bu metod tilshunoslik hali fan darajasida tan olinmagan davrlarda ham qo‘llangan. U ma’lum bir arealdagi til va shevalarning xususiyatlarini o‘rganishda o‘sha arealdagi fonetik, leksik va grammatic xususiytlarning muayyan davr, xususan, *hozirgi holatini* maxsus tuzilgan savolnoma bo‘yicha o‘rganishda qo‘llanadi. Bunda sheva faktlari o‘zbek adabiy tili xususiyatlariga nisbatlab olinadi. Bu metoddan hamma vaqt foydalanib kelingan. Areal lingvistika o‘rni bilan bu metodga murojaat qiladi, lekin faqat bu metoddan foydalanish ilmiy haqiqatning har doim ham yechimini topib bera olmaydi. Tabiatda va jamiyatda barcha hodisalar o‘zaro aloqada, bog‘lanishda bo‘lar ekan,

til va shevalar ham shu qonuniyatga bo'ysunadi. Demak, ilmiy haqiqat metodlarning ham o'zaro aloqada bo'lishini taqozo etadi. Tasviriy metod areal lingvistik tadqiqotlardagi dastlab ish ko'rish kerak bo'lgan metoddir.

Qiyosiy metod. Adabiyotlarda qiyosiy metod alohida yoritilmaydi. Albatta, bu metod tasviriy metod bilan birga qo'llanadi. Bu metoddan til (sheva) faktlarining ayni bir davr xususiyatlarini yoritishda foydalanilgan.

Bir arealdagi turli tillar va shevalar xususiyati qiyos qilinishi areal lilingviistikada bor, boshqacha aytganda, bu metod shevaga xos xususiyatlarni yondosh shevalarga, qarindosh tillarga qiyoslab o'rganishda foydalanilgan. Turkiy tillarni, o'zbek shevalarini o'rganishda, asosan, *tasviriy* va *qiyosiy* metodlardan foydalanilgan hamda boy material to'plangan.

Qiyosiy-tarixiy metod. Til va shevalarni o'rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo'lgan *qiyosiy-tarixiy metoddan* ham foydalanilgan. Jumladan, o'zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o'rganilgan, dialektologik tadqiqotlarda, afsuski, bu metodga kam e'tibor qaratilgan, balki tahlil talab qilingan o'rnlarda va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi. Areal lingvistika bu metodga ham murojaat qiladi. Har bir izoglossa takson vazifasini bajarishda ularning geografik o'rni, atrof (periferiya) ta'siri, tarixiy rivojlanishi jarayonlari qiyosiy-tarixiy metodda o'rganiladi.

Lingvistik geografiya metodi. Bu metod areal lingvistikaning o'z o'rganish metodidir. Bu metod orqali fonetik, leksik va grammatic shaklga ega bo'lgan izoglossalar guruhi yoki tanlab olingan izoglossalar kartalarga joylashtiriladi. Har qanday ishda bo'lgani kabi areal lingvistikada ham maqsad va vazifalardan kelib chiqib, dastur tuziladi. Bu dasturga, albatta, anketa savollari ilova qilinadi.

Lingvistik geografiyada, avvalo, o'rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo'ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari qo'yiladi, sheva faktlari uchun sharqli belgililar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasи tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo'yash texnikasi belgilab olinadi.

Anketa metodi. Bu termin fransuz tilidan [*enquête*] olingan bo'lib, tekshiruv, so'rov ma'nolarini bildiradi va uning xalq amaliyotida va fanda ko'p turlari bor. Anketa tadqiqot ishlarida qo'llanadigan rasmiy va norasmiy o'tkaziladigan tadbirning hujjatidir. Areal tadqiqotlarda, shu jumladan, dialektologik tadqiqotlarda ham bu hujjat joriy etiladi.

Anketa ham ijtimoiy talablar bilan birga takomillashib bormoqda va uning hozir elektron shakllari ham paydo bo'lgan. Aslida areal va dialektologik tadqiqotlar uchun tayyor anketalar bo'lmaydi, balki ilmiylik tamoyillari asosida uning namunalari yaratilishi mumkin. Bunday anketalar tadqiqotchining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tuziladi. O'zbek dialektologiyasida bunday anketalarning bir necha namunalari bor. Ular:

Borovkov A. K. O'zbek sheva-lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar. 1944.

Mirzayev M. Buxoro viloyatidagi (oblastidagi) o'zbek shevalarini o'rghanish uchun anketa, Buxoro, 1955.

Aliyev A. O'zbek tilining Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa. Namangan, 1964.

Bu anketalar metodik qo'llanma maqomida bo'lib, ular tavsiya xarakteriga ega, shevalarni o'rghanuvchilar bu ishlardan o'z anketalarini ishlab chiqishda ijodiy foydalaniib keldilar.

Anketalar dialektologik ekspeditsiyalarda (ilmiy, o'quv) o'ziga xos yo'riqnomasi vazifasini o'taydi.

Anketa ikki toifadagi shaxslardan til va sheva faktlarini to'plashda foydalilanadi: 1) respondentlar. Ular bilan ishslash uchun maxsus tayyorgarlik ko'rildi. Ulardan bu ishlarga uquvi bo'lishi talab qilinadi, lekin respondentlardan anketa savollariga javob olish har doim ham to'g'ri bo'lib chiqsa bermaydi; 2) tadqiqotchining o'zi. Bunda anketa tadqiqotchiga dastur vazifasini bajaradi va rejadagi ma'lumotni olish uchun tuziladi.

Dialektometriya metodi. Bu termin *dialect-o-metry* tushunchalaridan olingan bo'lib, areallarni o'rghanishning statistik metodi hisoblanadi. Bu metod obyektning qaysi jihatni tadqiqotchining maqsadi va vazifalariga mos ravishda rejalashtirilgan va natijasi kutilgan hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Masalan, shevaning adabiy tilga yaqinlik darajasini aniqlashda unga da'vogar hisoblangan

shevalardan yig‘ib olingan va hajm jihatdan teng bo‘lgan matnlar qiyoslanadi hamda yig‘ilgan faktlar hisoblab chiqiladi, shevalardagi fonemalar va ular variatsiyalari, kelishik affksi variantlari miqdori, uning boshqa shevalar bilan statistik qiyosi amalga oshiriladi va b. Bunday tadqiqot o‘zbek shevashunosligida hali amalga oshirilmadi.

O‘zlashirish uchun savollar:

1. Areal lingvistikada qaysi metodlar qo‘llanmoqda?
2. Tavsifyi metodning qanday yutuq va kamchiliklari bor?
3. Qiyosiy-tarixiy metod haqida nimalarни bilasiz?
4. Siz o‘z hududingiz tili va shevasini o‘rganish uchun qanday anketa tuzgan bo‘lar edingiz?
5. Siz o‘z hududingiz tili va shevasining qanday statistik ma’lumotlari berilishini istar edingiz?

6-mavzu. Areal lingvistikaning qayd qilish va sharhlash metodlari

Reja

1. Til (sheva) faktlarini qayd qilish metodi.
2. Areal lingvistikaning sharhlash metodi.
3. Innovatsion markazni aniqlash.
4. Substrat hodisalarini belgilash.

Tayanch tushunchalar: metod, lingvistik geografiya, qayd qilish, sharhlash metodi, interferensiya, innovatsion markazni aniqlash metodi, substrat.

Matn

Areal lingvistikaning asosini lingvistik tadqiqotlarda foydalananiladigan til (sheva) faktlari tashkil etadi, shuning uchun areal lingvistika metodlarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Til (sheva) faktlarini qayd qilish metodi. Muayyan til (shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlari, ya’ni til va shevalardagi fonetik-fonematik, morfemik-morfologik, leksik-semantik o‘ziga xos xususiyatlар qayd qilinadi. Bu jihatdan dialektologiya va areal lingvistika metodlari mos keladi. Aslida bu ish dialektologik tadqiqotlarning boshlanishidir. Muayyan arealdagi til va sheva

faktlarini qayd qilishda ikki usuldan foydalaniadi: 1) respondentlardan bevosita eshitish yoki anketa javoblari; 2) maxsus texnik vositalar (diktofon, smartfon va b.).

Til (sheva) faktlarini qayd qilishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratiladi:

til va sheva faktlarining *haqqoniyligini* ta'minlash. Dialektologik tadqiqotlarda shevaning ham o'z normasi (me'yori) borligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Shevadagi izoglossa vazifasini bajaruvchi faktlar odatda bir sheva vakilidan yozib olinadi. Bu fakt ko'pincha tasodifiy bo'lib chiqadi ham. Sheva faktining haqiqiy ekanligini bir shaxs ma'lumoti emas, balki shu shaxs ma'lumotlarining barchasini shevaning boshqa vakillaridan tasdiqlatib olish lozim. Bu ish matnni boshqa sheva vakillariga o'qib berish orqali amalgalashiriladi. Shevaning o'z normalari bo'lishi adabiyotlarda *shevaga xos xususiyat* deb yuritib kelinmoqdaki, uni qayd qilish nozik yondashuvni talab qiladi;

arealdagi shevalardan yig'ib olingen materiallar *til tarixini yoritishga* moslab tahlil qilinishi kerak. Boshqacha aytganda, har bir sheva fakti tarixiy rivojlanish natijasi ekanligi e'tiborga olinishi lozim;

areal shevalaridagi fonemalarni izohlashda uning *topologik* (*topo* – joy, *logos* – ma'lumot, bilim) xarakteristikasi berib borilishi, ya'ni har bir fonemaning o'z o'rni, ya'ni so'z boshi, o'rtasi, oxirida kela olish imkoniyatlari ko'rsatilishi lozim, masalan, e unlisi o'zbek tili va shevalarida so'zning faqat birinchi bo'g'inida keladi, o'zbekcha (o'zlashmagan) so'zlarda o (ä) unlisi so'z oxirida kela olmaydi va h.k.;

areal shevalaridagi fonemalarning *fonomorfologik* (morphologik) o'zgarishlarini izchil yoritib borish lozim. Bunda har bir so'z shakllari o'zgarishida hosil bo'ladigan fonetik jarayonlarining yoritilishi ko'zda tutiladi, ya'ni asosga affiks qo'shilganda yuz beradigan tovush o'zgarishlariga xarakteristika beriladi. Masalan, *begä kä* (*bu yerga kel* - Turkiston), *begä* so'zidagi fonetik o'zgarishlar morfologiya bilan bog'langan. *Ojna* – o'yin, älä – ot kabi qo'llanishlar ham fonomorfologik jarayonlarni ko'rsatadi. Bunday misollar shevalarning me'yoriy xususiyatlari sifatida qaralishi maqsadga muvofiq;

arealdagi dialektlarni o‘rganishda *har bir izoglossaning dastlabki holatini* (*shaklini*) o‘rnatish muhim. Bu talabni fonetik, grammatik va leksik hodisalarни yoritishda qo‘llash zarur. Albatta, buning uchun asos qilib adabiy til fakti olinadi va kichik etimologik izlanish olib boriladi. Masalan, *bjaqa* (qipchoq) – bu yoqqa, *ekäv* – ikkita (dona son, O‘sh) tarzida qiyoslanadi;

arealdagi dialektologik izlanishlarda tovushlarning *tipologiyasiga* asosiy diqqat qaratiladi. Bunda tovushning tilshunoslikda an’anada bo‘lgan tasnifi tamoyillariga amal qilinadi, masalan, **t** va **d**, **p** va **b** tovushlarining fonetik mosligi sabablari ular tasnidagi yaqinlik bilan bog‘liq ekanligi aytiladi;

arealdagi shevalarni shunchaki tanlab olib emas, balki ularni *keng qamrov* asosida (total) o‘rganish areal lingvistikaning asosiy tamoyili hisoblanadi. Total o‘rganishning yorqin misoli J. Jileron va E. Edmontlarning “Fransiyaning lingvistik atlasi” bo‘la oladi. Ularning fikricha, dialektlar rang-barangligi bo‘lmasa, adabiy til ham bo‘lmaydi. Shu tufayli ham ular fransuz tilining barcha dialektlarini atlasda aks ettirishga erishgan;

arealdagi dialektlarni o‘rganishda, albatta, *migratsion jarayonlarni* hisobga olish zarur. Bu esa provardda izoglossalarning innovatsion markazini aniqlashga yordamga keladi.

Demak, arealdagi shevalarni o‘rganishda sheva faktlari shunchaki qayd qilinmaydi, balki uning mazmunidagi biror dialektal hodisaning mohiyatini aniqlash nazarda tutiladi.

Areal lingvistikaning sharhlash metodi. Arealdagi tillar va shevalarni o‘rganishda hamda dialektologik atlas tuzishda faktlarning sharhi muhim o‘rin tutadi. Bu har bir kartaning tavsifini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladi. Sharhlash quyidagi aniq lingvistik vazifalarni bajaradi:

1) o‘rgani layotgan til yoki shevalarning aloqada bo‘lgan (qo‘shni) til va shevalar bilan *interferensiysi* natijalarini talqin qilish. Interferensiya til va dialektlar “ittifoqi” (kontakt) mavjud hududlarda yuz beradi. Bu ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda ekstral ingvistik faktorlar, til va dialect egalarining ijtimoy faolligi, ularning kasb-kori, muloqot tarzi, ularda gaplashuvchi shaxslar miqdori va geografik muhiti, ularning tili yoki shevasini o‘rganishga imkoniyatning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Shuni aytish kerakki, interferensiyada tillar va shevalarning o‘zaro ta’sirni aniqlash qiyin emas, balki bu hududda u yoki bu izoglossaning nima uchun o‘zlashtirilganligini izohlash qiyinchilik tug‘diradi. Bunda bir narsa ma’lumki, interferensiyada qatnashayotgan til yoki dialekt begona til va dialektning o‘z tizimida bo‘limgan faktlarini o‘zlashtiradi hamda ular o‘z tilini shu lingistik hodisalar (fonetik, leksik, grammataik) hisobiga to‘ldiradi. Ma’lunki, o‘zbek tili qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman va tojik tili hamda uning shevalari bilan kesishgan o‘rinlarga ega. Shevalar kesishgan joyda har ikkala tilga o‘xshamagan shevalar paydo bo‘ladi. So‘zsiz, bu shevalardagi o‘zbek tiliga xos bo‘lgan xususiyatni ajratib olish muammoi paydo bo‘ladi. Bu muammo sharhlash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo‘sni yashaydigan o‘zbeklar shevasida egalik affiksi va o‘rin-payt, chiqish kelishiklari o‘rtasida **n** undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo‘lida ~ älindä, qolidan ~ älinnän. Qirg‘iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar **n** undoshining yo‘qolib borishi ham o‘zbek tili shevalari bilan interferensiyaning natijasidir. Demak, interferensiya til kontaktining amalgamasi shaklidir;

2) *ijtimoiy omillarni hisobga olish.* Interferensiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Ijtimoiy omillar o‘ziga xos qonunlarga ega bo‘ladiki, ba’zan ular til yoki sheva egalariga shu tilning, shevaning aloqa imkoniyatlariga qarshilik ko‘rsatib qolishi mumkin. Bunda o‘z tili xususiyatlariga *odatlanib* qolish ruhiyati ustunlik qiladi. Masalan, o‘zbek tiliga chegaradosh bo‘lgan qozoq va qirg‘iz tillariga o‘zbek tilining ta’siri kuchli bo‘lsa-da, bu tillarda ayrim so‘z boshidagi š undoshi č undoshiga o‘tmagan, ya’ni o‘zbek tilidagi *chin*, *chirog ‘im*, *chegara* kabi so‘zlar *шын*, *шырағым*, *шегара* tarzida talaffuzini o‘zgartirmagan. Bunga shimoliy o‘zbek shevalariga o‘zbek adabiy tilining kuchli ta’siriga qaramay, singarmonizm qonuni saqlanib qolayotganini ham keltirish mumkin. Demak, til qarshiligi bor.

Agar aloqadagi (kontaktdagi) til yoki shevalardan biri aholi miqdori jihatidan ko‘pchilikni tashkil etsa, bunda aholi soni kam bo‘lgan til yoki shevani o‘ziga singdirib olishi mumkin. To‘g‘ri, bunda o‘zlashish darajasi haqida ham fikr yuritish mumkin bo‘ladi. Bunga Qashqadaryodagi (masalan, Kitob tumani Chechak qishlog‘i

shevasi) “j(y, ü)”lovchi shevalar “ $\check{z}(j,\dot{\partial}\mathcal{H})$ ”lovchi shevalarga qorishuvi natijasida “j”lovchi shevalar aholisining ko’pligi tufayli “j”lashishning ustun kelishi misol bo’la oladi. Shuningdek, N. Z. Hojiyevaning qoraqalpoq va qirg’iz tillarining janubiy shevalarida so‘z boshida “j (y, ü)”lashishning saqlanib qolishini o‘zbek tilining kuchli ta’siri deb qarashi ham bunga misol bo’la oladi⁷, chunki bu zonada o‘zbeklar son jihatdan ko’pchilikni tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida til va dialektlardagi jarayonlar chegara zonalar bilan bog’liq holda sharhlandi. Aslida sharhlash til va dialektlarni har qanday sharoitda o‘rganishda qo‘llanishi mumkin, lekin uni muammoli, munozarali o‘rinlarda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3) *muayyan hududda turg‘unlashmagan til hodisalarini sharhlash*. Ikki sheva yoki dialektga xos xususiyatlar shu sheva va dialektlarda baravar qo‘llanishda davom etishi hamda ulardan birining g‘olib kelmasligi interferensiyaning tugallanmaganligini, ya’ni bir sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Bunga o‘zbek tilidagi ā va a, j(y,ü) va $\check{z}(j,\dot{\partial}\mathcal{H})$ hodisasining parallel qo‘llanishi misol bo’la oladi.

4) *konvergensiya hodisalarini farqlash*. Ma’lumki, o‘zbek tili taraqqiyotida shahar tipidagi shevalarda ö ↔ o, ü ↔ u, i: ↔ i: unlilari konvergensiya uchragan. Ularning kartadagi o‘rniga izohlar beriladi.

Innovatsion markazni aniqlash. Bu metod, albatta, til tarixi bilan bog’langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo‘lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi. Ma’lumki, qadimgi turkiy tilda j(y,ü) ~ $\check{z}(j,\dot{\partial}\mathcal{H})$ paralleli aks etgan⁸. O‘zbek shevalarida “j”lashish o‘rnida “j”lashish (qipchoq lahjasи shevalarida $\check{z}ax\check{s}i$ o‘rnida *jaxši*) varianti paydo bo‘lmoqda hamda u tobora kengroq tarqalmoqda. Bunday jarayon j(y,ü) undoshining innovatsion nuqtasi qadimgi turkiy til bo‘lganligi bilan ham izohlanishi mumkin. Hozirgi singarmonizmni yo‘qotgan shevalar ham o‘tmishda singarmonizmli bo‘lgan. Bunda ham innovatsiya nuqtasi sifatida qadimgi turkiy til

⁷ Гаджиева Н.З. Кўрсатилган асар, - С199.

⁸ Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. – Алматы: Мектеп, 2003. – С. 31.

qatnashadi (innovatsiya masalasi keyingi o‘rinlarda mufassal yoritiladi).

Til substratlarini aniqlash. Umumiy tilshunoslikda til substrati degan tushuncha bor. Ularning muayyan tilga ta’sirini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim: 1) til substratini til strukturasining turli sathlarida o‘rganish kerak, ya’ni tilning fonetik, leksik, grammatik sathlarida mavjudligini aniqlash lozim bo‘ladi; 2) til substratlarini konkret bir tilning uzviy (tabiiy) unsuri sifatida va uning taraqqiyoti sifatida qaralmaydigan holatda belgilash lozim bo‘ladi; 3) substrat sifatida qaralayotgan til hodisalari yakka va uzib olingan bo‘imasligi, balki uning ko‘rsatkichlari sistem tuzilishga ega bo‘lishi kerak; 4) til substratlarini tadqiq qilishda toponimiya, gidronimiya ma’lumotlaridan keng foydalanish zarur.

Ma’lumki, substrat hokim til yoki shevaning qoldiqlari bo‘lib, muayyan hududda uning unsurlari (elementlari) qolgan bo‘ladi. Masalan, hozirgi Xorazm shevalarida “Avesto” tilining substratlarini uchratish mumkin, jumladan, *Xorazm* (Hvairizm), *Asfandiyor* (Spandudota), *Bahrom* (Varxram) [Ashirboyev 2021:109].

Shuni ta’kidlash lozimki, har qanday til va sheva ta’sirlari natijasini substrat deb talqin qilish to‘g’ri emas. Adabiyotlarda “a”lashishning paydo bo‘lishi, singarmonizmning ayrim shevalarda amalda yo‘qligi, -ki bog‘lovchisining (yuklamasi) o‘zbek tilida saqlanib qolishini substrat bilan bog‘lashga moyilliklar sezilib qoladi, lekin ular qachonlardir g‘olib bo‘lgan tilning qoldiqlari emas, balki tilning tarixiy taraqqiyoti, til va sheva aloqalari mahsulidir.

Areal lingvistika metodlari etnografiya va arxeologiyada ham xalqlarning joylashuvi va madaniyatlarning tarqalishini o‘rganishda qo‘llanadi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Til va shevalar qaysi metodlarda o‘rganib kelingan?
2. Lingvistik geografiya metodining tub mohiyati nimadan iborat?
3. Til va sheva faktlarini qayd qilish deganda nimani tushunasiz?
4. Til va sheva faktlarini sharhlash tushunchasiga izoh bering.
5. Interferensiya hodisasini qanday tushunasiz?
6. Substrat nimani anglatadi?

7-mavzu. Lingvistik areal

Reja

1. Areal tushunchasi va arealogiya.
2. Arealogiyada makon va zamon birligi.
3. “Til ittifoqi” va areal lingvistika.
4. Lingvistik hudud.

Tayanch tushunchalar: areal, arealogiya, makon va zamon birligi, hudud, areal lingvistika, “til ittifoqi”.

Matn

Areal tushunchasi areal lingvistikaning asosini tashkil etadi. Areal lingvistika O‘zbekiston Respublikasida endigina rivojlantirilmoqda. *Areal lingvistika* termini dunyo amaliyotida keng qo‘llansa-da, u o‘zbek tilshunosligida dastlab A. Jo‘rayevning tadqiqotida nazariy talqinini topgan [Джураев 1991]. Ungacha bo‘lgan davrda va undan keyin ham A. Shermatov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, N. Murodova, Z. Ibrohimovalar lingvistik geografiya termini ostida areal tadqiqotlar olib bordilar va ko‘proq bu tadqiqotlarda o‘zbek shevalarining ayrim hududlaridagi izoglossalarning tarqalishi kartalashtirildi. Ayni zamonda areal tadqiqotlar ham paydo bo‘ldi [Murodova, Raxmonov 2017:148; Darveshov 2019:148]. Areal lingvistika haqidagi ma’lumotlar o‘zbek dialektologiyasiga oid darsliklarda ham yoritila boshlandi [Ashirboyev 2021: 104-112; Murodova 2019:126-134]. Bu ishlarda areal lingvistika dialektologiyaning bevosita davomi sifatida yoritildi. Haqiqatan ham, areal lingvistikaning dialektologiya negizida yuzaga kelganligi avvalgi sahifalarda aytildi va N. Z. Hojiyevaning ishlarida ham o‘z aksini topgan [Qarang: Гаджиева 1975: 6].

Areal lingvistikaning xususiyatini bildiruvchi areal so‘zi va tushunchasi *arealogiya* (*xorologiya* – xoros: o‘rin, joy ma’nosini anglatadi) so‘zidan olingan. Arealogiya biogeografiya fanining bo‘limi bo‘lib, biologik tiplar, tabiat boyliklari: o‘simpliklar, insonlar, hayvonlar, qazilma boyliklarning dastlabki makonlari va ularning tarqalishi to‘g‘risida bahs qiladi. Paydo bo‘lish va tarqalish tushunchasi til va shevalarga ham xos bo‘lganligi jihatidan

arealogiyadagi *area* tushunchasidan tilshunoslik ham foydalanadi va shu tushuncha bilan bog‘liq fan *areal lingvistika* deb yuritildi.

Areal lingvistikada urg‘u beriladigan asosiy tushuncha *areal* (hudud), to‘g‘rirog‘i, lingvistik arealdir. Albatta, bu tushuncha uning lotincha terminida o‘z ma’nosini topgan, ya’ni *area* so‘zi hudud, maydon, joy degan ma’noni anglatgan. *Area* so‘zi sifat yasovchi -l affaksi bilan birga qo‘llanishi natijasida u endilikda lingvistika fanining bir yo‘nalishini ifoda qiladi va areal lingvistikada *areal tarzida* qo‘llanib (otlashib), taksonlarning, izoglossalarning joylashish hududini anglatadigan tushunchaga aylandi. Bu esa lingvistik areal degan tushunchaning yuzaga kelishiga olib keldi. “Areal shunchaki biror hodisaning tarqalgan hududini bildirmaydi, balki tarixiy, geografik, ijtimoiy, lingvistik jihatdan mustahkam bog‘langan hududni anglatadi va unda tasodifiy faktlar bo‘lmaydi, balki ularda muayyan qonuniyatlar qat’iy amal qiladi⁹”. Bunga shuni qo‘srimcha qilish mumkinki, areal lingvistikada lingvistik hududdagi barcha til hodisalari uning obyektiga kiradi. Ushbu hodisaning areal lingvistikada rivojlantirilishini o‘zbek tili faktlari asosida talqin qilishga harakat qilamiz.

Area termini hudud degan ma’noni anglatsa ham, uning areal lingvistikada o‘z ma’nosni bor, ya’ni til yoki shevalar hududini anglatadi. Fanda *areal* termini *lingvistik areal* ma’nosida qo‘llanishi keng tarqalgan. Areal tushunchasi quyidagi o‘rnilda qo‘llanadi:

1) areal termini *til va dialektlarning turli hududlarda tarqalishini* anglatadi. Boshqacha aytganda, tilning yoki shevaning tarqalish o‘rnini bildiradi. Masalan, ingliz tili turli qit’alarga tarqalgan, o‘zbek lahjalari o‘zbeklar massivining turli hududlarini egallagan, jumladan, o‘g‘uz lahjasiga oid shevalar Janubiy Qozog‘iston, Forish, Qorako‘l, Olot, Xorazm, Qoraqalpog‘istonda muayyan hududlarni egallagan, qarluq lahjasi areali ham bor.

Areal tushunchasi faqat til va dialektlarning emas, balki *konkret bir izoglossaning tarqalishini*, uning harakat yo‘llarini, joylashgan o‘rnini ham anglatadi, jumladan, “a”lashish Toshkent, Farg‘ona vodiysida alohida-alohida hududga tarqalgan. Shuningdek, shahar va shahar tipidagi shevalarga xos bo‘lgan bu fonema singarmonizmli

⁹ Бородина М.А., Гущина Л.Г. Les Francais regionaux // Вопросы языкознания, 1979, №6. – С. 135.

shevalarda estetik va ruhiy holatlar bilan bog‘liq ravishda so‘zning muayyan bo‘g‘inlarida tarqalmoqdaki, ularning konkret o‘rnini belgilash areal lingvistikidan obyektidir. Bu masalada faqat fonetik hodisalar emas, balki leksik birliklardagi ayni bir ma’noning hududlarda teng kelishi, grammatik ko‘rsatkichlarning shevalararo tarqalishi kabi xususiyatlar ham e’tiborga olinadi.

Muayyan tilga xos bo‘lgan qonuniyatlarning tarqalishida ham areal tushunchasidan foydalaniladi, masalan, turkiy tillarda labial singarmonizmning tarqalishi, qarindosh bo‘lman tillarda turkiy til unsurlarining tarqalishi areallari belgilanishi mumkin. Demak, areal (hudud) tushunchasida tarqalish ma’nosи yetakchidir;

2) areal termini *til va dialektlarning makon va zamon birligi* tushunchasini anglatadi. Makon va zamon birligi tushunchasi til va shevalarning tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘lab o‘rganiladi. U yoki bu til va uning shevasi turli tarixiy davrlarda makonlarini almashtirishi mumkin, masalan, turkiy xalqlardan bo‘lgan qadimgi madyorlar (majorlar) hozirgi Volga daryosining quyi oqimlarida yashaganlar. Eramizning 830-yillarda ular quyi Dunay bo‘ylariga migratsiya bo‘ladilar. Tili esa slavyan tillari ta’siriga uchraydi va (gibrid) venger tili bo‘lib shakllanadi [[www. World-history.ru](http://www.World-history.ru)]. Madyorlarning tili to‘g‘risida gap ketganida, o‘sha 830-yilgacha bo‘lgan davr va quyi Volga bo‘yi hududida tarqalganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Tillar tarixida bunday o‘lchov muhim rol o‘ynaydi.

Makon va zamon birligi tushunchasini shevalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Qadimgi turkiy urug‘-qabilalardan biri bo‘lgan arg‘ular XI-XII asrlarda Qozog‘iston Respublikasining hozirgi Taroz viloyati atrofida yashaganlar va ularning shevasi qarluq va chigil shevalariga yaqin bo‘lgan. Keyinchalik ular qipchoqlar tarkibiga qo‘silib ketgan va hozirgi turkiy tillardan qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird tillari tarkibidagi urug‘larga aylangan. Demak, arg‘ular shevasi to‘g‘risida gap ketganida XI-XII asrlardagi holati bo‘yicha fikr yuritilishi kerak bo‘ladi. Bu urug‘-qabilalar shevasi to‘g‘risida Mahmud Koshg‘ariyning ayrim ma’lumotlaridan boshqa jiddiy faktlar yo‘q.

3) areal termini “*til va shevalar ittifoqi*” tushunchalarini ifoda qiladi. “Til va shevalar ittifoqi” lingvistik kontaktologiyaning mahsulidir. Bu tushuncha N. S. Trubetskoy tomonidan kiritilgan

[Qarang: Гаджиева 1975:7]. Har bir til va sheva tutash bo‘lgan til va shevalar bilan aloqada bo‘ladi. Bu jarayon ikki til yoki sheva oralig‘ida yuz beradi. O‘zaro ta’sir natijasida har ikkala til yoki sheva kesishgan bu joyda oraliq sheva paydo bo‘ladi. Bu lingvistik hodisa *til yoki sheva ittifoqi* tushunchasini oladi. O‘zbek tilidagi oraliq shevalar maxsus o‘rganilgan [Qudratov 1976: 39-45].

4) areal termini *tillar guruhi* (*oilasini*) ham anglatishi an’anada bor, ya’ni bir til oilasining yoki katta til oilasidagi guruhlarning hududlarda tarqalishini anglatadi. Bunga ko‘ra, katta va kichik areallar haqida gapirish mumkin. Masalan, katta til arealiga hind-yevropa til oilasini misol sifatida keltiradigan bo‘lsak, u Hindistondan tortib Yevropani to‘lig‘icha qamrab olagan; kichik arealiga uning ichki bo‘linishi – roman, german til guruhlari misol bo‘la oladi. Shuningdek, turkiy tillar arealini katta areal; bulg‘or, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz guruhlariga uning tarkibidagi kichik areal deb qarash mumkin va h.k.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areal tushunchasiga qanday ta’rif bergan bo‘lar edingiz?
2. Til va sheva xususiyatlarining tarqalishi tushunchasini izohlab bering.
3. Arealogiya nimani anglatadi?
4. Areal lingvistikadagi makon va zamon birligini qanday tushuntirgan bo‘lar edingiz?
5. “Til ittifoqi” nimani anglatadi?
6. Arealning til guruhi tushunchasini sharhlab bering.

8-mavzu. Areallarning turlari

Reja

1. Areallarning turlari tushunchasi.
2. Tor va keng areallar.
3. Oddiy va murakkab areallar.
4. Bo‘lingan areal.

Tayanch tushunchalar: areal, tor areal, lokal areal, oddiy areal, murakkab areal, bo‘lingan areal

Matn

Areallarning turlari tushunchasi uning hududiy hajmi va qisman xarakterli jihatidan belgilanadi. Boshqacha aytganda, areallar katta va kichik maydonni egallashi yoki uning tarkibida til va shevalar ko‘p bo‘lmasligi mumkin. Areallarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

tor lokal areal. Ular kichik hududga ega bo‘ladi. Bunday areallar, deyarli, yopiq doirada ish ko‘radi. Bunga Uzoq Sharqdagi *yukagirlar* tilini hamda Buxoro viloyatidagi Jondor, Oq‘ar, Chandir va Samarcand viloyatidagi Chandir, Urganji, Turkman qishloqlaridagi o‘g‘uz shevalarini misol sifatida keltirish mumkin. Ularning tili va shevasi atrof shevalarga ta’sir eta olmaydi, aksincha, miqdor jihatdan yirik bo‘lgan atrof tillar va shevalar ta’sirida bo‘ladi;

lokal areal. Bunday areallarni shevalargagina tatbiq etish mumkin. Bunday areallar atrofi boshqa tizimdagи tillar va boshqa dialektlar bilan qoplangan bo‘ladi. Ular tor lokal areallarga nisbatan kengroq hududga egaligi bilan farqlanadi. Bunga Qorako‘l va Olot o‘g‘uz shevalarini keltirish mumkin. Bu shevalar qishloq shevalardan yirik, lekin viloyatdan (Xorazmga o‘xshash shevalardan) kichik hududlarni egallagan. Bu shevalarning atrofi qarluq, qisman qipchoq va tojik shevalaridir;

keng areal. U katta hudud ichida areallarning to‘sqliarsiz ko‘chib yurishidir. Bunga qarluq qabilalarining, qozoq xalqining ko‘chmanchilik davridagi tili misol bo‘la oladi. Shuningdek, Yevroosiyo, Yaqin Sharq, Sharqiy Afrika ko‘chmanchilari [Kradin N. Kochevnichestvo. hidenc.ru] tillarini ham kiritish mumkin.

Keng arealning boshqa talqini ham bor. Amerikalik lingvist J. Nikols keng (cho‘zilgan) va tor areallarni qayd qiladi. Uningcha, keng (cho‘zilgan) areallar genetik rang-barangligi kam bo‘lgan tekisliklardagi areallardir, unga misol sifatida Yevroosiyo cho‘l zonalarini keltiradi, tor areal esa tog‘li joylar va okeanlardagi areallar bo‘lib, ularda xilma-xillik kuchli bo‘ladi, unga misol sifatida Kavkaz ham keltiriladi [<https://present5.com>];

oddiy areal. Bunday areallar muayyan hududlarga sidirg‘a joylashgan bo‘ladi, ular kuchli tashqi ta’sirga uchramaydi, balki shu hududda turg‘un bo‘ladi. Bunga kam sonli aholisi bo‘lgan tillar (yaqt, yukagir) va atrofini boshqa til va shevalar o‘rab olgan shevalar

taalluqlidir. Afsuski, adabiyotlarda ba'zi shunday shevalar yo'qolib ketayotganligi haqida fikrlar uchramoqda. Jumladan, J. Eltazarov shimoliy o'zbek shevalarining, xususan, o'g'uz shevalarining yo'qolib borayotganligini yozadi [Eltazarov 2013]. Bu fikrda asos yo'q, chunki u nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham isbotlanmagan. Aksincha, J. Eltazarov fikr yuritgan shevalar o'z mustaqilligini, tabiiyiligini saqlab kelmoqda, chunki ularga boshqa til va shevalar sezilarli ta'sir etmagan. Aslida shevalarning yo'qolishi g'oyasi o'zbek shevalariga emas, balki hozirgi Yevropaning yirik shahar shevalariga tegishli bo'lib, u migratsiy jarayonlarining natijasidir;

murakkab areal. U bo'laklarga ajratilishi mumkin bo'lgan areallardan tashkil topadi. Bu yuqorida aytilgan katta areal tushunchasi bilan ham bog'lanadi. Bunga misol sifatida turkiy tillarni keltirish mumkin. U katta hududga yoyilgan bo'lib, ularni o'zaro kontaktlarining zaiflashishiga ko'ra bir necha bo'laklarga ajratish mumkin: Sibir turkiy tillari, Markaziy Osiyo turkiy tillari, Volgabo'yli turkiy tillari, Kavkazorti turkiy tillari, g'arbiy turkiy tillar. O'zbek tili ham strukturasiga ko'ra murakkab bo'lib, u ham bo'laklarga, ya'ni lahjalarga ajraladi. Shuning uchun ham u murakkab areal sifatida qayd qilinadi;

bo'lingan areal. Bu muayyan hududdagi til va sheva egalarining sharoiti o'zgarishi bilan yuz beradi. Professor E. D. Polivanov Iqon (Qozog'iston, Turkiston) aholisining bir qismi qachonlardir hozirgi Qorako'l va Olot tumanlari hududiga bo'linganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni (sheva vakillari axboroti) keltiradi (to'g'ri, bu ma'lumot yana qo'shimcha o'r ganilishi lozimligini ham uqtiradi) [Polivanov 1929:527], V. V. Reshetov Markaziy Osipyodagi (Orol bo'yidagi) qatag'onlarning Afg'onistonga ko'chib ketishi tufayli u yerda qarluq shevalari shakllanganligini aytadi [Reshetov 1966:5]. Bo'lingan arealning ikki turi qayd qilinadi: *gemogen va geterogen*;

gemogen areallar o'z chegarasiga ega bo'lмаган til va shevalardan iborat bo'ladi. "O'z chegarasiga ega bo'lмаган til va shevalar" tushunchasi o'zbek tiliga tatbiq etilganida uning lahjalari ko'zda tutiladi, ya'ni lahjalarning dialektlarga va dialektlarning shevalarga bo'linishi tushuniladi, bunday bo'linishda aniq chegaralar yo'qligi ma'lum;

geterogen arealda muayyan til va shevalar tutashgan til va shevalar bilan aralashadi. Qaysidir xalq qarindosh va qarindosh bo‘lmanan xalqlar bilan chegaradosh bo‘lganligi uchun ham ular tili (shevasi) ham o‘zaro zich aloqada bo‘ladi. Natijada kichik bir hudud paydo bo‘ladiki, u boshqa-boshqa tillarning o‘zaro ta’siri tufayli yuz beradi. Bunga Buxoro o‘zbek va tojik tillari aralashgan areallarni keltirish mumkin. Bu kichik hudud oraliq shevani hosil qiladi. Demak, geterogen areal tashqi aloqaning mahsulidir.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areallarning turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Oddiy va murakkab areallar qanday farqlanadi?
3. Tor va keng areallarni sharhlab bering.
4. Bo‘lingan areal tushunchasini izohlang.
5. Gemogen va geterogen areallarning xususiyatlarini ochiqlang.

9-mavzu. Areallarning tiplari

Reja

1. Areallarning tiplari tushunchasi.
2. Subregional areal, regional va poliregional areal.
3. Kosmopolitik va migratsion areal.
4. Innovatsion areal.

Tayanch tushunchalar: areallarning tiplari, subregional, regional, poliregional, kosmopolitik, innovatsion, migratsion areal.

Matn

Areallarning tiplari uning turlaridan jiddiy farq qilmaydi, balki bunday areallar kengroq (kattaroq) hududlarni, hatto bir necha qit’alarni egallagan bo‘ladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

poliregional areal. Bu arealda til va dialektlar bir necha qit’alarga tarqalgan bo‘ladi. Ingliz, fransuz, ispan, portugal tillari shunday areallarni tashkil etadi, jumladan, ingliz tili Osiyo, Yevropa, Avstraliya qit’alarida, fransuz tili esa Yevropa, Afrikada tarqalgan, ispan va portugal tillari Yevropa va Janubiy Amerikada tarqalgan. Bunga turkiy va arab tillarini ham kiritish mumkin. Turkiy tillar Osiyo va Yevropa hududlarida, arab tili esa Afrika va Sharqiy Osiyoda tarqalgan;

regional areal. Bunday areal bir qit'a ichida keng hududlarni qamrab oladi, masalan, Xitoy va hind tillari murakkab dialektlari bilan birga Osiyodagi keng hududda tarqalgan. Fors tili ham Osiyoning janubiy-sharqiy hududlariga yoyilgan va ular Eron, Afg'oniston mamlakatlarining davlat tilidir. Bunga o'zbek tilini ham keltirish mumkin, u Markaziy Osiyo va Afg'oniston hududida tarqalgan bo'lib, regional arealni tashkil etadi;

subregional areal. Lokal areallardan ko'ra kattaroq, regional areallarga nisbatan kichikroq hududlarni qamrab oladi. U regional arealning tarkibiy qismi bo'lishi ham mumkin. Ma'lumki, o'g'uz lahjasiga oid shevalar Markaziy Osiyoning katta qismida tarqoq holda joylashgan, lekin Xorazm hududi nisbatan katta hudud hisoblanadi. Demak, Xorazm o'g'uz lahjasini subregional areal deb atash maqsadga muvofiqdir;

kosmopolitik areal. Turli iqlim va siyosiy sharoitlari tufayli aholi migratsiyaga daxldor bo'lishi va shu bilan bog'liq ravishda ular tili va dialektlarining tarqalish hududlarini anglatadi. Ma'lumki, o'g'uzlar Turk xoqonligidan migratsiya bo'lganida dastlab Sirdaryo va Orol bo'yalarida qo'nim topgan, lekin iqlim o'zgarishi va ba'zi siyosiy voqealar natijasida ularning tirikchilik qilishiga qiyinchilik tug'dirgan, ya'ni ularning yashash imkoniyatlarini qiyinlashtirgan, bu esa ularni g'arb tomon siljishga majbur qilgan va tillari ham ular yashagan o'lkalarda faoliyatda bo'lgan. Bu migratsiya tufayli Markaziy Osiyoda turkman, Kavkazda ozarbayjon, Qrim va Yevropaning sharqiy qismida gagauz, qarayim tillari shakllangan, o'zbek tili tarkibida o'g'uz lahjasini yuzaga kelgan;

migratsion areal. Bunday areal kosmopolitik arealdan farq qilgan holda, u erkin ravishda aholining siljishi natijasida muayyan til va dialekt arealining paydo bo'lishini anglatadi. Bunga misol sifatida turklarning XI asrda Markaziy Osiyodan Kichik Osiyoga migratsiyasini keltirish mumkin. Hozirgi O'zbekiston Respublikasida (Andijon, Jizzax viloyatida) turk qavmlarining oz sonli kontingenti saqlanib qolgan va ular tili o'zbek tilining mahalliy shevalari sifatida qaraladi. Shuningdek, XVI asrdagi qatag'onlarning Afg'oniston hududlariga migratsiyasi u yerda o'zbeklar va ular tili hamda shevalarining yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Shuni aytish lozimki, sobiq Ittifoqqa kirgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmanistondagi o‘zbeklar tili va shevalari migratsiya natijasi emas, balki ular etnik o‘zbeklar tili va shevalaridir.

Tarixiy faktlar migrantsion arealning mahalliy tillar va shevalarini siqib chiqarishi to‘g‘risida ham dalolat beradi. Ma’lumki, hozirgi Xorazm vohasida aholi forsiyzabon bo‘lgan. Turkiylarning bu yerlarga XII va XIII asrdagi migrantsiyasi va mo‘g‘ullarning bosqini bu vohaning turkiylashishiga va Xorazm o‘zbek shevalarining shakllanishiga olib keldi hamda bu yerda o‘g‘uz lahjasi, qisman qipchoq shevalari rivojlandi, ya’ni mahalliy fors tili siqib chiqarildi, lekin bu tilning substratlari hamon saqlanmoqda;

innovatsion areal (ona areal). Bu tushuncha til va shevalarning kelib chiqish arealini anglatadi. Bu arealning ma’nosи shundaki, undan bir necha areallar paydo bo‘ladi va shuning uchun ham u ona areal nomini oladi. Innovatsion areal “*qaysi arealdan yana qaysilari paydo bo‘ldi*” degan aqidaga amal qiladi. Innovatsion arealni til oilalarining kelib chiqishi, shevalarning bir manbaga aloqadorligi orqali izohlash mumkin. Ma’lumki, til oilalari tillarning bir manbadan tarqalganligi g‘oyasiga asoslanadi. Bunga bir necha misol keltirish mumkin va uni til va sheva sathida, shuningdek, til strukturasi sathida ham asoslash imkoniyatlari bor, jumladan, o‘zbek shevalaridagi singarmonizmni ta’minlovchi old qator va orqa qator unlilarining innovatsion (ona) areali qadimgi turkiy tildir yoki turkiy tillarning innovatsion areali oltoy tili areali va boshqalar. O‘zbek shevalari uchun uch manba – qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjasi innovatsion areal bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda lингistik areal tushunchasi rang-barang bo‘lib, ularni konkret tarixiy davr bilan bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Areallarning tiplari tushunchasiga izoh bering.
2. Poliregional areal qanday xususiyatlarga ega?
3. Regional va subregional areallarni tavsiflab bering.
4. Kosmopolitik va migrantsion arealning o‘ziga xosligi nimada?
5. Innovatsion arealni yana qanday izohlagan bo‘lar edingiz?

10-mavzu. Izoglossa

Reja

1. Izoglossa terminining ma'nosi va paydo bo'lishi.
2. Izoglossalarning turlari.
3. Kartalashtirilgan va kartadan tashqari izoglossalar.

Tayanch tushunchalar: *izoglossa, izofon, izofonema, izomorf, izomorfema, izoleksema, izoleks, talaffuz izoglossasi, sintaktik izoglossa, izosintagma.*

Matn

Izoglossa areal lingvistikaning muhim tushunchalaridan biridir. Bu so'z lotincha bo'lib, **izo** – teng, **glossa** – til degan ma'nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki aloqada bo'lgan tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko'ra tarqalishini ko'rsatadigan shartli belgidir. Boshqacha aytganda, lingvistik kartalarda til va sheva xususiyatlarining *tarqalish chiziqlarini* belgilashda va *har bir lingvistik belgini* ifodalashda qo'llanadigan *shartli belgidir*. Bu termin latish dialektolog A. Bilenshteyn tomonidan fanga kiritilgan. Izoglossa termini quyidagi mazmunni ifoda qiladi:

izoglossa kartalashtirishda lingvistik *arealning atributini* ko'rsatadi. Bunda har bir izoglossa kartada aks ettiriladi va uning tarqalish kengligi ko'rsatiladi. Bu kenglikda izoglossalarning zichroq joylashishi shu til yoki sheva hodisasining qadimiyoq bo'lgan arealini yoki shu hududda mustshkam joylashib qolganligini, siyrakroq joylashgan izoglossalardan uning keyinchalik yuzaga kelganligini yoki ona arealga eltuvchi ekanligini anglash mumkin. Masalan, o'zbek va turkiy tillardagi cho'ziq unlilarning izoglossa sifatida tarqalishi hozirgi Qozog'iston hududiga xos deb belgilanishi bu aytilgan shartga mos keladi. Unlilarning birlamchi cho'ziqliklari Sirdaryo va Orol daryosi bo'ylarida qo'nim topgan o'g'uzlarda keng tarqalgan edi va Qorabuloq, Mankent, Oqsuv, Iqon, Qarnoq shevalarida zich joylashgan hamda keyinchalik O'zbekiston, Turkmaniston, Turkiya, Kavkazda tarqalishi kuchaygan.

izoglossa *kartadan tashqaridagi lingvistik arealning atributini* ko'rsatadi. Buni N. Rahmonov tuzgan kartalarga berilgan izohlarda

ko‘rish mumkin. Jumladan, “O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini” tadqiqotida tuzilgan 20ta kartadagi izoglossalarning xususiyatlariga izohlar berilgan.

Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shakllari, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning *izofonema*, *izomorfema*, *izoleksema* tiplari belgilanadi. Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho‘ziq o: unlisi izofonema sifatida, -a ko‘plik affaksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ma’nosidagi *salaqa*, epidemiya ma’nosidagi *iran* kabi so‘zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda izoglossalarning *izofon* (fonetik izoglossa), *izomorf* (morfologik izoglossa), *izoleks* (leksik izoglossa), *izosema* (semantik izoglossa) haqida ham ma’lumotlar beriladi. Areal lingvistikaga oid maxsus adabiyotlarda *talaffuz izoglossasi* (u leksik izoglossaga tenglashtiriladi), *sintaktik izoglossa* (gapning ba’zi aspektlari chizmasi), *izosintagma* (sintaktik izoglossa) kabi tiplari tilga olinadi.

O‘zbek shevalari kartalarini tuzishda izoglossalardan faol foydalanilmoqda. Dialektolog A. Shermatov izoglossaning turlarini kartada quyidagicha joylashtirган:

izofon. *ä* unlisi (4-karta), *f* undoshi mavjudligi (36-karta);

izomorf. Qaratqich kelishigi affaksi variantlari (27-karta), ko‘plik affaksi variantlari (42-karta);

izoleks. *Do’ppi* nomlari (77-karta), ustki kiyim nomlari (78-karta);

izosema. *Soch* ma’nosining ifodalanishi (66-karta), qarindoshlik ma’nosini ifodalovchi so‘zlar (69-karta).

Ma’lumki, bir tildagi bir necha lahja, dialekt, shevalar yoki unga qarindosh va qarindosh bo‘limgan geografik aralashgan tillar bo‘ladiki, areal lingvistika ulardagagi izoglossalarning ko‘rsatkichlariga ko‘ra ularning ichki chegaralarini belgilaydi, qarindosh va qarindosh bo‘limgan tillar bilan munosabatini tadqiq qiladi.

Quyidagi kartada izofon shaklidagi izoglossaning kichik bir taksoni migratsiyasi ifoda qilingan, ya’ni cho‘ziq i: unlisining Markaziy Osiyoda tarqalishi ifoda qilingan (2-rasm).



2-rasm

Ma'lumki, cho'ziq unlilar es ki turkiy tilga xos bo'lsa-da, uning tashuvchisi o'g'uz tillari va lahjalaridir. Tarixdan ma'lumki, o'g'uzlar Turk xoqonligidan migratsiya bo'lganda dastlab Sirdayo va Orol bo'ylarida qo'nim topganlar. Ular tili o'g'uz deb yuritilgan. O'g'uzlar va ularning tili Mahmud Koshg'ariy tomonidan turkiy qabila va urug'larning ikki shoxobchasidan biri deb e'tirof etilgan.

Izoglossalarning taraqqiyot xususiyatlari. Turkiy tillardagi va o'zbek tilidagi barcha fonetik, leksik va morfologik hodisalarining izoglossa sifatidagi taraqqiy qilish xususiyatlari haqida fikr yuritish mumkin, lekin ularning barchasi hali fanda mukammal o'rganilgan emas. Fanda ko'proq “ä”lashish va “ʒ”lashish to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Ma'lumki, turkiy tillar uchun ä unlisining qo'llanishi xarakterli emas. Shunday bo'lsa-da, bu unli hozirgi o'zbek tilining adabiy shakli, shahar tipidagi qarluq shevalarida; turkiy tillardan boshqird va tatar tillarida ham qayd qilinadi, lekin bu unli shu til va shevalarning asosiy fonetik xususiyati emas, balki nutq jarayonida ekspressiya, ta'kidlash, bo'rttirish kabi ma'nolar talab qilingan o'rinnarda uchraydi. Afsuski, tadqiqotchilar tildagi statik va nostatik holatni ko'pincha aralashtiradilar va shu tufayli ä unlisini yuqorida

ko'rsatilgan tillarning xususiyati sifatida talqin qiladilar. Aslida bu unli forsiy (tojik) va o'zbek tili bir zonani tashkil etgan hududlarda qo'llanadi. Adabiyotlarda bu unlining forsiy tilga xosligi ko'proq aytiladi. Turkiy til va uning shevalarida bu unlining qo'llanishi bilan e'tiborga molik fikrlar yetarli bo'lsa-da, bu masalada bir to'xtamga kelingan emas.

Adabiyotlarda \check{J} undoshining qipchoq lahjasi shevalarida va qipchoq turkum tillarida so'z boshida kelishi keng tarqalganligi bayon qilinadi. Bu undoshning qipchoq tizimidagi tillardan qozoq, qirg'iz tillaridagina qat'iy ekanligini ta'kidlaymiz va boshqa qipchoq tizimidagi tillarning barchasida ham doimiy ravishda \check{J} undoshi so'z boshida *j* (y, й) undoshini almashtirmaydi va u izoglossa sifatida mavqeyini yo'qotadi. Bu jarayon o'zbek tili qipchoq shevalarini ham chetlab o'tmadidi. O'zbek tilining qipchoq shevalaridagi \check{J} undoshi so'z boshida *j* (y, й) undoshiga o'z o'rnni bo'shatib bermoqda yoki ba'zan aralash ham qo'llanmoqda. Bu o'rinda fonetik moslik kartalarda izoglossalar bilan aniq belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Izoglossa termini nimani anglatadi?
2. Izoglossalarning yana qanday nomlanishini bilasiz?
3. A. Shermatov qanday izoglossalardan foydalangan?
4. Izoglossalarning taraqqiy qilishini qaysi faktlar asosida tushuntirish mumkin?

11-mavzu: Genetik va konvergent izoglossalar

Reja

1. Izoglossalarning qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar bilan bog'liq turlari.
2. O'zaro aloqadagi izoglossalar.
3. Konvergent izoglossalar.
4. Bog'li, tizimli, eksklyuziv izoglossalar.

Tayanch tushunchalar: o'zaro aloqadagi izoglossalar, konvergent izoglossalar, bog'li, tizimli, eksklyuziv izoglossalar.

Matn

Izoglossalar faqat bir til yoki bir sheva doirasida amal qilmaydi, balki tillar va shevalar kesishgan zonalarda uning tashqarisiga ham chiqishi mumkin. Izoglossa bir til, bir sheva doirasida u yoki bu dialektal hodisaning tarqalishini aks ettiradi hamda unda til va sheva hodisalarining tarqalishi chizmalarga olinadi yoki izohlanadi. Adabiyotlarda izoglossalarning hududlar bo'ylab harakati *irradiatsiya* deb ham yuritiladi. Bu termin *irradiare* (nurlanish) so'zidan olingan, lekin bu termindan keyingi davrlarda foydalilanayotgani yo'q.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo'lмаган tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. *O'zaro aloqadagi* izoglossalar yoki **genetik** izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylukka ega bo'lган tillarga aloqador bo'ladi. Jumladan, o'zbek tili genetik jihatdan turkiy tillar bilan bir umumiy manbaga ega, lekin ularning barchasi bilan o'zaro aloqada emas. O'zbek tili Markaziy Osiyodagi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari bilan o'zaro aloqada bo'lib, ularda umumiy izoglossalar tizimi ham mavjud. Bular ko'proq leksikada ko'rindi, ya'ni bu tillarda shunday leksik izoglossalar guruhi borki, ularning umumiyligi ushbu tillarning qarindoshligini ta'minlaydi, jumladan, *qo'l, oyoq, bet, bel, ko'z, quloq* va boshqalar. Bunday so'zlar qarindosh tillarning barcha sathlarida mavjud. Qarindosh tillarda umumiy izoglossalar fonetikada ham, morfoloyiyada ham mavjudki, ular yana isbotlashni talab qilmaydi. Ular singarmonizmning qo'llanishi, fonetikada aksariyat fonemalarning aynanligi, grammatik shakklardagi yaqinlik va boshqalar. Ayniqsa, bunday yaqinlik o'zbek xalqining turkiy xalqlar bilan chegadosh bo'lган hududlarida yorqin ko'rindi. Masalan, qozoq adabiy tilida sirg'aluvchi ж (sirg'aluvchi, rus tilidagi ж undoshi artikulatsiyasiga yaqin) undoshi amal qiladi, lekin o'zbek tiliga yaqin qozoq shevalarida esa ѡ (dj, дж) undoshi talaffuzda bor, shuningdek, *ham* yordamchi so'zi qozoq adabiy tilida qo'llanmaydi, lekin O'zbekiston qozoqlari nutqida bu so'z qisqargan variantda bor va b. Bunday izoglossalarni o'rnatish qiyosiy-tarixiy (genetik) tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqlari (kontakti) natijasi samarasi sifatida yuzaga keladi va har ikkala til uchun umumiy bo‘ladi. O‘zbek tili misolida uning tojik va rus tillari bilan aloqalarida ko‘rish mumkin. Bunda qarindosh bo‘lmagan tillar o‘z mustaqilligini saqlaydi. M. Mirzayev *ikki tilli sheva* (bu nomlanishda g‘alizlik bo‘lsa-da, maqsad tushunarli) degan terminni kiritadi. Unda Buxoro o‘zbek shevalariga tojik shevalari izoglossalarining, tojik shevalariga esa o‘zbek shevalari izoglossalarining aralashuvi yuz berganligi to‘g‘risida fikr yuritiladi: *kaltak, obod, oftoba* va b.[Mirzayev 1969:76].

Shuni aytish kerakki, o‘zbek va rus tillari izoglossalari aralashuvi bo‘yicha ham shunday fikrni aytish mumkin. Aksariyat tadqiqotchilar o‘zbek tiliga rus tilining ta’siri to‘g‘risida bir tomonlama fikr aytishadi. Aksincha, o‘zbek tilining ta’siri ham kuchli bo‘lgan, hatto O‘zbekistonda yashab ijod etayotgan shoir va yozuvchilar asarlarida ham o‘zbek tilidan olingan so‘zlarni ko‘plab uchratish mumkin. Tadqiqotchi K. Rahmonberdiyev rus tiliga o‘zlashgan *chinor, buran, qayrag‘och, dulana, chuchvara* kabi ko‘plab so‘zlarni keltirgan [Рахмонбердиев 1989:66]. Izoglossalarning yana bir necha turlari qayd qilinadi:

umumiyligi (yalpi) izoglossa. Muayyan zonada tarqalgan izoglossalarni anglatadi. Izoglossa sifatida umlautni oladigan bo‘lsak, umlautli zonalardan kartalarda ko‘rsatiladi yoki shevalar aralash qo‘llangan zonalarda turli ranglarda tarqalishi ifodalanishi mumkin;

bog‘li izoglossalar. Bir til zonasiga kirmaydigan yoki oraliq zonalarda joylashgan va ular birligini hosil qiladigan izoglossalardir. Masalan, Toshkent shahri va Qozog‘istonning Turbat qishlog‘i shevasiga xos izoglossalar tizimi. Aslida bu shevalarning ayni bir xilligi tasdiqlangan;

tizimli izoglossalar. Bunday izoglossalar, N. A. Baskakov izohicha, turli differensial belgilari asosida tarixan shakllangan tillar (bulg‘or, qarluq, qipchoq, uyg‘ur va boshqalar) guruhini aks ettiruvchi tillarning umumiy belgilarini ko‘rsatadi va ular o‘xshashligini birlashtiradi;

eksklyuziv izoglossa. U faqat bir va ikki tilni qamrab oladigan izoglossadir.

Izoglossalarning tarqalish areallariga ko'ra til zonalarini belgilash ham tajriba qilingan. Yuqorida ko'rsatilgan o'zaro aloqadagi izoglossalarning guruhini N. Z. Hojiyeva (Гаджиева) 4 arealga ajratadi: 1. O'rta Osiyo. 2. Sibir. 3. Volgabo'y. 4. Kavkaz (Shimoliy Kavkaz, Kavkazorti, Kavkazoldi).

N. A. Baskakov ham 4 arealni belgilaydi: 1. Bolqon va Turkiya. 2. Eron Ozarbajoni, Afg'oniston. 3. Shunjon. 4. Sobiq Ittifoq areallari: G'arbiy areal, Kavkaz, Volgabo'y, O'rta Osiyo, Sibir.

O'zbek dialektologgi A. Y. Aliyev birlamchi cho'ziq unlilarni ifoda qiluvchi izoglossalarning tarqalishiga ko'ra qirg'iz, turkman, yoqut tillari va o'zbek tilining Qorabuloq, Turkiston, Iqon, Qarnoq, Janubiy Xorazm shevalarini bir zona deb qaraydi (O'zbek dialektologiyasidan materiallar: Fan, 1974:15).

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Izoglossalarning qarindosh va qarindosh bo'Imagan tillar bilan bog'liq turlarini izohlab bering.
2. Izoglossalarning N. Z. Hojiyeva tomonidan belgilangan areallarini ko'rsating.
3. Izoglossalarning N.A. Baskakov tomonidan belgilangan areallarini ko'rsating.

12-mavzu. Takson va taksonomiya

Reja

1. Lingvistik hudud yagonaligi tushunchasi.
2. Taksonning definitsiyasi.
3. Taksonlarning umumlashtirish xususiyati.
4. Grammatik shakllarda taksonomiya.

Tayanch tushunchalar: takson, taksonomiya, areal, lingvistik hudud, areal lingvistika, sistematika, takson turlari, taksonlarning geografik o'rni, atrof (periferiya) ta'siri, tarixiy rivojlanishi.

Matn

Areal lingvistikada tayanch bo'ladigan bir necha tushunchalar bor. Bular areal, izoglossa, takson va boshqalardir. Shulardan areal va izoglossa tushunchalari talqini avvalgi sahifalarda berildi. Takson

lotincha *tartib*, *tuzilma*, *tashkilot* degan tushunchalarni anglatadi va takson aslida *biror xususiyati*, *belgilari jihatidan birlashishi* mumkin bo‘lgan obyekt yoki predmetlardir.

Takson lingvistik hudud tushunchasi bilan uzziy bog‘liqdir. Lingvistik hudud (kenglik) umumiy va rang-barangdir. Lingvistik hududning yagonaligi va bir butunligi boshqa umumiylikka nisbatan farqlanadi. U turli kattalikdagi va ahamiyatli bo‘lgan lingvistik taksonlardan tashkil topadi. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomondan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlarga, ikkinchi tomondan, o‘z taraqqiyot xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi [Джураев 1991:12].

Takson terminidan bir qancha fanlar foydalanadi. Aslida bu termin biologiyaga tegishli. Yaqin o‘tmishda tilshunoslikda takson terminidan foydalanimagan bo‘lsa-da, til sistematikasida uning ishtiroki fahmlab kelingan. Bu holat ayniqsa grammatik kategoriyalar sistematikasi uchun xarakterlidir. A. Jo‘rayev lingvistik taksonga o‘ziga xos ta’rif ham bergan: “Lingvistik takson *dialekt-til* kompleksi bo‘lib, muayyan sharoitlarda (*geografik joylashishi, atrof ta’siri va tarixiy rivojlanishi* - A.S.) shakllanib, individual strukturada ifodalangan va o‘zaro bog‘langan areal tizimdir” [Джураев, 1991: 14]. Bu ta’rif maxsus izoh talab qiladi. Bunda *dialekt-til kompleksi* tushunchasi mavhum tuyulishi mumkin. Buni shunday tushunish lozim bo‘ladi, ya’ni til lahjalardan, dialektlardan va shevalardan tashkil topadi hamda ular birgalikda bir kompleksni (jamlikni) hosil qiladi. “Individual struktura” tushunchasi taksonlar birlashadigan (ayni o‘rinda taksonlarga ajraladigan) kompleksni (butunlikni) anglatadi, ya’ni til uchun har bir lahja takson vazifasini o‘taydi. Demak, ular bir butun holda kompleks(majmua)ni hosil qiladi. Konkret bir til qarindosh tillarning bir taksonidir. Yana ham bu fikrni rivojlantiradigan bo‘lsak, dialekt-til kompleksi tushunchasi bir idiomni (adabiy til, lahja, dialekt, sheva) hosil qiladi. *Muayyan sharoit* tushunchasi esa *geografik joylashushi, atrof ta’sir, tarixiy rivojlanish* jarayonlarini umumlashtiruvchi vazifani bajaradi, ya’ni u taksonlarning shakllanishi shartlarini anglatadi:

1. Takson muayyan *geografik o’ringa egalik* qiladi. Bu tushuncha tilga, shevalarga tatbiq etiladigan bo‘lsa, bunday talqinlar yuzaga keladi: o‘zbek tili turkiy tilning bir taksoni sifatida, asosan,

Markaziy Osiyoda joylashgan, qarluq lahjasi o‘zbek tilining bir taksoni sifatida Toshkent va Farg‘ona vodiysi hududida ko‘proq joylashgan. Taksonni fonetik tizimga tatbiq etish ham mumkin, jumladan, **ä** fonemasining artikulatsiya o‘mi, boshqacha aytganda, uning old qatorligi, quyi-kengligi, lablanmaganligi uning geografiyasidir.

2. *Atrof (periferiya) ta’sir tushunchasini ham areal nuqtayi nazardan tavsif qilish mumkin.* Bu fonetikada shunday talqin qilinadi: **ä** fonemasi nutq oqimida so‘z tarkibidagi boshqa tovushlar bilan fonetik jarayonlarda qatnashadi, jumladan, o‘zbek tilida *qändaj*, *qänäqä* so‘zlarida **q** undoshidan keyingi **ä** unlisi orqa qator unlisi sifatida artikulatsiya qilinadi va atrof ta’sir maqomiga ega bo‘ladi. Morfemikadagi morfonologiya atrof ta’sir tushunchasining o‘zginasidir, ya’ni *oyıl - oylim*, *qijin - qijna - qijnāq* kabi o‘zgarishlar atrof tovushlar va so‘z urg‘usi ta’sirida yuz beradi. So‘z oxiridagi **k** - **g** (*jüräk - jürägi*), **q** - **g‘** (*ortāq - ortāyi*) o‘zgarishlari ham fonetikadagi atrof ta’sir tushunchasi bilan bog‘liqdir. Bu hodisalarga taksonlarning fonetikadagi atrof ta’siri qonuniyatları deb qarash lozim bo‘ladi. N. Murodova va N. Rahmonovlar kelishik qo‘sishchalaridagi qattiqlik va yumshoqlik yonma-yon kelgan tovushlar ta’sirida yuz berishini qayd qiladi [Муродова, Рахмонов 2017:5]. Bu atrof ta’sir tushunchasining amaliyotdagi ko‘rinishidir. N. Z. Hojiyeva markaziy o‘zbek shevalaridagi singarmonizmning yo‘qolishini kontaktdagi til ta’siri bilan bog‘laydi [Гаджиева 1976:38], Shuningdek, u o‘zbek shevalarida **ä** unlisining paydo bo‘lishini ham kontaktdagi til ta’siri deb qaraydi [Гаджиева 1975:34].

3. Har bir *takson o‘z rivojlanish xususiyatiga ega ekanligi* uning yana bir belgisidir. Uni fonetik hodisalarga tatbiq etadigan bo‘lsak, shunday talqinlar kelib chiqishi mumkin, jumladan, Xorazm shevalarida adabiy tildagi **q** undoshi **k** va **q** undoshlari oralig‘ida artikulatsiyada bo‘ladi, lekin uni F. Abdullayev **k** undoshining orqa qator unlisi bilan birga kelishi tufayli orqa qator undoshi tarzida talaffuz qilingan deb qaraydi [Абдуллаев 1961:134]. Buning o‘ziga yarasha tarixi bor. Ma’lumki, **q** undoshining bunday talaffuzi shevaning o‘g‘uz lahjasi va tarixan turkiy tillarning o‘g‘uz guruhi tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq, u tabiatan shunday fonema, balki

hech qanday fonetik o‘zgarish hosilasi emas. Afsuski, q ~ k oralig‘idagi tovush q undoshining k undoshiga o‘tishi deb ham qaralgan manbalar ham bor [Серебренников, Гаджиева 1986:30]. Har bir til hodisasining (izoglossaning) taksonlik mohiyatini tilning (shevaning) barcha yaroslari (xususan, grammatika, leksika) materiallarida asoslash imkoniyati keng va har bir izoglossaning taksonlik xususiyatini tavsif qila olish lozim ham.

Takson lingvistik tushuncha sifatida izoglossalarning joylashish tartibini anglatadi. Har bir izoglossa takson sifatida muayyan tizimning tashkil topishida qatnashadi, jumladan, fonetikada orqa qator unililar degan tushuncha bor. Bu qatorda adabiy tilda uchta unli (*o*, *u*, *o'*) qatnashishi ma’lum [Jamolxonov 2009:109; HO‘AT 1980:48], lekin singarmonizmli shevalarda bu qatorda eng kamida to‘rtta unli (*o*, *u*, *a*, *i*) ishtirok etadi. Bu tizimda har bir tovush bir izoglossa (uni kartada ifodalash imkonи bor) o‘z maqomiga ega, ya’ni u taksonga qo‘yiladigan *geografik o‘rni, atrof til hodisalarining ta’siri, har bir tovushning (fonemaning) tarixiy rivojlanish xususiyati bor*. Bu talablar esa taksonlarning til orqa tovushlar tizimidagi tartibini belgilaydi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, takson tushunchasining bunday tavsifini berishga harakat qilamiz: *Takson lingvistik tushuncha sifatida izoglossalarning joylashish tartibini anglatadi hamda har bir til va sheva hodisalarining geografik o‘rni, atrof ta’siri, tilning tarixiy rivojlanish xususiyatlaridir. Takson sifatida fonemalar, morfemalar, har bir morfologik shakllar, sintaktik struktura, dialektal hodisa, tillar ishtirok etishi mumkin*. Bu nazariy qoidani yanada ravshanlashtirish mumkin.

Shimoliy Farg‘ona dialektal zonasini tahlil qilganda (fokus nuqtasi Namangan shahri) bu hududning yaxlit dialektal zona sifatida uning taksonlariga xos bir necha xususiyatlarini qayd qilish mumkin. Bu hududda o‘zbek, tojik, qirg‘iz tillari, Namangan viloyatidagi qarluq va qipchoq shevalari joylashgan bo‘lib, ularning har biri alohida taksonlardir va bu taksonlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘z talqinlariga ega. Jumladan, o‘zbek tili turkiy til vakili bo‘lgan qirg‘iz tili bilan azaldan munosabatda bo‘lib kelmoqda (taksonomik lingvistika tili bilan aytganda, kontaktdagi til). Bu holat Namangan qipchoq shevalarining hamon saqlanib qolishiga ham muayyan darajada aloqasi bor. Bu viloyatdagи qipchoq shevasi egalarining

uzoq tarixiy davrlarda o‘zbeklar bilan bir makon tutganligi bu arealda o‘zbek shevalarini qirg‘iz shevalaridan ayirib tadqiq qilish imkonini bermaydi, balki Shimoliy Farg‘ona zonasining bir taksoni sifatida areal o‘rganishgina uning xususiyatini to‘la ochish mumkin bo‘ladi. Bu tahlil qolipini o‘zbek-tojik tili (uning shevalari) munosabatiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Garchi ular turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, bir hududda joylashganligi tufayli tillarida o‘zaro ta’sirning yuz berganligi ma’lum. Bu ilmiy tadqiqotlar orqali rasmiylashgan [Дарвишев, 2019:25]. Demak, Namangan viloyatidagi va uning atrofidagi til va shevalarni yagona hududda shu hududning taksonlari sifatida o‘rganish taksonomik areal lingvistikasining asosiy vazifasidir.

Taksonlar taksonomiyaning tarkibiy qismlaridir. Taksonomiya axborot tizimida iyerarxik (pog‘onaviy) qurilishga va murakkab tarkibga ega bo‘lgan muayyan sohani tizimlashtirish va tasniflash nazariyasi tarzida baholanadi.

Taksonomiya axborot tizimida yana shunday izoh beriladi: taksonomiya til faktlarini tasnif qilish (sistemalashtirish) asosida tadqiq qilishdir. Taksonomiya tushunchasi asosida lingvistik birliklarni ajratish, ularning xususiyatlarini tartiblash va taqsimlash orqali o‘rganish yotadi. Taksonomiya bo‘laklar toifalarini kategoriyalarga birlashtiradi va shu asosda bo‘laklar (unsurlar) va kategoriylar (sinflar) orasidagi munosabatlar tipini ifoda qiladi. Aslida an‘anaviy lingvistika taksonomik xarakterga ega bo‘lgan. Binobarin, taksonomiya konkret grammatik kategoriylar guruhining bir umumi kategoriya birlashishi deb tushuniladi, masalan, nisbat kategoriysi, ot kategoriysi va b.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Takson tushunchasini ochiqlang.
2. A. Jo‘rayevning dialekt-til tushunchasi nimani anglatadi?
3. Taksonning geografik o‘rnini izohlab bering.
4. Taksonning atrof ta’sir tushunchasini tavsiflang.
5. Taksonning tarixiy o‘z rivojlanish xususiyati deganda nimani tushunasiz?
6. Taksonomiyaning xususiyatlarini oqiqlang.

13-mavzu. Taksonomik areal lingvistika

Reja

1. Umumiy areal lingvistika.
2. Taksonomik areal lingvistika.
3. Gemogen taksonlar.
4. Geterogen taksonlar.

Tayanch tushunchalar: umumiy areal lingvistika, taksonomik areal lingvistika, gemogen, geterogen taksonlar.

Matn

Areal lingvistikaning tadqiqot turlari umumiy va taksonomik areal lingvistikadan iborat bo‘ladi:

1. Umumiy areal lingvistika. Uning vazifasi til va dialektlarning hududga xos umumiy qonun va nazariyalarini o‘rganadi va ularni tizimga soladi.

Umumiy areal lingvistika lingvistik ta’limot haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, u areal jarayonlarning deduktiv qurilmasi (umumiyligidan xususiylikka) bilan bog‘langan, ya’ni areal lingvistikaning nazariy komponentlari amaliy bilimlar, induktiv (xususiylikdan umumiylikk) modelli qurilmalarning faktik materiallari va ularga ishlov berishdir. Boshqacha aytganda, umumiy areal lingvistikada til va dialektlardan yig‘ilgan materiallar fan asoslarida ilmiy tahlil qilinadi. Albatta, bu fikr areal lingvistikaning dialektologiya negizida paydo bo‘lganligi bilan hamohangdir. Umumiy areal lingvistikada til va shevalarga oid qonunlar va nazariyalarining umumiy modellari ishlab chiqiladi, takomillashtiriladi hamda ular tizimlashtiriladi. Boshqacha aytganda, hudud lingvistik xususiyatlarining dastlabki tadqiqotlari amalga oshiriladi.

2. Taksonomik areal lingvistika. U konkret *lingvistik takson*larning shakllanish o‘rnii, periferik xususiyatlari, taraqqiy qilishi jarayonlarini va o‘ziga xosligini tadqiq qiladi.

Taksonomiyaning umumiy va taksonomik areal lingvistikaga bo‘linishi uning har qaysi arealogik fan (dialektologiya, lingvogeografiya, areaologiya) o‘z nazariy umumlashmasiga ega bo‘lmaydi degan so‘zni bildirmaydi, balki ular muayyan masalalarda va nazariy jihatdan birlashishlari mumkin.

Taksonlarni o‘rganish jihatidan taksonomik areal lingvistikaning turlari (gemogen, geterogen) farqlanadi.

Taksonomik areal lingvistikaga *gemogen* taksonlarni areal o‘rganadi. Taksonomik areal lingvistikaning bu turida har bir til (sheva) zonasidagi ichki munosabatlar o‘rganiladi, ya’ni bir zonani tashkil etuvchi taksonlar, ya’ni bir necha shevalar, qarindosh tillar bunday takson sifatida qatnashadi. Masalan, Toshkent dialektal zonasida qarluq va qipchoq lahjasiga oid shevalarning o‘zaro ta’siri mavjud. Bu viloyatning janubiy-g‘arbiy chegaralarida qurama shevasi vakillari istiqomad qiladi. Ularning ham o‘z tarixi, o‘ziga xos madaniyati, turmush tarzi bor. Bu quramalar shevasida ham o‘z aksini topgan.

Ohangaron vohasida qadimgi qoraxitoy urug‘larining keyingi avlodi yashaydi. Ular shevasining ham takson sifatida dialektal zonada o‘z o‘rnii bor. Garchand ular qadimda migratsiya tufayli bu vodiya kelib qolgan bo‘lsalar-da, ular ham o‘z tarixi, turmush tarziga ega. Demak, bu kabi taksonlar ham hududning yagonaligini tashkil etadi.

Taksonomik areal lingvistikaga *geterogen* taksonlarni kontaktologiyaning natijasi sifatida lingvo-geografik jihatdan o‘rganadi. Areal lingvistikada kontaktologiya muayyan tilning boshqa til bilan, uning shevalari bilan aloqada bo‘lganligini anglatadi. Jumladan, Buxoro dialektal zonasasi xususiyatlarni churroq o‘rganish uning ichki xususiyatlari bilan birga, tashqi omillar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, bu zona murakkab lingvistik tarkibga ega. Buxoro shahri, atrof tumanlaridan bir qatorlari: Kogon, G‘ijduvon, Vobkent va boshqalar tojikzabon, Olot, Qorako‘l va ba’zi qishloqlar shevalari o‘g‘uz lahjasiga tegishli, bir qator shevalar esa qarluq shevalaridir. Bu hududga turkman tilining kuchli ta’siri ham bor, lekin u hozirgi kunda kuchsizlangan. Bu o‘rinda geterogen takson vazifasini tojik va turkman tillari va ularning shevalari bajaradi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Umumuy areal lingvistikaning maqsadini ochiqlang.
2. Taksonomik areal lingvistikaning umumiyligi areal lingvistikadan farqi nimada?

3. Taksonomik areal lingvistikaning gemogen taksoni nimani anglatadi?
4. Taksonomik areal lingvistikaning geterogen taksoni nimani anglatadi?

14-mavzu. Intensional takson

Reja

1. Taksonlar to‘g‘risida umumiy ma’lumot.
2. Intensional takson.
3. Intensional takson turlari.

Tayanch tushunchalar: takson, intensional takson, o‘zbek tili, ingliz tili, umlaut, singarmonizm.

Matn

Lingvistik takson til-dialekt kompleksi (geografik o‘rni, atrof ta’siri, tarixiy rivojlanishi) bo‘lib, uning ikki o‘zaro bog‘langan turi mavjud: intensional va ekstensional taksonlar.

Intensional taksonda *konkret bir til, til oilasi yoki dialekt fenomenining* (asliyatining) yoki biror lingvistik hodisa – taksonning belgisiga ko‘ra ularning muayyan hududlarga tarqalish xususiyatlari o‘rganiladi.

Konkret bir til oilasining tarqalishi. Ma’lumki, turkiy tillar hozirgi Sibir, Olttoy, Volgaboyi, Markaziy Osiyo, Osiyo, Kavkaz, Yevropaning sharqiy tomonlariga tarqalgan. Bu o‘rinda biz bir turkiy tilni takson sifatida asoslashga harakat qilamiz. Bunda har bir turkiy til bir takson sifatida qatnashadi.

Turkiy tillar keng o‘rin egallar ekan, o‘zida ham kichik taksonlar bo‘lishi tabiiy bo‘ladi, lekin har bir turkiy til hududi, aholi miqdori, kontaktdagi tillar birgalikda turkiy tillar hududini tashkil etadi. *Turkiy tillar hududi tushunchasi turkiy tillar oilasi tushunchasiga mos kelmaydi.* Turkiy tillar oilasi faqat turkiy tillarning o‘zinigina ko‘zda tutadi, ya’ni o‘zbek, qozoq, qirg‘iz tillari kabi. Turkiy tillar hududi esa shu hududdagi barcha tillar va ularning shevalarini qamrab oladi. Avval aytilganidek, unga qarindosh bo‘lmagan tillar va chegaradosh tillar ham kiradi.

Konkret bir tilning tarqalish hududlari. O'zbek tili. U dunyoning aksariyat hududlarida amalda (rasmiy emas) qo'llanib kelmoqda. Bu til O'zbekistondan tashqari Markaziy Osiyo respublikalari, Xitoy Uyg'uriston, Rossiya, Afg'oniston, Saudiya Arabiston va boshqa hududlarga tarqalgan. Shundan O'zbekiston, Markaziy Osiyo va Afg'onistondagi o'zbek tili etnik o'zbeklar tilidir. O'zbeklarning jips (kompakt) bo'lib yashashi boshqa mamlakatlarda ham avj olmoqda. Bu holat hozir AQSh, Germaniya, Rossiya va Yevropaning ba'zi davlatlarida ham (migratsiya tufayli) ko'rinib qolmoqda. Saudiya Arabistonidagi o'zbeklar [<https://kun.uz/ru/01163087>] ona tilini yo'qotish darajasida, chunki u yerda o'zbek tili amaliy (funksional) til emas. Bu hududlardagi o'zbek tilining taqdiri turli xildir. O'zbekistonda u davlat tili, Afg'onistonda uchinchi davlat tili deb e'lon qilingan. Boshqa sobiq Ittifoqqa kirgan respublikalarda ular adabiy til sifatida ta'lif va matbuot sohasida qo'llanmoqda, xolos. Yer sharining qayerida bo'lmasin, o'zbek tili O'zbekistondagi o'zbek tili namunasida rivojlanmoqda. Bunday sharoitda ish ko'rayotgan o'zbek tili yagona hudud tushunchasiga amal qilmaydi va bir zonani tashkil etmaydi, lekin intensionallik jihatidan ular ham takson vazifasini bajaradi.

Muayyan til intensional takson sifatidagi tarqalishining bir namunasi ingliz tilida namoyon bo'immoqda. Bu til Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya mamlakatlari milliy va alohida davlat tili sifatida qatnashadi, ya'ni bir tilning turli variantlari maqomiga ega. Bu davlatlardagi ingliz tili umumingliz tilining taksonlaridir. Bu tillar takson sifatida unga qo'yiladigan talablarga javob beradi: o'z geografik hududiga, madaniyati va tarixi, qolaversa, ular tilining o'ziga xos xususiyati paydo bo'lgan.

Intensional takson tushunchasini bir tilning dialektal tizimiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Jumladan, o'zbek tilining uch lahjasи uning intensional taksonlaridir, chunki ular ham takson me'yorlari bilan o'lchanishi mumkin va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. U ham arealogik talablarga bo'ysunadi.

Qozoq tili. U - Markaziy Osiyoda katta hududni egallagan til. Bu til o'sha hududda aloqa va aralashuv quroli bo'lgan 100ga yaqin millatlar tilini hududiy jihatdan birlashtiradi. Bu tillar ichida qarindosh bo'lman rus, nemis tillarining, qarindosh uyg'ur, o'zbek

tillarining o‘z hududi mavjud. Boshqa tillar tarqoq faoliyat ko‘rsatadi, lekin ular ham shu hududda takson sifatida qatnashadi, ya’ni umumxalq qozoq tili fokus nuqtasi sifatida ularga ta’sir o‘tkazadi. Shuni ta’kidlash joizki, *ta’sir o‘tkazish termini shu tillarni singdirib oladi, degan tushunchani anglatmaydi*, balki ulardan so‘z o‘zlashtirishi mumkin, ba’zilarida fonetik va grammatik hodisalarning ta’siri kuchliroq sezilishi kuzatiladi, ba’zilari uchun ikkinchi til sifatida o‘zlashishi mumkin.

Qoraqalpoq tili. U nisbatan keng hududni egallagan. Turkiy tillarning bir taksoni sifatida unga birlashadi, lekin uning ham ta’sir doirasi bor. Ular ham taksonlarni hosil qiladi. Qoraqalpoq tiliga o‘zbek (uning mahalliy shevalari), qozoq va qisman turkman tilining ta’siri bor va bu zonada ular ham takson vazifasini bajaradi.

Shevalarning tarqalish hududlari. Bunda bir til ichidagi shevalarning tarqalishi intensional takson sifatida belgilanadi. Masalan, o‘zbek tilining qipchoq lahjasi shevalari hududiy yaxlitlikka ega emas, balki bu lahjaga oid shevalar Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Janubiy Qozog‘istonda; qarluq lahjasiga oid shevalar Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Andijon, O‘sh, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryoda; o‘g‘uz lahjasiga oid shevalar Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Janubiy Qozog‘istonda tarqalgan. Lekin bu dialekt va shevalar nisbiy yaxlit hududlarga ega.

Lingistik belgilariga ko‘ra intensional taksonlarning tarqalish hududlari:

“ä”lashish. Bu takson Toshkent, Farg‘ona vodiysi shevalari, Qarshi, Buxoro shevalarida asosiy fonema sifatida tarqalgan, boshqa ayrim shevalarda fakultativ unli sifatida nutqda ko‘rinib qoladi.

“a”lashish. Bu takson esa barcha singarmonizmli shevalarda va Farg‘ona, O‘sh, Samarqand shahar singarmonizmni yo‘qotgan shevalarida ham kuzatiladi.

“ä”, “a” taksonlari A.K. Borovkovning shevalar tasnifida farqlovchi belgi sifatida olingan.

“ঃ”lashish. Bu takson aksariyat qipchoq lahjasi shevalariga xosdir.

Umlaut. Fonetik qonun sifatida Namangan va O'sh shevalarida amal qiladi.

Singarmozizm. Fonetik qonun sifatida asosan qipchoq, qisman qarluq shevalarida amal qiladi.

Bu kabi lingvistik hodisalarni ko'plab keltirish mumkin. Bularning barchasi intensional takson hisoblanadi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Intensional takson tushunchasini ochiqlang.
2. Turkiy tillardan biriga (yuqorida izohlanganlardan boshqa) takson sifatida tavsif bering.
3. Intensional taksonning qanday turlari bor?
4. Lingvistik belgisiga ko'ra intensional taksonni tavsiflab bering.

15-mavzu. Ekstensional takson

Reja

1. Taksonlar to'g'risida ma'lumot.
2. Ekstensional taksonlar.
3. Lingvistik hudud.
4. Til massivi, zonasasi.

Tayanch tushunchalar: ekstensional takson, tillar hududi, tillar oilasi, til sistematikasi, yer shari, landshaft, til massivi, dialektal zona.

Matn

Ekstensional (*uzunlik, kenglik, yoyilish*) taksonda turli til va dialektlarga oid taksonlarning keng hududlarga yoyilishi o'rganiladi. Adabiyotlarda lingvistik kenglik (hudud) umumiyligi va rang-barangligi ta'kidlanadi [Джураев 1991:23]. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomonidan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlar bilan, ikkinchi tomonidan, o'z taraqqiyot sharoitlari bilan bog'langan.

Taksonomiyada taksonlar sistematikasi degan tushuncha bor. Har bir fanning taksonlari sistematikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, ya'ni bu sistematika muayyan iyerarxiyaga (pog'onaga) asoslanadi. Aslida taksonlar sistematikasining biologiyaga oidligini ta'kidlash joiz. Axborot tizimida biologik sistematika *tabiiyot*

(царство) ← *sinf* ← *otryad* ← *toifa* (род) ← *tur* ← *turlanish* (разновидность) pog‘onalaridan iborat ekanligi ko‘rsatiladi [<https://wp.wiki-wiki.ru>]. Shu maqolada lingvistik taksonomiya sistematikasida *makrooila* ← *oila* ← *guruh* ← *nimguruh* ← *til* (lahja, dialekt, sheva) pog‘onalari ko‘rsatiladi. Bunda *makrooila* deganda tillarning genealogik tasnididagi hind-yevropa, oltoy tillari; til oilalariga esa hind-yevropa tilining hind, eron, slavyan, Boltiqbo‘yi, german, roman, kelt, grek, alban, arman tillari, oltoy tilining turkiy, mongol, tungus-manchjur [Реформатский 1996:216,224] til oilalarining taalluqliligi tushuniladi. Buni boshqa til oilalari misolida ham ko‘rish mumkin.

Biologiyadagi sistematika xususiyatlari shu fonda o‘z izohini topadi, lekin boshqa fanlarda ham sistematika tamoyillariga yondashuv aynan ekanligini ta‘kidlaymiz. Areal lingvistikada taksonlar sistematikasiga o‘zgacha yondashuv ham mavjud. A.Jo‘rayev ekstensional taksonlar to‘g‘risida fikr yuritib, sistematikani lingvistik hudud tushunchasi bilan bog‘laydi va uning *dunyo tillari* (butun dunyoga tarqalgan tillar) ← *til oilalari* (lingvistik hududlar) ← *til guruhlari* (til massivi) ← *til* (dialektal zona) pog‘onalarni belgilaydi. Bu tasnidan ko‘rinib turibdiki, dunyo tillari yagona til hududi deb talqin qilinmoqda va uning tarkibiy qismlari sifatida til oilalari qatnashmoqda. Til massivi tushunchasi esa til oilalarining tarkibiy qismini anglatadi. Bu sistematikani dialektal zona yakunlab beradi. Shu munosabat bilan til massivi, landshaft, til guruhi, dialektal zonalar belgilanadi [Джураев 1991:17].

A. B. Jo‘rayev sistematikasidagi ekstensional taksonni tahlil qilishga o‘tamiz. Ekstensional takson va tarkiblarga ajraladigan *yagona areal* (komponent) tushunchasi shu o‘rinda bir-biriga mos keladi. Terminning ma’nosidan anglashilib turibdiki, bu yirik tushuncha bo‘lib, quyidagi taksonlarni umumlashtiradi:

ekstensional takson komponentlaridan eng yirigi tillarning *yer sharida tarqalishidir*. U *dunyo tillari* degan tushunchaga korrelatsiya bo‘ladi va u *dunyo tillari kartasida* yorqin namoyon bo‘ladi. Dunyo tillari aksariyat hollarda muayyan hududda qaysi xalq yoki millat tarixan makon topgan bo‘lsa, o‘sha hududlardagi tillar ularga aloqa vositasini bajargan. Shuning uchun hudud nomi va tillarning nomlanishi ko‘pincha shu o‘rinlarda mos keladi. Turk, o‘zbek,

qozoq, rus, ukrain, moldovan, gruzin, arman, fransuz, ingliz, meksika kabi tillar shunday nomlanadigan hudud yoki davlat nomiga mosdir. Bunday muvofiqlik nisbatan ko‘p uchraydi, lekin til va hudud nomi mos kelmasligi ham keng tarqalgan. AQSh, Germaniya, Belgiya, Efiopiya, Iordaniya, Pokiston kabi davlatlarda hudud nomi va tili muvofiqligi yo‘q. Ayni bir tildan foydalanadigan bir necha hududlar ham bor, bir necha tillardan foydalanadigan kichik hududlar ham bor. Avvalgisiga inglizzabon davlatlar hududlari kiritiladi, keyingisini esa katta va kichik hududlarga ajratish mumkin bo‘ladi. *Super katta hudud* sifatida yer sharini oladigan bo‘lsak, undagi har bir til takson, yer shari tillari esa ekstensional takson sifatida qaraladi. Nisbatan katta hudud sifatida qit’alarni ko‘rsatish mumkin. *Kichik hududga* bir necha tillardan davlat tili sifatida foydalanadigan davlatlarni (hududlarni) ko‘rsatish mumkin, masalan, Belgiyada davlat ingliz, italyan, fransuz, nemis tillarida ish ko‘radi;

ekstensional taksonning *lingvistik hudud* komponenti. U til oilasi tushunchasiga korrelatsiya bo‘ladi, bunda ikki toifadagi tillar guruhi ko‘zda tutiladi, ya’ni yirik til oilalari: hind-yevropa, oltoy tilliri; uning ichki til oilalari, masalan, oltoy tilining *turkiy tillar, mongol tillari va tungus-manchjur tillari* yoki hind-yevropa tillarining kichik til oilasi (guruhlari): *hindiy, eronyi, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, xet, toxar* lingvistik hududlari belgilanadi;

ekstensional takson komponentlaridan yana biri *til massivi, landshaftdir*. U konkret bir til tushunchasi bilan korrelant bo‘ladi. Til massivi lingvistik zona va azonalarning (a+zona) joylashishini umumlashtiradigan maxsus yaxlit hudud bo‘lib, u ko‘pincha bir til doirasi bilan belgilanadi. Masalan, o‘zbeklar turg‘un va uyg‘un yashaydigan yaxlit hudud o‘zbek tili massivi, shu kabi qozoqlar turg‘un va uyg‘un yashaydigan hudud qozoq tili massivi deyiladi. Shuningdek, O‘zbekistondan tashqarida turg‘un va qo‘sni yashayotgan (Afg‘oniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) o‘zbeklar tili ham shu o‘zbek tili massivini tashkil etadi. Til massivlari ular landshaftini hosil qiladi, ya’ni qarindosh va noqarindosh tillar va muayyan tilning dialektal tarkibi landshaftni yuzaga keltiradi;

ekstensional takson komponentlaridan eng quyisi *dialektal zonadir*. U *shevalar guruhi* tushunchasi bilan korrelatsiyaga

kirishadi. Ma'lumki, dialektal zona til massivi shevalar guruhidagi tayanch sheva ta'sirida bo'lgan hududni anglatadi, shu o'rinda tayanch dialekt (sheva) tushunchasi adabiy tilning tayanch shevasi degan ma'noni bildirmasligini ta'kidlashni lozim topamiz, balki u fokus nuqtasi tushunchasi bilan korrelyatsiyada bo'ladi. Bu sheva, odatda, yirik shahar shevasi bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi va unga chegaradosh bo'lgan o'zbek tili massivining dialektal zonasi A. B. Jo'rayevning tadqiqoti uchun asos bo'lganligi fanda ma'lum. Ta'kidlash joizki, o'zbek tili dialektal zonalarining belgilanishi ilk tajriba bo'lib, u nazariy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, unda munozarali va tadqiqotlarga muhtoj o'rinlar mavjud. Ulardan biri bo'lgan A. Jo'rayev tasnifida Namangan fokus nuqtasiga ega bo'lgan janubiy-g'arbiy zonaning fonetik xususiyatlari I. Darvishov tadqiqotida reallashtirildi [Дарвишов 2019:7] Shuningdek, A. Jo'rayev azona (zonadan tashqari) deb yuritgan zonalarning lingvistik tabiatini keyingi o'ttiz yil ichida sezilarli o'zgarishlarga uchraganligini ham ta'kidlash mumkin. Bu jarayonlar yangi tadqiqotlarni kutib turibdi.

Lingvistik adabiyotlarda ekstensional taksonning piramida hosil qilishi to'g'risida fikr yuritiladi [Джураев 1991:17] (2-расм) ya'ni eng yuqorisida dialektal zonalar joy oladi. Ular ko'p sonli bo'ladi.

Ekstensional takson piramidasи



2-rasm

Undan pastda til massivi joylashadi. Ular dialektal zonaga nisbatan kam sonli hisoblanadi. Uning pastrog'idan lingvistik hudud o'rin oladi. Ular miqdor jihatdan til massiviga nisbatan oz bo'ladi va ularning barchasi yer shari tillarini tashkil etadi.

Lingvistik takson masalasi o‘zbek areal lingvistikasida endigina e’tibor berilayotgan masala bo‘lib, uning umumiyl-nazariy muammolari hal qilingan bo‘lsa ham, o‘zbek tili massividagi xususiyatlari hali tadqiqot obyekti bo‘lishi kutilmoqda. Demak, shevalar aralashishi va o‘zaro ta’sir kuchayayotgan ushbu davrda lingvistik hudud, til massivi, dialektal zonalar ham o‘zgarib va rivojlanib boradiki, ularga yangicha yondashuv lozim bo‘ladi hamda davr o‘tishi bilan ular qayta tadqiq qilinishi lozim bo‘ladi, chunki shevalar aralashuvi, migratsiya jarayonlarining tobora avj olishi tillarning ham aralashuvini tezlashtiradi. Shu munosabat bilan areal tadqiqotlarga muhtojlik oshib boradi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Ekstensional taksonga tavsif bering.
2. Taksonlar sistematikasi nima?
3. Lingvistik hudud tushunchasiga tavsif bering.
4. Til massivi va landshaft nimani anglatadi?
5. Lingvistik taksonning piramida hosil qilishi to‘g‘risida qanday fikrdasiz?
6. Ekstensional takson sifatida dialektal zona qanday xususiyatga ega?

16-mavzu. Areal lingvistikada innovatsiya masalasi

Reja

1. Areal lingvistikada innovatsiya masalasining yuzaga kelishi.
2. Innovatsiya va “til ittifoqi”.
3. Muayyan dialektal hodisaning taraqqiyot xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: innovatsiya, innovatsiya markazi, “til ittifoqi”, idiom.

Matn

Turkologiyada innovatsiya, innovatsiya markazi masalasi N. Z. Hojiyevaning ishida dastlab tilga olindi va uning nazariy asoslari to‘g‘risida fikr yuritildi [Гаджиева 1975:206].

O‘zbek tlshunosligida innovatsiya markazi masalasi dastlab A. Shermatov tomonidan tilga olingan [Шерматов 1981:12]. U

innovatsiya markazi nazariyasiga oid fikrlarni bayon qilmaydi, balki chiqish kelishigining *-din* affiksi bilan ifoda qilinishida uning innovatsiya markazini uyg‘ur tili deb ko‘rsatadi, xolos. Bu fikr asoslangan emas, balki mavjud holat ko‘zda tutilgan, ya’ni innovatsiya markazini aniqlashda til tarixi faktlari yetakchi o‘rin tutishi hisobga olinmagan. Qadimgi turkiy, eski o‘zbek adabiy tili va o‘zbek tilining shimoliy o‘zbek shevalarida bu kelishik *-din//tin* va boshqa variantlarda qo‘llanishi e’tiborga olinmagan. Har bir lingvistik hodisa yoki izoglossaning keyingi davrdagi joylashuvi uning innovatsiyasini bildirmaydi, balki u innovatsiyani aniqlashning barcha qoidalariga mos kelishi lozim. Til tarixi bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlar [Фозилов 1965:42] bu izoglossaning innovatsiya markazi qadimgi turkiy til ekanligiga asos bo‘ladi. Agar innovatsiya tushunchasini u yoki bu tilning o‘tmishiga xos biror hodisasi hozir ham saqlanib qolgan hudud tushuniladigan bo‘lsa, unda *-din / tin* affiksini yagona saqlab kelayotgan Shimoliy o‘zbek shevalari innovatsiya markazi vazifasini bajaradi.

Innovatsiya markazi tushunchasi keyingi davrda darsliklarga ham kiritildi [Ashirboyev 2016:78, 2021:105].

Areal lingvistikada innovatsiya masalasining qo‘yilishi bejiz emas. Buni, umuman, areal lingvistikaning paydo bo‘lishi bilan bog‘lash lozim bo‘ladi. Ma’lumki, areal lingvistika qiyosiy-tarixiy tilshunoslik qoidalariga zid qo‘yilishi negizida paydo bo‘lgan, ya’ni hind-yevropa tillarining paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi yangi qarashlar va dialektlarni yangi metodlar asosida o‘rganish [Гаджиева, 1975:5] bilan bog‘liq edi. Areal lingvistika ijodkorlari uning turli qirralarini nazariy jihatdan asoslashga harakat qildilar va ularning vakillaridan bo‘lgan V. Porzig 1954 yilda innovatsiya zonasini nazariyasini ishlab chiqqan edi [Qarang: Гаджиева 1991:8]. Shundan e’tiboran, areal lingvistikada innovatsiya, innovatsiya markazi degan tushunchalardan foydalanish davom etmoqda. Areal lingvistikadagi innovatsiya so‘zi o‘z lug‘aviy ma’nosini bilan bog‘langan bo‘lib, u izoglossalarning dastlabki chiqish, tarqalish markazini bildiradi.

Adabiyotlarda areal lingvistika innovatsiya masalasi murakkab talqinlarga ega. Dastlab uni tushuntirishda izoglossaga murojaat qilinadi. Lingvistik kartalarni qiyoslash, ulardagи lingvistik identifikatsiyani birlashtirish jarayonida innovatsiya markazi

haqidagi masala hal qilinadi. Bu jarayonda yana til tarixini e'tibordan qo'chirish mumkin emas, zonaning iqtisodiy, siyosiy, etnografik chegaralanishi hamda boshqa tillar bilan qo'shnichiligi hisobga olinadi.

Innovatsiya tom ma'noda muayyan izoglossaning chiqib kelish, tarqalish nuqtasini, markazini bildiradi. Innovatsiya markazini aniqlashda quyidagi sharoitlar tahlil qilinadi:

1. Har bir lingvistik hodisaning paydo bo'lish nuqtasi aniq belgilanishi kerak va u o'sha hodisaning boshqa yerda ham paydo bo'lganligini inkor etadi. Boshqacha aytganda, bu masalada ikkilanish mumkin emas, ya'ni N. Z. Hojiyeva ta'biri bilan aytganda, aniqlangan innovatsiya yana boshqa yerdan chiqmasligi isbotlanishi kerak [Гаджиева 1975:205]. Bunda barcha ilmiy farazlar va ularni realizatsiya qilish hamda boshqa tadbirlar to uni aniqlashga qadar amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Bunday ishonchli tadqiqotlar fanda bor. Jumladan, oltoyshunoslikda, turkologiyada hozirgi turkiy tillar va oltoy guruhiiga kiradigan tillardagi leksikada aksariyat faol so'zlar oltoy tiliga mansubligi isbot qilingan, demak, bunday so'zlarning (izoleksemalarning) innovatsiya markazi oltoy tilidir, chunki u qayta tadqiq qilishga muhtoj emas. Umlaut hodisasi turkiy tillardan uyg'ur tilida rivojlangan, labial singarmonizm qirg'iz tilida har tomonlama o'ziga xosligi namoyon bo'lganligi uchun hozirgi davr uchun ko'rsatilgan izoglossalarning qo'nim topgan vatani, innovatsiya markazi ayni shu tillardir, chunki tilga olingan hodisalar boshqa turkiy tillarda ushbu tillardagi kabi qat'iy emas.

2. Innovatsiya tillar va shevalar kesishgan hududlardan, ya'ni "til ittifoqi (языковый союз)" sodir bo'lgan joylardan qidiriladi. Agar faqat bir til yoki bir sheva amal qiladigan hudud bo'lsa, innovatsiya haqida fikr yuritish tavsiya etilmaydi. Aslida atrof tillar va shevalar bilan aloqada bo'limgan til va shevani topish qiyin. Demak, innovatsiya markazi "til va dialektlar ittifoqi" (bu tushuncha quyida yanada ochiqlanadi), ya'ni bir necha til va dialektlar aralash faoliyatda bo'lgan hududlardan aniqlash to'g'risida fikr yuritiladi. Masalan, turkiy tillarning har biri o'zaro va tashqi muhit, ya'ni boshqa tizimdagi tillar bilan birga yashaydi. Shu jumladan, o'zbek tili ham. Ma'lumki, o'zbek tiliga tutash (va aralash) bo'lgan qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik tillarining ta'siri bo'ladi va,

aksincha, o‘zbek tilining ham ularga kuchli ta’siri bor. Bu esa o‘sha hududda izoglossalar umumiyligiga olib keladi. U yoki bu izoglossaning innovatsion markazini belgilashda ana shu “begona” til va shevalarga xos bo‘lgan izoglossalarni *inkor qilish* usulidan foydalaniлади.

3. Innovatsiya markazini aniqlashda izoglossalar tarixini o‘rganish muhimdir. Izoglossalar tarixini o‘rganish ancha murakkab hisoblanadi. Innovatsiya markazini aniqlash ayni zamonda u yoki bu izoglossaning tarixiga kirib borish demakdir. Til tarixi aslida izoglossalar tarixidan iborat. Ma’lumki, til tarixiga qanchalik kirib borilgan sari aniqlik darajasi ortib boradi, ya’ni markazni aniqlash shu darajada ravshanlashib boradi. Shuning uchun ham til tarixini o‘rganish izoglossalarning innovatsiya markazini o‘rganishda muhim omil hisoblanadi.

“*Til va dialektlar ittifoqi*” masalasi. Areal lingvistika til tipologiyasi bilan uzviy bog‘langan. Ulardagi o‘xshashlik va farqlarni o‘rganish jarayonida “til ittifoqi” tushunchasi kelib chiqadi. Bu tushuncha ikki til kesishuvini ifoda qiladi. Mazkur tushuncha areal lingvistikaga 1923-yilda N. S. Trubetskoy tomonidan kiritilgan [window.edu.ru; qarang: Гаджиева 1975:7] va u ikki til yoki shevalarning kesishgan hududida bir-biriga faol ta’siri va ularning aralashuvi natijasida oraliq tilning (shevaning) hosil bo‘lishini anglatadi. “*Til ittifoqi*” aloqada bo‘lgan tillardagi tasodifiy bo‘lmagan (ba’zangina uchraydigan), balki bir necha bor takrorlanadigan va muhim bo‘lgan til faktlariga asoslanadi. “*Til ittifoqi*” shevalar, shuningdek, bir hududda geografik jihatdan aralashgan qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillarning o‘zaro aloqasini ham tashkil etadi. Boshqacha aytganda, muayyan hududda bir necha tillar faoliyatda bo‘ladi, ya’ni “*til ittifoqi*” muayyan hududdagi tillarni qamrab oladi. Bunday aloqada tillar va shevalar o‘zaro kesishadi. Oqibatda shunday zonalar paydo bo‘ladiki, ularda bir til emas, aloqada bo‘lgan tillar va dialektlar uchun umumiyligiga bo‘lgan izoglossalar tizimi yuzaga chiqadi. Bunday zonalar rus tilida “vibratsiya” tushunchasi bilan beriladi. Bu so‘zni shunday ma’noda tarjima qilish mumkin emas, balki bu tushuncha bir qadar badiylashtirilgan bo‘lib, o‘zbek tilida *oraliq hudud* deb yuritiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining shunday hududlari borki, ularda turkiy tillar va, shuningdek, tojik tili

bilan aloqada bo‘ladi. Bu oraliq zonada ham o‘zbek, ham tojik tili izoglossalari o‘zaro aralashadi. Bu *interferensiya* jarayonida tuz beradi. Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida o‘zbek va qozoq xalqlari aralash va qo‘shti yashaydiki, bu yerda ham “*til ittifoqi*” kuzatiladi. Ular ham oraliq hududni tashkil etadi.

Innovatsiya, “til ittifoqi” va idiom tushunchalari munosabati. Idiom tushunchasi qarindosh tillar bilan bog‘liq bo‘lib, bir til oilasiga mansub tillar ittifoqi ham mavjud, lekin bir til oilasidagi barcha tillar ham o‘zaro ittifoqdosh bo‘la olmaydi, balki madaniy, iqtisodiy va hududiy aloqlari bo‘lgan idiomlargina ittifoqdosh bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili yoqut, xakas tillari bilan aloqada bo‘la olmaydi, chunki hudud umumiyligiga ega emas. Turkiy tillarning Markaziy Osiyo areali borki, ularning har birida “*til ittifoqi*” mavjud. Bu borada ko‘p fikrlar va misollar keltirish mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, “*til ittifoqi*” termini ayrim mutaxassislarining fikricha, juda (ortiq darajada) kuchli termin va u mazkur ittifoqda har bir til mustahkam a’zo degan g‘oyani bildirishi ham mumkin. Aslida ular murakkab tarmoqqa ega bo‘lib, qo‘shti til va shevalarni yoki katta areallarni qamrab olishi ko‘zda tutiladi, bu qamrab olinayotgan til yoki sheva teng a’zoli emas. Shuning uchun ham konvergent hududlar, ya’ni qo‘sib olingan hududlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ma‘lum bo‘ladiki, innovatsiya markazini belgilashda qatnashadigan “*til ittifoqi*” barcha qarindosh tillar emas, balki faqat til oilalari hududida kesishgan tillar va ular shevalaridan tashkil topadi. Masalan, o‘zbek va yoqut tillari bir til oilasiga kirsa-da, ular “*til ittifoqi*”da qatnashmaydi, chunki ular hududiy jihatdan bog‘lanmagan.

Endi innovatsiya markazi haqidagi ayrim qarashlarga aniqliklar kiritishga harakat qilamiz.

N. Z. Hojiyeva o‘zbek tilidagi “ä(ɔ)”lashishga keng to‘xtaladi va unda ushbu izoglossaning tarqalishiga oid ma‘lumotlarni o‘zbek dialektologlari ishlardan oladi hamda bu unlining Toshkent, Samarqand-Buxoro shevalariga xosligi va u qipchoq shevalarini ham qamrab olayotganligini ko‘rsatadi [Гаджиева, 1975:28]. Bu unlining singarmonizmlı shevalarda ham mavjudligi o‘zbek dialektologiyasiga oid ishlarda ham bayon qilinadi va ba’zan u umumturkiy “a” unlisining varianti sifatida uchrashi aytildi [Решетов, Шоабдурахмонов, 1962:129]. Shunisi xarakterlik, N. Z. Hojiyeva “ä(ɔ)” unlisining

qipchoq shevalarida tarqalishi ikki tilli (o'zbek, tojik) aholi nutqida uchrashini X.Doniyorov va R.Qo'ng'urov fikrlariga asoslanib aytgan [Данияров, Кункуров, 1968:39]. O'zbek olimlarining bu fikri “ā(ɔ)” unlisining o'zbek tilida tarqalishini isbotlashda qimmatli hisoblanishini ta'kidlash mumkin.

Shu orinda biz “ā(ɔ)” unlisining izoglossa sifatida innovatsiya markazini yuqorida o'rnatilgan qoidalar asosida aniqlashga harakat qilamiz. Bu unlining geografik o'rni Toshkent, Farg'onha vohasidagi aksariyat shevalar, Samarqand-Buxoro ikki tilli shevalaridir. Turkiy tillardan tatar va boshqird tillarida, ozarbayjon tilining ayrim shevalarida uchrashi aytildi. Adabiyotlardagi umumturkiy “a” unlisining qisman lablanishi haqidagi ma'lumotlarni “ā(ɔ)” unlisi bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Aslida “ā(ɔ)” unlisi turkiy tillarning xususiyati emas, shuning uchun ham qadimgi turkiy til va aksariyat turkiy tillar fonematik tizimida bu unli yo'q. Bu unli qayd qilingan tillarda uning mavjudligi muhokamaga sabab bo'lmoxda. Ma'lum bo'lishicha, bu unli islom madaniyati amal qiladigan turkiy xalqlar tillarida tarqalganligi (ba'zilarida adabiy tilida, ba'zilarida shevalarida) ko'zga tashlanadi, ya'ni “Tajvid” qoidalariga ko'ra, “Qur'on” suralari so'zlaridagi harflar (tovushlar) talab qilingan o'rnlarda tafhimga (yo'g'on talaffuz qilish) rioya qilingan: *lo*, *ro*, *zo* kabi [Тажвид, 1981:16]. Bu fonetik holat islomni qabul qilgan xalqlar tillarining, xususan, Volgabo'yı turkiy tillarining ham og'zaki shaklida o'z izini qoldirgan bo'lishi tabiiy, chunki bu unli tatar, boshqird adabiy tillaridan o'rin olgan emas, faqat o'zbek adabiy tilidagina qo'llanadi. Uning tarixiy yo'liga murojaat qilamiz. Bu unli hozirgi o'zbek adabiy tilida, o'zbek tilining qarluq lahjasiga kiruvchi shevalarida, buyuk (mumtoz) o'zbek adabiyoti matnlari tilida va XII – XIV asrlar turkiy tilidagi forsiy va qisman arabcha so'zlarda qo'llanadi va, avval aytganimizdek, qadimgi turkiy tilda qayd qilinmaydi. Demak, uning asli innovatsiya markazini o'zbek tili kesishadigan tillardan axtarish lozim bo'ladi, bunda biz tojik tilini ko'zda tutmoqdamiz va uning o'zbek shevalarida tarqalishini Toshkent dialektining o'zbek adabiy tiliga fonetik jihatdan tayanch dialekt sifatida o'rnatilishi bilan bog'lash lozim bo'ladi. Shu munosabat bilan, bu dialekt *o'zbek tili uchun* innovatsiya markazi vazifasini bajarishi aniqlanadi. Shu bilan birga, “ā(ɔ)” unlisining

qipchoq va boshqa singarmonizmli shevalarda ham mavjudligi to‘g‘risidagi qarashlarga to‘xtalishni ham lozim topamiz. Ma’lumki, dialektologlarimiz shevalarni o‘rganishda sheva vakillaridan birining nutqidan qanday faktni topsa, shuni sheva fakti sifatida tavsiya qilib keldilar. Bu metod o‘zini oqlamaydi, balki o‘sha fakt ayni o‘rinda shevaning boshqa vakillarida qayta sinab ko‘rilishi talab qilinadi, lekin qator yillardan beri bu metodga amal qilinmay kelinmoqda. Qolaversa, dialektolog talaffuzdagi nozik tebranishlarni ilg‘ash tuyg‘usiga ega bo‘lishi kerak. Bunday tayyorgarlik shevalardagi, xususan, singarmonizmli shevalardagi “ä(ɔ)” unlisining tarqalishini aniqlashda juda zaruriyati bor, aksariyat dialektologlarimizda bunday tuyg‘u yetishmagan. Natijada sheva fonematik tizimida bu unlining muqim o‘rin egallaganligi masalasi ochiq qolmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, shevalarning o‘z fonematik tizimi (normasi) bo‘ladi va bu tizimdagi ayrim fonemalar variant tarzida emas, balki kishining turli his-hayajonlarida chiqaradigan tovushlari muayyan fonemalar ustida (bu o‘rinda “a” fonemasi) reallashadi. Masalan, singarmonizmli shevalardagi *bala* (*бала*) so‘zini so‘zlovchi jahli chiqqan paytda *hey bāla* tarzida talaffuz qiladi, ya’ni birinchi bo‘g‘inda “ä(ɔ)” talaffuz qiladi. Bu ushbu unlini o‘sha shevaning fonematik tizimida mavjud deb qarashga asos bo‘lmaydi, chunki sheva vakili me’yoriy nutq jarayonida so‘zning *bala* tarzidagi fonematik holatini saqlaydi. Demak, dialektolog har bir shevani o‘rganishda fonemalar tarkibi, har bir fonemaning variantlari va ularning turli emotsiional holatidagi tovush o‘zgarishlarini farqlay olish ko‘nikmasini egallamasdan shevalarni o‘rganishga kirishmasligi kerak. Bundan xulosa shuki, “ä(ɔ)” unlisi o‘zbek tilining singarmonizmli shevalari uchun xarakterli emas.

Bu unlining haqiqiy innovatsiya markazi masalasi tojik tiliga borib taqalishiga yuqorida ishora qilindi, lekin aksariyat olimlar uning tojik tilining ta’siri ekanligini inkor qiladilar [Qarang: Гаджиева 1975:32-33]. Dastlab bu unli haqida fikr bildirgan G‘.O. Yunus ham uning turkiy (o‘zbek) tovush ekanligini qayd qilgan edi [Yunus 1927:49], lekin unga bir tomonlama aytilgan fikr sifatida qarash lozim bo‘ladiki, unda “ä(ɔ)” unlisining turkiy tillarning aksariyatida qo‘llanmasligi hisobga olinmagan va unda bu masalaga milliylik ruhida qarash ustunlik qilgan. Keyingi davrlarda esa

innovatsiya markazini aniqlash nazariyasi hali keng tarqalmaganligi va bu masala ko‘tarilmaganligi tufayli ham “ā(ɔ)” unlisining innovatsiya markazini aniqlashga kirishilmadi. Shuni yana ta’kidlash mumkinki, agar “ā(ɔ)” unlisi o‘zbek tilining tub fonemasi bo‘lsa, innovatsiyani aniqlash talablariga ko‘ra, keltirilgan barcha fikrlar *dalillanishi va boshqa talqinlarga o‘rin qoldirilmasligi* lozim edi. Demak, munozara davom etmoqdaki, hali “ā(ɔ)” unlisining innovatsiya markazi masalasi yechilmagan bo‘lib qolaveradi va bu vazifa o‘zlashtirilgan tilda qoladi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Innovatsiya tushunchasining areal lingvistikadagi ma’nosini sharhlang.
2. Innovatsion markazni aniqlash usulini tushuntiring.
3. “*Til ittifoqi*” nima?
4. Idiom tushunchasiga izoh bering.

17- mavzu. Lingvistik kontaktologiya va “til ittifoqi”

Reja

1. Lingvistik kontaktologiya va uning mohiyati.
2. “Til ittifoqi” va konvergensiya.
3. “Til ittifoqi” va interferensiya.

Tayanch tushunchalar: areal, areal lingvistika, “til ittifoqi”, so‘z o‘zlashtirish, lingvistik gegemoniya, konvergensiya, lingvistik hudud, interferensiya, kontaktologiya.

Matn

Dunyoda hech bir til yo‘qki, u boshqa tillar bilan aloqada bo‘lmasin. Bunday aloqalar obyektiv reallik bo‘lib, u tilshunoslikda doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelgan va hamon bu muammo o‘rganilmoxda. Bu masala areal lingvistikada yangi mazmunga ega bo‘ldiki, u bilan maxsus bo‘lim – kontaktologiya shug‘ullanmoqda, ya’ni aloqadagi til va shevalar kontaktologiya bo‘limida o‘rganiladi. Fanda lingvistik kontaktologiyaning turli talqinlari bor. Bu muammo kontakt lingvistikasi obyekti hisoblanadi. Fanda kontaktologiya quyidagi mazmunga ega:

so'z o'zlashtirish. Aloqada bo'lgan tillarda so'z o'zlashtirish yuz beradi. Ma'lumki, o'zbek tilining so'z o'zlashtirish manbalari talaygina. Ularga rus, tojik, shuningdek, ingliz va arab tillarini kiritish mumkin, qadimda fors, xitoy, grek tillaridan ham so'z olingan va ular hozirgi o'zbek tilida tub so'zlarimiz kabi qo'llanmoqda. Hozirgi davrda rus va tojik tili bevosita aloqadagi til deb hisoblansa, ingliz tili xalqaro aloqa kuchaymoqda bo'lgan til, arab tili esa dinimiz tili sifatida va ma'rifat tili sifatida o'rni bor. Bu tillardan o'zbek tiliga so'z o'zlashtirish turli darajada davom etmoqda va bunday o'zlashtirishning o'z qonuniyatlari borki, u bilan har bir millatning o'z tilshunosligi shug'ullanadi. Har bir tilga, shu jumladan, o'zbek tiliga kontaktdagi tillardan so'z o'zlashtirish bu tilni qarindosh tillardan birining boshqasiga nisbatan ayrim farqli xususiyatini keltirib chiqaradi;

g'olib til. Bu siyosiy harakatlar natijasi o'laroq paydo bo'ladi. Bunda bir til o'rnida boshqa til aholi muomalasiga kiradi. Bunday kontakt qadimgi Xorazm tilining turkiy tilga o'tishida ko'rindi. Shuningdek, bunga Amerkadagi bir qator tillarning ingliz tili tomonidan siqib chiqarilishini ham keltirish mumkin;

lingvistik gegemoniya. Tillarning xalqaro tus olishi natijasida dunyoda ingliz, fransuz, nemis, portugal, rus va boshqa tillarning keng yoyila boslashi bu tillarning funksionalligini ta'minlaydi va kontaktlarning rivojlanishiga olib keladi hamda bu tillar hatto davlat darajasiga ham ko'tariladi, jumladan, Hindistonda ingliz tili davlat tili sifatida qo'llanadi;

o'zaro ta'sir. Bunda tillar bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama ta'sir etadi. Ma'lumki, o'zbek tili, uning shevalari turkiy va turkiy bo'lmanligi jihatidan o'zaro aloqada bo'lib kelmoqda. Bu tillarda ko'p asrlardan beri aloqa qilib kelinmoqda, bu esa tillarning shu zonadagi o'ziga xosligini ta'minlagan va shu tillar shevalarining ham o'ziga xosligini hosil qilgan. Bunday zonalarda aholi ikki tilli bo'ladi, ya'ni siyosiy jihatdan mavqeyi ustun bo'lgan tilni va uning shevasini o'rganish keng tarqaladi. "Qozoq dialektologiyasi" mualliflari O'zbekiston bilan yondosh yoki O'zbekistondagi qozoqlar tilida (shevasida) o'zbek tilining sezilarli ta'sirini ko'radilar, lekin unga o'zbek tilining ta'siri deb qaramaydi, balki qozoq tilining

shevasiga xos xususiyat deb talqin qiladilar, jumladan, *og’ilxona*, *qistama* (*qishlov*), *zingg’ittay* (*o’ta kichkina*), *anaqi-munaqi* (*unaqa-munaqa*), *onsha-munsha* (*uncha-muncha*), *azin-shag’in* (*ozgina-chog’likkina*), *askadi* (*oshqovoq*), *belkurak* [Калыев, Сарыбаев 1967:97-101]. Bu fikr sof dialektologik jihatdan yondashish tufayli yuzaga kelgan, lekin bunday qarashni xato deb bo’lmaydi. Bu qarindosh til misolidagi kontaktning natijasi bo’lsa, qarindosh bo’lmanan til misolida Buxoro shevalariga tojik tilining sezilarli ta’sirini M. Mirzayev tadqiqotlari isbotlaydi, jumladan, u tojik tilidan yondosh o’zbek shevalariga *resha*, *bedona*, *alvonj* (arg’imchoq), *gavora* (beshik), *choygardon* (cho’mich) kabi o’zbek tiliga o’zlashmagan so‘zlarning qo’llanishini ko’rsatadi [Мирзаев 1961:164-167].

Lingvistik kontaktning yorqin ko‘rinishlaridan biri *interferensiyadir*. Bu hodisa tillar tutashgan hududda yuz beradi. Bunda kesishuvchi ikki tilning izoglossalari aralashadi va bu zonada har ikki tilga qisman o’xshash, aslida ulardan farq qiladigan oraliq hodisa paydo bo’ladi. Shu jihatdan, ya’ni o’zaro ta’sir tufayli bu zonada umumiylit bo’ladi. Albatta, kesishuvchi tillardan biri chet tili sifatida o’rganiladigan bo’lsa, interferensiya tilning normativ holatini to‘g’ri ko’rsatib bera olmaydi va til o’rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Interferensiya kontakt jarayoni va natijasi sifatidagina o’rganiladi.

Lingvistik kontakt faqat tillar tutashgan hududlardagina emas, balki turli etnik guruhlarga taalluqli bo’lgan shevalar orasida ham yuz beradi. Uning namunasini turkiy tillardan ozarbayjon shevalari tadqiqotlarida uchratish mumkin. M. Sh. Sheraliyev ozarbayjon shevalaridan *geokchay* shevasi sharqiy va g’arbiy shevalar, *jebrail* shevasi g’arbiy va janubiy shevalar ta’siriga uchrab oraliq sheva bo’lib qolganligining xabarini beradi [Sheraliyev 1963:39-40].

O’zbek tilining qipchoq va qarluq lahjalariga oid shevalarning aralashishi masalasini Qashqadaryo shevalari misolida T. Qudratov tadqiq qilgan [Кудратов 1968:19-20]. Demak, “*til ittifoqi*” bir til ichida, shevalarning o’zaro ta’siri natijasi o’laroq pirovard natijada oraliq shevalarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Tillarning aloqasi bilan tilshunoslar qadimdan shug’ullanib kelishgan. Jumladan, M. Koshg’ariy til kontakti natijasida yuzaga

kelgan o‘zgarishlar, xususan, h undoshining paydo bo‘lishi haqidagi fikri e’tiborli: “... bo‘g‘iz tovushlaridan ҳарфлари (harf termini tovush ma’nosida ham qo‘llanishda bo‘lgan) ham turkiyda yo‘qtur. ... Ammo ҳарфларни hech bir so‘z yo‘q. Goho Xo‘tanliklar so‘zida bu harf uchraydi, chunki u hind tilining ta’siridir. Kanjaklar tilida ham ҳарфи uchraydi, deyish mumkin. Chunki bu ham turkcha emasdir” (ДЖТ 1,1960:49; ДЖТ 2017:17). Turkiy va forsiy tillari kontaktologiyasi to‘g‘risida Alisher Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayn” asaridagi fikrlar barchamizga ma’lum. Keyingi davrda til kontaktiga bag‘ishlangan tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. Jumladan, K.Rahmonberdiyevning risolasida kontaktologiya masalasi batafsil bayon qilingan [Рахмонбердиев 1989:8-12].

“*Til ittifoqi*” tushunchasining kelib chiqishi to‘g‘risida. “*Til ittifoqi*” areallar tarixi til birligining muhim bir tipidir. Unda til va dialektlarning yagona geografik kenglikda uzoq va doimiy ravishda kontaktda bo‘lishi va konvergent taraqqiyoti natijasida struktura va material o‘xshashligining muayyan miqdori bilan xarakterlanadi, boshqacha aytganda, kontakt va konvergent bo‘lgan tillarning hosilasidir.

“*Til ittifoqi*” g‘oyasi dastlab I. A. Boduen de Kurtene asarlarida aks etgan. Bu g‘oya N. V. Trubetskoyning “Vavilon minorasi va tillarning aralashuvi (1923)” asarida rivojlantirilgan va maxsus – *Sprachbund* termini bilan yuritilgan, unda “til oilasi” va “til ittifoqi” tushunchalarining farqlanishi lozimligi ta’kidlangan. Uningcha, “til ittifoqi” tillarning shunday guruhiki, sintaksis, morfologiyadagi sezilarli o‘xshashlik, ba’zan fonetika, madaniy so‘zlarning umumiyligi fondidagi tashqi o‘xshashlik ham uni yuzaga keltiradi [<https://ru.wikipedia.org/wiki>].

Hozirgi areal lingvistikada quyidagi “*til ittifoqi*” to‘g‘risida fikr yuritiladi:

1. Bolqon “til ittifoqi”. Bunga bolgar, makedoniya, rumin, grek, alban tillari va ba’zi moldovan, serb, xorvat shevalari kiradi.
2. Yevropa “til ittifoqi” (“O‘rta Yevropa standarti”).
3. Eron-araks “til ittifoqi”. U janubiy Turkiya, shimoliy Iroq, shimoliy Eronni qamrab oladi
4. Volgabo‘yi “til ittifoqi”. Bunga fin-ugor (mari, udmurd) va turkiy (boshqird, tatar, chuvash) tillari kiradi.

5. Markaziy Osiyo (Himolay) “til ittifoqi”. Bu Markaziy Osiyoning turli til oilalari va guruhlari: eron, hind oriy, dravid, xitoy-tibet hamda sino-tibet tillarini birlashtiradi.

Shuningdek, o‘zbek-tojik “til ittifoqi”, kavkaz fonologik ittifoqi, Yevroosiyo, Mesoamerika (qarindosh bo‘lmanan amerika hindiylari “til ittifoqi”), Niderland ishchi tili “til ittifoqi” to‘g‘risida ham fikrlar bor.

“Til ittifoqi” termini fanda o‘zlashib qolgan bo‘lsa-da, unga nisbatan tanqidiy qarash ham mavjud. Axborot tizimida bu o‘ta kuchli termin, shuning uchun ham uni “konvergent zona” deb yuritish kerak degan takliflar berilganligi to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltiriladi [windovs.edu.ru].

“*Til ittifoqi va lingvistik hudud (areal)*”. Bu ikki tushunchaning aloqador o‘rnlari bor. Avval aytilganidek, lingvistik kenglik (hudud) umumiyligi va rang-barangdir. Lingvistik hududning yagonaligi va bir butunligi boshqa umumiylikka nisbatan farqlanadi. U turli kattalikdagi va ahamiyatli bo‘lgan lingvistik taksonlardan tashkil topadi. Bu taksonlarning rang-barangligi, bir tomonidan, ijtimoiy-siyosiy, lingvo-etno-geografik sharoitlar bilan, ikkinchi tomonidan, o‘z taraqqiyot sharoitlari bilan bog‘langan.

Areal tushunchasi til va shevalar “ittifoqi”ni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan ular o‘zaro bog‘lanadi. Til va shevalar “ittifoqi” lingvistik kontaktologiyaning mahsuli ekanligi ma’lum. Har bir til va sheva o‘zicha rivojlana olmaydi, balki u chegaradosh bo‘lgan til va shevalar bilan aloqada bo‘ladi. Bu jarayon ikki til yoki shevaning chegarasida yuz beradi. O‘zaro ta’sir doirasidagi tillar kesishuvida ikki til yoki shevada oraliq sheva paydo bo‘ladi hamda u til yoki sheva “ittifoqi” tushunchasini oladi. Bu hodisa areal lingvistika o‘rganadigan masalalardan biridir.

“*Til ittifoqi*” va konvergensiya. Konvergensianing yorqin namunasini “til ittifoqi” tizimini qarindosh tillar, shuningdek, noqarindosh tillar tashkil etishi yuqorida aytildi, lekin bunday tuzilmada yana yangi qarindosh tillarning paydo bo‘lishiga olib kelmaydi, balki ikki tillilikka olib kelishi mumkin. Bunga misol sifatida Bolqon “til ittifoqi”ni keltiriladi va bu orqali “til ittifoqi”ning umumnazariy namunasi belgilanadi. Bu “ittifoq”da (slavyan tillari va uning shevalari, bolqon-roman, alban, yangi grek) tillari ko‘p asrlik

kontaktda umumiste'moldagi leksika, tovush tizimidagi o'xshashliklarni, ayniqsa, morfologik va sintaktik qurilishidagi ko'p o'xshashliklarining asosiy xususiyatlarini aks ettirgan. Bu kabi holatni Volga bo'yи turkiy tillari "til ittifoqi"da ham ko'rish mumkin. "Til ittifoqi"da ikki tillilik sharoitida bir til dominantlik qiladi [<https://ru.wikipedia.org/wiki>].

"*Til ittifoqi*" va *interferensiya*. Muayyan til yoki shevalarning aloqada bo'lgan (qo'shni) til va shevalar bilan *interferensiyasisi* "til va dialektlar ittifoqi" (kontakt) mavjud hududlarda yuz beradi. Bu ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bunda ekstralnlingistik faktorlar, til va dialekt egalarining ijtimoiy faolligi, ularning kasb-kori, muloqot tarzi, ularda gaplashuvchi shaxslar miqdori va geografik muhiti, ularning tili yoki shevasini o'rganishga imkoniyatning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, interferensiyada tillar va shevalarning o'zaro ta'sirni aniqlash qiyin emas, balki bu hududda u yoki bu izoglossaning nima uchun o'zlashtirilganligini izohlash qiyinchilik tug'diradi. Bunda shu narsa ma'lumki, interferensiyada qatnashayotgan til yoki dialekt begona til va dialektning o'z tizimida bo'lman faktlarini o'zlashtiradi hamda ular o'z tillarini shu lingistik hodisalar (fonetik, leksik, grammatik) hisobiga to'ldiradi.

Avvalgi sahilalarda ta'kidlanganidek, o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va tojik tili hamda uning shevalari bilan kesishgan o'rirlarga ega. Til va shevalar kesishgan joyda har ikkala tilga o'xshamagan shevalar paydo bo'ladi. So'zsiz, bu shevalardagi o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatni ajratib olish muammo yuzaga chiqadi. Bu muammo sharhlash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo'shni yashaydigan o'zbeklar shevasida egalik affksi va o'rinn-payt, chiqish kelishigi o'rtasida **n** undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: boshida ~ **başında**, ko'zidan ~ **gözinnän**. Qirg'iz tilida bunday pozitsiyada interkalyar **n** undoshining yo'qolib borishi ham o'zbek tili shevalari bilan interferensianing natijasidir [Ashirboyev 2021:109].

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Kontaktologiya terminining qo'llanishi va ma'nosi haqida nima deysiz?
2. Til kontakti qanday amalgalashadi?
3. "Til ittifoqi" g'oyasining ijodkorini kim?

4. “Til ittifoqi”ning qanday namunalari bor?
5. “Til ittifoqi”ning konvergensiyaga qanday aloqasi bor?
6. “Til ittifoqi”ning interferensiyaga qanday aloqasi bor?

18-mavzu. Til zonası va dialektal zona

Reja

1. Fokus nuqtasi.
2. Tillar zonası.
3. Dialektal zona.

Tayanch tushunchalar: fokus nuqtasi, zona, zonalashtirish, til zonası, dialektal zona.

Matn

Til va dialektlarni zonalashtirish areal lingvistikating markaziy masalalaridan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Amaliyotda til va dialektal zonalarni tashkil etishda fokus tushunchasidan foydalaniladi.

Til zonası. Til zonalarini belgilashda muayyan tilning xalqaro ijtimoiy-siyosiy mavqeyi, madaniy va geografik joylashuvi muhim rol o‘ynaydi, bunda muayyan til atrof tillar hududida yoki dunyo bo‘ylab keng hududlarda tarqaladi. Bu til tarqalgan hudud o‘scha til bilan ataladigan til zonasini tashkil etadi va shu til barcha aholiga tushunarli bo‘ladi hamda bu hududda ijtimoiy-siyosiy jihatdan ustun bo‘lgan til, milliy til yoki xalq tili mustaqil qo‘llanishi davom etadi. Bunday tillarga ingliz, fransuz, ispan, portugal kabi tillarni kiritish mumkin. Ma’lumki, ingliz tili Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo qit’asida keng tarqalgan va bu yerlarda ingliz tilli zonalar mavjud. Fransuz tili Afrika qit’asida, ispan va portugal tillari Janubiy Amerikaga tarqalgan va o‘z zonalarini hosil qilgan. Bunday tarqalish siyosiy voqealarning XIX va XX asrlarda avj olishi bilan bog‘liqdir. Til zonalari *yaxlit hududni* ham anglatadi, jumladan, arab tili barcha arab mamlakatlarida qo‘llanishi jihatidan yaxlit zonani tashkil etadi. Bu zonalarda amal qiladigan tillar uchun *ko‘rsatilgan tillar* fokus nuqtasi vazifasini bajaradi va bu tillar tarqalgan hudud fokus doirasi tushunchasi bilan ham yuritiladi.

Til zonasi va fokus doirasi tushunchalari o'zaro korrelativ bo'ladi. Bu tushunchalar konkret bir tilning tarqalgan yaxlit hududini ham, turli qit'a va regionlarini ham qamrab oladi. Unda, avval aytiganidek, yuqorida nomi atalgan tillar fokus nuqtasi vazifasini bajaradi. Bu til zonadagi boshqa tillarni o'ziga singdirib olmasa-da, uning eng muhim unsurlari fokus doirasidagi tillar uchun umumiyl bo'ladi. Tushunarilik darajasi ham shu tilning o'sha zonalardagi ahamiyatligiga qarab kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tili O'zbekistonning barcha hududlarida fokus nuqtasi vazifasini bajaradi va u kuchli darajaga ega bo'ladi. Bu uning davlat tili sifatidagi maqomi bilan bog'liq, bu fikrni Afg'onistondagi o'zbek tiliga ham qisman qo'llash mumkin. Ma'lumki, Afg'onistonda o'zbek tili shu davlat Konstitutsiyasiga binoan 3-rasmiy til deb yuritiladi. Demak, o'zbek tili zonasida bu til kuchli darajaga ega. Lekin O'zbekiston, Afg'oniston Respublikalaridan boshqa mamlakatlardagi o'zbek tili zonalarida bu til kuchsiz darajaga ega bo'lib, u mahalliy muomala tili (shevasi), ta'lim va mahalliy matbuot tili sifatida qo'llanadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi barcha hududlar uchun o'zbek tili fokus nuqtasi vazifasini bajaradi. Bu fikrni boshqa tillarga ham tatbiq etish mumkin, jumladan, qozoq tiliga.

Qozoq tili Qozog'iston Respublikasining davlat tili bo'lib, bu Respublikada u yaxlit qozoq tili zonasini tashkil etadi. O'zbekiston, Qoraqalpog'iston, Qirg'iziston Respublikalaridagi ayrim hududlarda qozoq tili Qozog'istondagi qozoq tili bilan birgalikda qozoq tili zonasini tashkil etsa-da, bu hududlarda u kuchsiz darajaga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistondagi o'zbek tili, Qozog'istondagi qozoq tili, umuman, siyosiy jihatdan mavqeyi baland bo'lgan til zonating boshqa hududlari uchun fokus nuqtasi vazifasini bajaradi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ladiki, hudud va zona tushunchasi umumiyl semantikaga ega bo'lsa-da, terminologik jihatdan farqlanadi va bir hudud ichida bir necha zona bo'lishi mumkin.

Zonalardagi tillarning kuchlilik va kuchsizlik darjasini ayni tilli davlatlardagi ayni bir tilning davlat tili sifatida qo'llanishiga aloqador emas. Ingliz tilli, fransuz tilli, arab tilli davlatlarda til zonasi umumiyl bo'lsa-da, ular shu zonada kuchli darajaga ega bo'lib qolaveradi.

Dialektal zona. Dialektal zona tushunchasi birmuncha o'zgacha qonuniyatga ega bo'ladi. U til zonasining hududiy bo'lagi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, til zonasi bir necha dialektal zonalarga bo'linishi mumkin. Shu o'rinda *til zonasi tushunchasi til massivi tushunchasiga* korrelativ bo'lishini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Dialektal zonani V. M. Jirmunskiy o'zida turli tipdagi shevalarning mavjudligini tarixiy-geografik jihatdan tushuntirish lozimligini uqtiradi va undagi bosh g'oya shevalarning divergensiyasi va konvergensiysi natijasi o'laroq, ularning madaniy, iqtisodiy markaz atrofiga birlashishi hamda madaniy, xo'jalik va siyosiy jihatdan muhim bo'lgan til-dialektning shu hududda tarkib topishi, deb tushuntiradi¹⁰. Bunda atrof shevalarga ta'siri kuchli bo'lgan dialekt ko'zda tutilmoxda. A. Jo'rayev bu fikrni rivojlantirib, shunday xulosaga keladi: dialektal zona lingvoareal tizim bo'lib, unda turli tipdagi shevalar muayyan tarixiy, etnik va geografik aloqalar natijasida bir hududda birlashishidan tarkib topadi; dialektal zonaning tayanch (sinch - karkas)" shevasi shahar shevalari hisoblanadi; ijtimoiy-tarixiy maqomiga ko'ra, dialektal zonada o'ta muhim sheva yirik shahar shevasidir¹¹. Bu zonaning o'zagi (yadro) hududdagi shevalarga ta'sir etib turadi, shevalar markazdan uzoqlashgan sari uning ta'siri ham kamayib boradi. A. Jo'rayev uni *fokus nuqtasi* deb ataydi.

Fokus nuqtasi. Fokus nuqtasi yirik shahar shevasi bo'lib, atrof shevalarga doimiy ravishda o'z ta'sirini o'tkazib turadi va qayta aloqada bo'ladi hamda dialektal zonaning o'ziga xos rivojlanishini ta'minlaydi.

Fokus nuqtasi hisoblangan shahar shevalari fokus doirasining kengaya borishi natijasida uning ta'siri kuchsizlanadi, aksincha, shahar shevasiga yaqinlashgan sari shahar shevasining ustunligi kuchli bo'ladi. Buni Namangan fokus nuqtasi misolida ham ko'rish mumkin. "Namangan shahriga yaqinlashgan sari (qipchoq shevalari ko'zda tutilmoxda) "j"lashish yo'qolib boradi" (Дарвишов 2019:86), chunki Namangan shevasining atrof shevalarga ta'siri bor va masofa yiroqlashgan sari bu ta'sir kamaya boradi va, aksincha, masofa kamaygan sari ta'sir kuchayib boradi, bunda kontinuum hodisasini ko'rish mumkin bo'ladi (bu haqda alohida fikr yuritiladi).


¹⁰ Жирмунский В.М. Немецкая диалектология: ИАН. – М.-Л., 1956. – С. 636.

¹¹ Bu o'rinda *sheva* termini *dialekt* ma'nosida tushuniladi.

Bunday zonalarni belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o'zbek tili massivi (o'zbek tili tarqalgan hudud) geografik, dialektal farqlanishi, tarixiy-etnografik xususiyatlari, ma'lumotlari asosida uning shevalari guruhlashtiriladi. Bunga yaqqol misol sifatida Xorazm dialektal zonasini keltirish mumkin. Bu zona uchun Urganch-Xiva shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajaradi. U Turkmanistonning Toshhovuz va Qoraqalpog'istonning o'zbeklari tiliga va qoraqalpoq tiliga ta'sir kuchini ko'rsatadi. Janubiy g'arbiy dialektal zona O'zbekiston va Qirg'iziston hududida joylashgan va bu zona uchun Andijon va O'sh shevalari fokus nuqtasi vazifasini bajaradi. Bu shahar shevalarining ham zonadagi til va shevalarga ta'siri kuchlidir.

Ayrim dialektal zonalar uchun ikki, hatto uch markaz tayin qilingan. Garchand bu usul asoslangan bo'lmasa-da, unda bir fokus nuqtasining ikkinchisiga nisbatan ustunlik va zaiflik qilishi fahmlanishi yoki shahar shevasi xususiyati hamda uning savdo-iqtisodiy markaz ekanligi ahamiyatlidir. Janubiy Qozog'iston dialektal zonasini uchun Chimkent-Turkiston fokus nuqtasi, Janubiy-g'arbiy dialektal zona uchun Qo'qon-Marg'ilon-Farg'ona fokus nuqtalarining belgilanishi yuqoridaq tamoyillar asosida amalga oshirilgan. Shuningdek, fokus nuqtasini belgilashda har ikkala yoki uch shahar shevasi umumiyligi xususiyatlarining ko'pligi va farqli xususiyatlarining kamligi hisobga olinadi va ular shu mikro maydonda atrof shevalarga ta'sir etib turadi. Urganch-Xiva, Shahrisabz-Kitob shahar shevalari ham shunday qiymatli shevalardir. Shu asosda A. Jo'rayev o'zbek tilining 11 dialektal zonasini belgilagan.

Fokus nuqtasi va doirasini quyidagicha ko'rsatish mumkin bo'ladi (3-rasm).



3-rasm

Takrorlash uchun savollar:

1. Fokus nuqtasi nima?
2. Til zonasi qanday aniqlanadi?
3. Dialektal zonada fokus nuqtasi vazifasini qanday sheva bajaradi?
4. Til zonasi va dialektal zonaning farqi nimada?

19-mavzu. Tillar oilasi va zona

Reja

1. Til va dialektal zona.
2. Tillar oilasi.
3. Tillarning sotsiolingvistik xususiyatlariga ko‘ra tasnifi.
4. Tillarning struktur xususiyatlariga ko‘ra tasnifi.

Tayanch tushunchalar: *til zonasi, dialektal zona, til oilasi, sotsiolingvistik aspekt, struktur aspekt.*

Matn

Til va dialektlarni zonalashtirish masalasi sistematika, klaster tushunchasi bilan bog‘langan.

Til zonasi bir hududda bir necha klaster, idiomlarning yoki qarindosh bo‘lmagan tillarning fokus nuqtasiga ko‘ra joylashishini anglatadi. Bu tushunchalar jahon tillarining qit’alar va ularning qismlari hududlarida joylashishlarini ifoda qiladi va til zonasini belgilashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda Osiyo tillari, Yevropa tillari, Afrika tillari kabi tushunchalarni yuzaga chiqaradi.

Tillar oilasi esa boshqa tushuncha bo‘lib, u qarindosh tillarning bir hududda va bir necha hududda tarqalganligini ularning kelib chiqishi yoki til tiplari jihatidan guruhshtiradi. Tillarning oilasini belgilash uchun ularning qarindoshligini aniqlash metodikasidan foydalilanadi. Tillar oilasi va alohida olingan til yaxlit hududga ega bo‘lishi ham mumkin. Masalan, tukiy tillar oilasi Osiyo, Yevropa qit’alariga joylashgan va bu holatni yaxlit hududni egallagan deb talqin qilinadi, chunki u kartada yaxlit hududni ishg‘ol qiladi. Hozirgi davrdagi millatlar migratsiyasi muayyan til oilasi vakillarining turli qit’alarda joylashishlari bu tushunchaga va

o‘lchovlarga daxli yo‘q, ya’ni ular muayyan til oilasiga mansub bo‘lib qola beradi.

Tillar oilasi til zonasini tashkil etishda ishtirok etishi mumkin. Masalan, o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz tillari zonalari turkiy tillar ichida faoliyatda bo‘lsa, turkiy tillarning ayrim oilalari rus tili zonasida joylashgan. Masalan, tatar boshqird, chuvash, oltoy tillari rus tili zonasida joylashgan. Demak, til zonasini til oilasi ichida, aksincha, tillar oilasi zona ichida ham bo‘lishi mumkin.

Dialektal zona bir hududda turli lahjalarga oid dialekt va shevalarning fokus nuqtasiga ko‘ra joylashishidir. Masalan, shimoliy o‘zbek shevalari o‘zbek tilida bo‘lgan har uchala lahjaga xos shevalarni qamrab olgan, lekin u bir dialektal zonani tashkil etadi. Zona tushunchasi qarindosh shevalarni ham, qarindosh bo‘lmagan shevalarni ham qamrab olishi jihatidan tillar oilasi tushunchasidan farqlanadi, ya’ni tillar oilasi qarindosh bo‘lmagan til zonasini qamrab ololmaydi.

Zona faqat hududiy umumiylikni bildiradi. Bu masala umumiylilik shuningdek, to‘liq o‘rganilmagan. A. Jo‘rayev o‘zbek tili massivi misolida uning tamoyillarini belgilashga muvaffaq bo‘lgan. Ular quyidagilar:

1. *Dialektal zonaning murakkabligi*. U dialektal zona bir sheva emas, balki bir necha shevadan tashkil topadi. Atrof shevalar aralashadi. Turkiy va turkiy bo‘lmagan tillar bilan asrlar davomida munosabatda bo‘ladi.

2. *Dialektal zonaning bir butunligi*. Dialektal zonadagi teng qiymatli (masalan, qarluq, qipchoq) shevalarning fokus nuqtasiga tomon intilishi kuchli bo‘ladi va natijada bu shevaga o‘xshash xususiyatlari ko‘payadi. Buni Toshkent shahar shevasining fokus nuqtasi sifatida shaharga ko‘chib kelganlar shevasini o‘ziga singdira borishi va yirik madaniy markaz sifatida atrof shevalarning markazga intilish dinamikasida ko‘rish mumkin.

3. *Dialektal zonaning tizimliligi*. Bunda dialektal zonadagi turli tipdagisi shevalarning ko‘p yillardan beri fokus nuqtasi doirasida o‘zaroborligi nazarda tutiladi.

Til va dialektal zonalarda *qarindosh til (idiom) yoki dialekt masalasi* muammo bo‘ladi. Axborot tizimlarida ta’kidlanishicha, bunday vaziyatda o‘xshashlik 92-96% ni tashkil etsa, ularni dialekt

deb hisoblash lozim. Qarindosh til yoki dialekt muammosi turkiy tillar va uning shevalari masalasidagi munozarada ham ko‘rinadi. Taniqli turk tilshunosi Tal’at Tekin “Sovet Rossiyasida urushdan keyingi yillarda turkologik tadqiqotlar” maqolasidagi (“Türk dili araştırmaları yilligi belleten”, Anqara, 1959) bir ma’lumotni keltiradi. Unda tilning tushunarilik va tushunarli emasligini asos qilib olib, Tal’at Tekin hozirgi turkiy tillarning har birini turk (Turkiyadagi) tilining bir lahjasi deb qaraydi. Bunday qarash hozir ham turk tilshunosligida davom etmoqda. Ma’lumki, bu masala turkologiyada kun tartibidan olib tashlangan, ya’ni turkiy tillar lahja emas, balki qarindosh tillar ekanligi munozara qilinmaydi.

Til va dialektni farqlashda fanda *sotsiolingvistik* va *struktur me’yorlarga* asoslaniladi.

Sotsiolingvistik me’yorga ko‘ra, idiomlar (qarindosh til) mustaqil til bo‘lishi uchun:

1. O‘z mustaqil yozuv standartiga ega bo‘lishi lozim. Idiom bo‘lishi uchun mustaqil tanlangan va tilning barcha ko‘rinishlariga (sheva, dialekt, lahja) mos keladigan yozuv madaniyatiga ega bo‘lishi tushuniladi. Demak, mustaqil yozuv tizimiga ega bo‘lib, u adabiy tilning me’yoriy qoidalarini aks ettirgan bo‘lishi lozim.

2. Turli sohalarda yozma va og‘zaki muloqotning amal qilishi e’tiborga olinadi, ya’ni mustaqil tanlangan yozuvda fikrlarini erkin ifodalay olishi hamda o‘z tilida ham o‘z his-tuyg‘ularini, fikrini bildira olishi lozim.

3. Funksional jihatdan mukammal bo‘lishi lozim. Bunda xalq hayotining turli sohalarida til imkoniyatlaridan erkin foydalana olishi ko‘zda tutiladi.

Struktura me’yorlariga ko‘ra:

1. Fonetik va grammatik qonun va qoidalar yagona bo‘lishi lozim. Leksikaga bunday talabni qat’iy qo‘yish mumkin emas, demak, uning nisbatan o‘zgaruvchanligi e’tiborga olinadi;

2. Asosiy lug‘at tarkibi idiom a’zolarining barchasiga tushunarli bo‘lishi;

3. Idiom tarkibidagi lahja, dialekt va shevalar barcha uchun tushunishga oson bo‘lishi lozim.

Til oilalarini belgilash va tilning innovatsion markazini aniqlash jihatidan tillarning tasnifi yaratiladi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Til zonasasi va tillar oilasi ayirmasini tushuntirib bering.
2. Yaxlit hudud tushunchasini til zonasiga ham, tillar oilasiga ham tatbiq etish mumkinmi?
3. Tillar oilasi va til (dialektal) zona nimasi bilan farqlanadi?
4. Til zonasasi va dialektal zonani farqlashning qanday me'yorlari bor?
5. Qarindosh til va dialektning farqlanishi me'yorlarini tavsiflab bering.

20-mavzu. O'zbek tilining dialektal zonalari

Reja

- 1.O'zbek tili massivi tushunchasi.
- 2.Dialektal zona va azona (a+zona) tushunchasi.
- 3.Dialektal zonalar tavsifi.

Tayanch tushunchalar: o'zbek tili massivi, dialektal zona, azona (a+zona), zonalashtirish, qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjaları.

Matn

O'zbek tili massivi shu tilning dialektal zonalri joylashadigan yaxlit hududdir. Shuningdek, o'zbek tili massivi turkiy lingvistik hududning tarkibiy qismini ham anglatadi. Dialektal zona o'zbek tili massivining taksonomik bo'lagi hisoblanadi. Bu massivdagagi yirik shahar shevalarining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagagi mavqeysi ularning shevalarini fokus nuqtasi sifatida rasmiy lashtirishga asos bo'ladi. Shu asosga binoan, o'zbek tilining quyidagi dialektal zonalari belgilanadi:

1. *Janubiy-sharqiy Farg'on'a dialektal zonasasi.*¹² Bu Andijon viloyati va Qirg'izistonning O'sh viloyatini ishg'ol qiladi. Fokus nuqtasi - Andijon shahri va O'sh (qarluq) shevasi. Bu zonaga qarluq tipidagi shevalardan tashqari saroy, qipchoq-qoraqalpoq, turk-nayman tipidagi qipchoq shevalari hamda qipchoq va qarluq shevalari o'rta sidagi oraliq shevalari ham taalluqli. Bu zonada o'zbek va qirg'iz tillarining, shuningdek, o'zbek, uyg'ur va tojik tillari aloqalari bor.

¹² Bu o'rinda Farg'on'a vodiysi ko'zda tutiladi.

2. *Shimoliy Farg'ona dialektal zonasasi*. Bu zona Namangan viloyatini egallagan. Fokus nuqtasi - Namangan umlautli qarluq shevasi. Bu qarluq zonasiga qipchoq-qoraqalpoq shevasi, qipchoq va qarluq oraliq shevalari ham taalluqli, shuningdek, shimoliy-g'arbiy, janubiy-g'arbiy chegaralarda o'zbek va tojik tillari aralashuvi sodir bo'lgan.

3. *Janubiy-g'arbiy Farg'ona dialektal zonasasi*. U Farg'ona viloyati hududida joylashgan. Uning fokus nuqtalari Qo'qon, Marg'ilon va Farg'ona qarluq shevalaridir. Bu zonaga qarluq tipidagi shevalar bilan birga, qipchoq shevalari hamda o'zbek va tojik tillarining oraliq shevalari ham kiradi.

4. *Toshkent dialektal zonasasi*. U Toshkent viloyati hududida joylashgan. Uning fokus nuqtasi Toshkent shahar (qarluq) dialektidir. Bu zonada ham qarluq va qipchoq tipidagi shevalar aloqasi mavjud. Shuningdek, o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik ikki til aloqalari ham zonaning o'ziga xosligini ta'minlaydi.

5. *Janubiy Qozog'iston dialektal zonasasi*. U Qozog'istonning Turkiston (sobiq Janubiy Qozog'iston) viloyatida joylashgan. Uning fokus nuqtasi Chimkent va Turkiston qarluq shevalaridir. Bu fokus doirasida qarluq, qipchoq, o'g'uz shevalari aralashgan. Bu zonada qozoq va o'zbek tillarining intensiv aloqalari davom etmoqda va kuchaymoqda ham.

6. *Xorazm dialektal zonasasi*. U O'zbekistonning Xorazm viloyati, Qoraqalpog'stonning janubi, Turkmanistonning Toshhovuz viloyati hududlarini ishg'ol qiladi. Zonaning fokus nuqtalari - Urganch va Xiva o'g'uz shevalari. Bu zonada o'zbek-qoraqalpoq, o'zbek-turkman tillari aloqasi davom etadi. Shuningdek, o'zbek-qozoq tillari ta'sirlari ham mavjud.

7. *Buxoro dialektal zonasasi*. U Buxoro viloyati hududini egallaydi. Uning fokus nuqtasi - ikki tilli Buxoro shevasi. Bu fokus nuqtasi doirasiga qarluq, qipchoq, o'g'uz shevalari va ular ishtirokida hosil bo'lgan oraliq shevalari ham kiradi. Bu zonaning markaziy qismida o'zbek va tojik tillarining tarixiy o'zaro aloqasi, shimoliy zonalarida o'zbek va qozoq, janubiy-g'arbiy zonalarida o'zbek va turkman tillari aloqalari qayd qilinadi. Shuningdek, mutaxassislar viloyatning ayrim nuqtalarida o'zbek, tojik, arab tillarining o'zaro ta'siri borligini uqtiradilar.

8. *Samarqand dialektal zonası*. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, bu zona Samarqand viloyatida joylashgan. Fokus nuqtasi – ikki tilli Samarqand shahar shevasi. Uning tarmog‘i sifatida qarluq va qipchoq shevalari hamda ular ishtirokida hosil bo‘lgan oraliq shevalari kiradi. Uning markaziy qismida tarixan shakllangan o‘zbek-tojik tillarining o‘zaro ta’siri kuzatiladi.

9. *Yuqori Qashqadaryo dialektal zonası*. Bu zona Qashqadaryoning sharqiy qismida joylashgan. Fokus nuqtasi Shahrисабз va Kitob qarluq shevalaridir. Unga qarluq va qipchoq shevalari taalluqli bo‘lib, ularning aralashuvidan hosil bo‘lgan oraliq shevalarni ham bu zona qamrab oladi. Viloyatning sharqiy zonasida o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro aloqasi mavjud.

10. *Quyi Qashqadaryo dialektal zonası*. U Qashqadaryoning g‘arbiy qismlarini qamrab oladi. Uning fokus nuqtasi - qarluq Qarshi shevasi. Bu nuqta doirasiga qarluq va qipchoq tipidagi shevalar va ularning aralashuvi natijasida hosil bo‘lgan oraliq shevalari kiradi. Bu zonada ham o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro aloqasi bor. Mutaxassislar bu zonaning ayrim nuqtalarida o‘zbek va arab tillarining o‘zaro ta’sirini kuzatadilar. Bunga sabab qilib Qarshi, Koson tumanlaridagi arab qishloqlari tilini ko‘rsatadilar.

11. *Surxondaryo dialektal zonası*. Bu zona Surxondaryo viloyatida joylashgan bo‘lib, uning fokus nuqtasi Termiz shahar shevasidir. Uning doirasiga qarluq va qipchoq shevalari hamda ular orasidagi oraliq shevalar ham kiradi. Uning shimoliy qismida o‘zbek va tojik tillarining intensiv munosabati kuzatiladi.

Fokus nuqtalari kuchli, nisbatan kuchli va kuchsiz guruhlarga ham ajratiladi:

kuchli fokus nuqtalari: Andijon, Namangan, Qo‘qon, Buxoro, Samarqand, Xiva-Urganch, Toshkent dialektlari;

nisbatan kuchli fokus nuqtalari: Marg‘ilon-Farg‘ona, Qarshi, Shahrисабз-Kitob dialektlari;

kuchsiz fokus nuqtalari: Turkiston-Chimkent, O‘sh, Termiz shevalari. Bu kuchsiz fokus nuqtali zonalardan Janubiy Qozog‘iston, Surxondaryo dialektal zonalarini taksonomik xususiyatlariiga ko‘ra azonal (zona hosil qilmaydigan) hududlarga ancha yaqin turadi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Til massivi tushunchasini izohlang.

- 2.Dialektal zona va fokus nuqtasi tushunchasiga tavsif bering.
- 3.Kuchli va kuchsiz fokus nuqtasi nimani anglatadi?
- 4.Dialektal zonalarning har biriga tavsif bering.

21-mavzu. O‘zbek tilining azonal hududlari

Reja

- 1.Zona va azona (a+zona) tushunchasi.
- 2.O‘zbek tili massividagi azonal hududlar.
- 3.O‘zbek tili dialektal zonalarning A. Shermatov varianti to‘g‘risida.

Tayanch tushunchalarini: o‘zbek tili massivi, dialektal zona, azona, zonalashtirish, qipchoq, qarluq, o‘g‘uz lajhalarini.

Matn

Dialektal zonalar tarixan shakllangan o‘zbek tilining shu massivdagi taksonomik xususiyatidir. O‘zbek tilidagi shevalarning barchasi ham birorta dialektal zonaga mansub bo‘la bermaydi, chunki bunday shevalar uchun siyosiy, madaniy va iqtisodiy tayanch bo‘ladigan yirik dialektni mansubligini ijtimoiy hayotda belgilab bo‘lmaydi, u hududda boshqa shevalarga ta’sir ko‘rsatadigan shahar dialekti yo‘q. Boshqacha aytganda, azonal hududda fokus nuqtasi bo‘la oladigan dialektni belgilash imkoniyati yo‘qligidan dialektal zonani o‘rnatish mumkin emas.

Ilmiy tadqiqotlarda azonal (a+zona) dialektal hududlar to‘g‘risida ham ma’lumotlar beriladi. Azonal hududlar ham til massiviga tegishli bo‘ladi. O‘zbek tili tarqalgan massivlarda (mavzelarda) quyidagi **azonal hududlar** ko‘rsatiladi:

1. Sirdaryo-Jizzax azonal hududi. U Toshkent va Samarcand dialektal zonasini orasida joylashgan bo‘lib, asosan, qipchoq va qarluq shevalarini qamrab oladi. Shuningdek, o‘g‘uz lajhasiغا oid Forish shevasini ham o‘z tasarrufiga olgan. Bu regiondagi Guliston, Sirdaryo, Jizzax shaharlari dialektlari fokus nuqtasi vazifasini bajarishga qodir emas, chunki ularning atrof shevalarga ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q. Bu hududga o‘zbek, tojik, qozoq tillari aralashuvidagi oraliq shevalari ham kiradi.

2. Chorjo'y azonal hududi. U Buxoroning janubiy-g'arbiy chegaralarida va qisman Turkmanistonning Chorjo'y viloyatini egallagan. Bu zonadan o'zbek o'g'uz shevalari va Buxorodan ko'chib borganlarning ikki tilli shevalari va Chorjo'y turkman tili o'rini olgan. Adabiyotlarda bu hududning ilmiy jihatdan o'rganilmaganligi aytildi, lekin bu ma'lumotni to'ldirish mumkin, ya'ni Buxoro o'g'uz shevalari keyingi davrda tadqiqot obyekti bo'lgan.

Bu hududni o'zbek tili massivi dialektal zonasidan chiqarish ham mumkin, chunki u endilikda turkman tili massivi sifatida qaralishi lozim.

3. Shimoliy Qoraqalpog'iston azonal hududi. Xorazm dialektal zonasining shimoliy-g'arbiy tarafida joylashgan. Qoraqalpog'istonning shimoliy qismlarini egallagan. Bu hududni o'zbek tilining o'g'uz-qipchoq shevalari tashkil etadi. Keyingi davrda bu hududga Xorazm dialektal zonasining ta'siri kuchaygan.

4. Uchquduq-Zarafshon azonal hududi. Buxoro dialektal zonasining shimolida joylashgan. Bu yerda qarluq, qipchoq shevalari va o'zbek-tojik ikki tilli (Buxoro va Navoiy viloyatidan ko'chib kelgan) shaxslar shevasi tashkil etadi. Bu shevalar o'rganilgan emas va shu tufayli ham bu hududda biror sheva ustunligi haqida ma'lumotlar yo'q. Shuningdek, bu hududda qarluq, qipchoq va og'uz lahjalari vakillarining aralash yashashi natijasida shevalar rang-barangligi ham bor.

5. Xo'jand-Ko'lob-Qo'rg'ontepaz azonal hududi. Nomidan ko'rinish turganidek, u Tojikistonning uch viloyatida joylashgan. Bu hududni qarluq va qipchoq shevalari tashkil etadi. Ular hudud ichida aralashib ham ketgan. Shuningdek, tojik va o'zbek tillarining o'zaro ta'siri ham bor.

6. Olabuqa-Oqtom-To'xtag'ul (Qirg'iziston) azonal hududi. Bu yerda qarluq shevasining qirg'iz tili bilan kuchli aloqasi mavjud. Bu sheva qisman o'rganilgan.

7. Taroz (Jambul, Qozog'iston) azonal hududi. Bu hududda kam sonli qarluq va qipchoq shevasi vakillari yashaydi va tor lokal areal maqomiga ega. Demak, bu hudud dialektal zona maqomiga da'vogarlik qila olmaydi. Bu sheva bo'yicha maxsus tadqiqot ishi olib borilishi zarur bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, dialektal zona va azonal hudud bir-biridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi, ya'ni yuqorida ta'kidlanganidek, dialektal zonalar o'ziga xos markazga (fokus nuqtasi) ega bo'ladi va shu zonaning barcha aloqalari tiziini uchun ham markaz vazifasini bajaradi, til (dialekt) ustunligi, iqtisodiy, madaniy va siyosiy markazligi e'tiborga olinadi. Azonal hududda bunday ijtimoiy munosabatlar amalga oshmaydi.

O'zbek shevalarini zonalashtirish harakati avval ham bo'lgan, jumladan, dialektolog A.Shermatov o'zbek shevalarining 4ta dialektal zonasini farqlaydi: 1) qarluq dialekt(al) zonasi; 2) qipchoq dialekt(al) zonasi; 3) o'g'uz dialekt(al) zonasi; 4) har xil dialek(al) zona.¹³ Bu tasnifda dastlabki uchtasi dialektologik tushunchalarning lajha paradigmasiga aloqadorligi ma'lum, lekin 4-zona to'g'risida ma'lumot berilmaydi.

Bu lajhalarining ba'zi areal tavsifi V.V. Reshetov tomonidan amalga oshirilgan, lekin u ushbu lajhalarining tarqalishi va qarindosh tillarga yaqinligi masalalariga to'xtalgan bo'lsa-da, ularning alohida zonalarni tashkil etishi to'g'risida fikr yuritmaydi¹⁴. Albatta, bu tasnif til va dialektlarni zonalashtirish tamoyillariga mos kelmas edi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Azonal hudud tushunchasini izohlang.
2. Azonal hududlarga xos bo'lgan xususiyatni izohlang.
- 3 A. Jo'rayev qaysi dialektal azonalarni belgilaydi?
4. Nima uchun A.Shermatov tasnifini dialektal zona deb yuritish mumkin emas?

22-mavzu. Lingvistik geografiya. Lingvistik karta va atlas

Reja

1. Lingvistik geografiya va areal lingvistika.

2. Lingvistik geografiya - areal lingvistikaning bir metodi.

3. Lingvistik karta va lingvistik atlas.

Tayanch tushunchalar: lingvistik geografiya, lingvistik karta, lingvistik atlas, masshtab, landshaft, kontur karta.

¹³ Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 45.

¹⁴ Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. -№ 1.

Matn

Lingvistik geografiya areal lingvistikaning bir bo'limi. Lingvistik geografiyaga shunday izoh berish mumkin: lingvistik geografiya til va sheva hodisalarining tarqalishi va ularning turli hududlarga joylashganligini kartalashtirish ishi bilan shug'ullanadigan areal lingvistikaning bo'limidir. Uning asosiy vazifasi lingvistik kartalarni tuzish ishi bilan shug'ullanishdir. Lingvistik geografiya har bir til va shevaning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik aspektlarining turli hududlarga tarqalishini maxsus belgilar – izoglossalar orqali o'rghanadi. ularning ko'lami lingvistik kartalar yoki atlasning xususiyati va hajmiga bog'liq bo'ladi. Ayrim atlaslar faqat leksikani, ayrimlari tilning boshqa sathlariga xos hodisalarini aks ettiradi, ularning atlaslardagi zonalari belgilangach, bu zonalarning xususiyatlari talqini amalga oshiriladi.

Lingvistik geografiya har bir til va dialekt haqida, uning madaniy, tarixiy xususiyatlari, o'ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug'ullanadigan xodimlar, mutaxassislarini keng tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, avvalo, o'rganilayotgan til / sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo'ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarining tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanланади ва бо'yash texnikasi ishlab chiqiladi. Masshtab belgilab olinadi.

Lingvistik geografiya areal lingvistika metodlaridan biridir. Tillar va shevalar, shu jumladan, o'zbek shevalari keyingi davrlarga qadar tavsifyi, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy metodlarda o'rganib kelindi. Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy metod sifatida keng qo'llanmoqda. Ularning yutuqlari va o'ziga xos kamchiliklari bor. Keyingi davrda til va dialektlarni areal lingvistik o'rganish bilan bog'liq ravishda har bir shevaning o'z xususiyatini kartada belgilash, uning yondosh tillar bilan o'zaro ta'sirini aniqlash va hududdagi tillar hamda adabiy tilning ta'sirini farqlash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu lingvistik geografiya metodi asosida amalga oshirildi.

Til va shevalarni lingvistik geografiya metodida o'rganish til tarixi, xalq tarixi uchun ahamiyatli bo'lib, undagi aksariyat munozarali va muhim muammolarni, ayrim dialektologik faktlarning haqiqiy baholarini belgilashda yordam beradi. A.Shermatov bu masalada quyidagi faktlarni keltiradi: o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydigan *o'g'loq (uloq)*, *tavar (mol)*, *kirpitch (g'isht)*, *oya (idish)* kabi so'zlar shevalarda va qo'shni turkiy tillarda hamon qo'llanayotir. Til tarixidagi bu kabi so'zlarning ma'nosini hozirgi shevalarimizdan va yondosh tillardan qidirish mumkin. Bu xususiyatlar kartalarga joylashtirilganda va ular orasiga chiziqlar tortilganda ularning shevalararo yoki tillararo (bu o'rinda turkiy tillar) qo'llanishi ravshanlashadi.

Lingvistik kartalashtirish metodining keng qo'llanishiga XIX asrda til va dialektlar orasida chegaralarning bor-yo'qligi haqidagi munozaralar sabab bo'lgan. To'plangan materiallar til va shevalar oralig'idagi chegara chiziqlarining bir-biriga muvofiq kelmay qolganligini ko'rsatgan. Bu esa har bir til va sheva mustaqil hududiy birlikka ega bo'lmaydi degan xulosaga olib keldi. Bu munozara alohida til (sheva) faktlarini sistematik kartalashtirish orqali hal qilinishi mumkin edi. Shunday qilib, muayyan til hodisasiga bag'ishlangan lingvistik kartalar asosida lingvistik (dialektologik) atlaslar tuzish lozimligi ko'rsatildi. Lekin kartalashtirish shunchaki ish bo'lmay, u til, uning shevalari hududlarining tarixi va o'ziga xos xususiyatlarining manbalari hisoblanadi. Til faktlarining hududiy bo'linishi shu hudud til egalarining taqdiri, ularning tarixi, aholining o'tmishdagi madaniy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini aks ettiradi.

Fan sifatida lingvistik geografiyaning vazifalari til haqidagi axborotlarni kompleks o'rganishdan iboratdir.

Lingvistik karta va lingvistik atlas. Lingvistik karta - lingvistik geografiyaning quroli. *Lingvistik karta* til egalarining tarqalishi va joylashishi bian bog'liq ravishda ular tili va shevalarining tarqalishini, izoglossalarning geografik taqsimlanishini ifoda qiladi. Lingvistik kartalar jamlanmasi *lingvistik atlas* deyiladi. Linvistik atlas u yoki bu til hodisasini, ya'ni lingvistik landshaftni namoyon qiluvchi tizimlashtirilgan kartalardan iborat bo'ladi. Ular til taraqqiyotining ma'lum bir davrini aks ettiradi va yetarli faktlarl

asosida yaratiladi. Bunday atlaslarni yaratishga maxsus tayyorgarlik ko‘riladi va uning maqsadi belgilab olinadi. Masalan, J. Jilyeron va E.Edmontlarning “Atlas linguistique de la France” asarida leksik birliklar va sintaktik birikmalar aks ettirilgan. Lingvistik atlaslar yaratishdan avval uning materiallari quyidagi usullarda yig‘iladi:

bevosita aholi tilidan o‘z kuzatuvi orqali yig‘ib olinadi;
respondentlar materiallari;
maxsus tuzilgan dastur asosida.

Atlaslar izoglossalar to‘plami orqali shevalar hududini belgilab ham beradi. Atlas yaratuvchilar har bir shevada tayanch nuqta va ular periferiyasi bo‘lishini uqtiradilar. Izoglossalar shu xususiyatlarni ifoda qiladi hamda bular orqali shevalarning nisbiy chegaralari chizib beriladi.

Lingvistik atlaslar:

bir tilni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, “Belorus tilining leksik atlasi (Лексический атлас белорусского языка)” (1993-1998), “Arxangelsk shevasining leksik atlasi (Лексический атлас архангельских говоров)” (1994);

tillararo atlaslar ham tuzilgan: “Umumslavyan lingvistik atlasi (Общеславянский лингвистический атлас)” (1958-yilda boshlangan);

genetik jihatdan har xil bo‘lgan tillar bo‘yicha ham tuzilgan: “Umumkarpat dialektologik atlasi (Общекарпатский диалектологический атлас)” (1987-1994);

dunyo tillari bo‘yicha ham tuzilgan: Готфрид Хензель “Jahonning ilk lingvistik atlasi (Первый лингвистический атлас мира)” (1941). Bu atlas 50 til va 20 alifboda ranglar tanlangan holda ishlab chiqilgan.

Shuningdek, lingvistik atlaslarning yana quyidagi turlari ham bor:

tillar atlasi. U muayyan tillar va dialektlarni yalpi hududlarga ko‘ra tizimlashtiradi. Bunga “Kavkaz tillari atlasi (Атлас Кавказских языков)” (nashr yili ko‘rsatilmagan) asari misol bo‘la oladi;

etnik atlaslar. Unda aholining etnik tarkibi va shevalari tasvirga olinadi. Bunga “Yaqin Sharq Tubinger atlasi (Tübinger Atlas des Vorden Oriets)” (1977-1994) asari misol bo‘la oladi.

Lingvistik kartalarning *xususiy va umumiyy* turlari amalda bor. Bir izoglossaning tarqalishi ko‘rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy

lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini – izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bevosita o‘zini ham aks ettirish mumkin.

Landshaft. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning lingvistik atlasda joylashish (manzara) xususiyatidir (land – yer, scaft – o‘rin oti yasovchi affiks). Ular turli ranglar vositasida ko‘rsatiladi. Lingvistik landshaft dunyoning ko‘p tilli shaharlari yoki mintaqalarining jamoat joylarida turli tillarning namoyishi, jamoat binolaridagi yozuvlar, ko‘cha reklamalari, yo‘l belgilari va belgilar mavjud bo‘lgan tillarning nisbati sifatida tushuniladi.

Lingvistik landshaftlar sotsiolingvistikada 1970-yillarning oxiridan boshlab vaqtiga vaqt bilan o‘rganib kelinmoqda. Muhimi, lingvistik landshaft lingvistik geografiyaning o‘rganish obyekti bo‘lib qoldi, ya’ni u izoglossalarning joylashish estetikasi sifatida tushuniladi.

Masshtab. Til va sheva faktlarini kartalashtirishda masshtabdan foydalaniladi. Masshtab (nemischa Maßstab, so‘zma-so‘z “o‘lchov tayog‘i”) - umumiy holda ikkita chiziqli o‘lchamlarning nisbati. Bu termin geodeziya, kartografiya va dizaynda ko‘p qo‘llanadi.

Lingvistik atlislarda sheva yoki til hodisalari kompleks joylashtiriladi va ranglar vositasida jilo beriladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lib, u sheva yoki biror tilning tarqalish chegarasini ko‘rsatgan rangli kartalar yig‘indisidir.

Lingvistik geografiyada yana shunday tushunchalardan foydalaniladi:

izopragma. Kartalarda lingvistik hodisalarni – izoglossalarni ajratib turuvchi chiziqni anglatadi;

metakartlashtirish. Lingvistik areallarning bo‘laklarini belgilash va izohlash ma’nosini bildiradi.

Dunyo amaliyotida lingvistik atlasing klassik namunalari bor. Bular quyidagilar:

Venker G. Shimoliy va markaziy Germaniyaning dialektologik atlasi. 1881-yil. (6 karta).

Jilyeron J., Edmont E. Fransiya lingvistik atlasi. 1896 - 1908-yillar. Ularning asari “Atlas linguistique de la France” deb yuritiladi. 1896 – 1900-yillarda Edmont Fransiya, janubiy Belgiya va g‘arbiy

Shvetsariyaning 639 qishloq joylaridan 700 intervyu oлган hamda J.Jilyeron ishlab chiqqan 1500 predmetni o‘z ichiga oлган anketaga javob oлган. Javoblarni J.Jilyeron shogirdi bilan birga umumlashtirgan. J.Jilyeronning savolnomasi keyinchalik boshqa joylarda lingvistik (dialektal) geografiyaga qiziqishni orttirgan.

Vrede F. Nemis lingvistik atlasi. 1926 -1932-yillar (6 jild).

Yaberga K., Yuda I. Ular J.Jilyeronning shogirdlari bo‘lgan. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlasi. 1928-yil. Ular J.Jilyeronning shogirdlari bo‘lgan. Ular AQSh va Kanada, Angliya, Fors ko‘rfazi lingvistik atlaslarining yaratilishiga yordam ko‘rsatgan.

Bular ichida J.Jilyeron, E.Edmontlarning lingvistik atlasi keyingi davrda boshqa shu xildagi atlaslarning tuzilishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarining tarqalishini ko‘rsatish maqsadida ham yaratiladi.

Shuni aytish lozimki, lingvistik karta va atlaslarning yaratilishi ulkan yutuq hisoblanadi. Ular til va dialektlarni tavsiflashning yangi shakli bo‘lib dunyoga keldi. XX asrda lingvistik atlaslarni yaratish nazariyasi paydo bo‘ldi. Bunda tilning sistema ekanligi, kartalashtirish esa shu sistemaning unsurlari, predmeti bo‘ldi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Lingvistik geografiya va areal lingvistikaning bir – biriga munosabati to‘g‘risida nima deysiz?
2. Lingvistik geografiya metodini izohlab bering.
3. Lingvistik karta va lingvistik atlas tushunchasiga tavsif bering.
4. Yevropada kimlar tomonidan lingvistik atlas tuzilgan?

23-mavzu. Turkiy tillar lingvistik geografiyasining rivojlantirilishi

Reja

1. Turkiy tillar to‘g‘risida umumiylar ma’lumot.
2. Turkologiyada areal lingvistikaning o‘rganilish muammolari.
3. Turkiy areal lingvistik tadqiqotlari.

Tayanch tushunchalar: turkiy tillar, lingvistik geografiya, lingvistik hududlar.

Matn

Turkiy tillar hind-yevropa til oilasidan keyin dunyoning katta qismini egallagan tillar oilasidir. U Osiyo, Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo, Sharqiy Yevropaning katta hududlarini egallagan. Innovatsion markazi qadimgi turkiy tildir.

Qadimda innovatsion markazi hozirgi Mongoliya hududlariga borib taqladigan turkiy tillar quyidagicha joylashgan: 1) Sibirda yoqut, xakas, oltoy; 2) Markaziy Osiyoda qozoq, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq, turkman; 3) Kavkazda ozarbayjon; 4) Volgabo'yida tatar, boshqird, chuvash; 5) Qirimda qrim-tatarlar, gagauz, Ukraina va Belorusda qarayim; 6) Kichik Osiyoda turklar; 7) Xitoyda uyg'urlar va boshqalar. Bu ko'rsatilgan tillar shu nomda ataluvchi xalqlarning turg'un yashashlari asosida berilgan. Migratsion jarayonlarni ham hisobga oladigan bo'lsak, bu raqamlar oshib boradi.

Bu turkiy xalqlar tillari to'g'risida fanda ilmiy ma'lumotlar yetarlicha to'plangan va ular haqida dunyoda turkologiya degan fan yuzaga kelgan. Bunda turkiy tillar milliy va lingvistik nuqtayi nazardan o'rGANildi, ya'ni deyarli barcha turkiy tillarning sinxronik va diaxronik plandagi ilmiy va amaliy tadqiqotlari bor. Ma'lumki, bu tillar bundan yuz yillar yoki keyingi ellik yillar oldin qanday struktura va mazmun xususiyatiga ega bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketgani yo'q, balki ular o'zaro turkiy va turkiy bo'limgan tillar ta'siriga uchradi. Boshqa tillar bilan tutashgan hududlarda oraliq zonalarni ham tashkil etdi. Bu jarayondan holi turkiy tillarni uchratish qiyin. Ayniqsa, uyg'urlar tiliga xitoy tilining, Sibir xalqlari tiliga rus tilining, Markaziy Osiyo xalqlari tiliga rus, tojik tillarining u yoki bu darajada ta'siri bo'immoqda. Bu kabi jarayonlarni boshqa turkiy tillar taraqqiyotida ham ko'rish mumkin. Bu esa endilikda turkiy tillarni ayni zamonda areal lingvistika metodlarida o'rGANish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu davrda bir til ichida ham shevalarning aralashish jarayonlari yuz berdiki, uning natijasi o'laroq oraliq shevalar paydo bo'immoqda, bu esa o'z navbatida dialektal interferensiya masalalarini ham areal nuqtayi nazardan o'rGANish lozimligin ma'lum.

Shuni ta'kidlash joizki, bunday jarayonlar faqat turkiy tillar emas, balki dunyoning barcha hududlarida ham yuz bermoqda.

Ayniqsa, Shimoliy Amerika va Yevropa hamda boshqa qit'alar va mamlakatlardan migratsiyaning kuchayishi natijasida ular tiliga ba'zan kuchli, ba'zan kuchsiz ta'sirlarlar bo'layotir. Bular ayniqsa shaharlar dialektini jiddiy o'zgartirib yubormoqda.

Turkologiyada areal lingvistikating o'rganilishiga alohida e'tibor berilgan. 1972-yil Boku shahrida sobiq Ittifoq turkiy shevalarining atlasini yaratishga bag'ishlangan kengash bo'lib o'tgan va unda atlas yaratish uchun "savolnoma" tuzilib, ma'qullangan ham. Kengash turkiy tillar arealini o'rganishning 4ta hududini belgiladi:

1. Sibir hududi. Uning markazi etib Novosibirsk shahri belgilandi va bu markaz rahbarligiga Y. I. Ubryatova tayinlandi. Bu hudud yoqut, tuva, xakas, oltoy tillari chegaralaridan iborat qilib belgilandi.

2. O'rta Osiyo hududi. Uning markazi sifatida Toshkent shahri va rahbari etib Sh. Shoabdurahmonov belgilandi. Bu hududda o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur tillari o'rganish obyekti qilib belgilangan.

3. Volgabo'yи hududi. Markazi Qozon shahri va rahbari etib L.T. Maxmutova belgilandi. Bu hududga tatar, boshqird, chuvash tillari chegaralari kirgan.

4. Kavkaz hududi. Markazi Boku shahri va rahbarligiga M. Islomov tayinlandi. Bu hududga esa ozarboyjon, qorachoy, balqar, qumiq, no'g'oy, gagauz, qarayim tili chegaralari taalluqli deb belgilangan.

Kengashning bu qarori o'ta muhim tadbirni aks ettigan bo'lsada, u keyinchalik o'zining kutilgan samarasini bermadi. Bu borada rejali ishlar amalga oshirilmadi, lekin tarqoq holda bo'lsa ham, bu ilmiy tadqiqot bajarila boshlandi, boshqacha aytganda, areal tadqiqotlar u yoki bu darajada yo'lga qo'yildi.

Turkologlar tomonidan areal tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ishlar yuzaga kela boshladi. Bu borada V.M. Jirmunskiyning metodologik fikrlari muhim bo'ldi. U areal tadqiqotlar turkiy tillarning bir manbadan kelib chiqqanligi, keyinchalik ular mustaqil til sifatida shakllanganligi, har bir til mahalliy lahja, dialekt va shevalarga ajralganligi g'oyasiga asoslanilmasligi, balki har bir sheva, dialekt va lahjadagi

izoglossalarning tarqalishiga to‘xtalish lozimligini uqtiradi.¹⁵
N.A.Baskakov ham ushbu fikrda bo‘lgan.

Turkologiyada areal lingvistikaga murojaat qilinishining ayrim sabablariga yuqorida qisman to‘xtaldik. Areal lingvistikaning o‘rganilishi bir qator lingvistik muammolarning yechimi, kaliti vazifasini ham bajaradi:

tillarning areal tadqiqotlari muayyan darajada bir hududda qayd qilingan, lekin boshqa hududlarda faol qo‘llanadigan hodisalarning boshlanishi va oqimini aniqlashga imkoniyat tug‘diradi. U kelgusida yuz beradigan o‘zgarishlarga qanday yondashishni belgilab beradi, jumladan, o‘zbek tilining ayrim shevalaridagi desingarmonizatsiya, ya’ni palatal singarmonizmning yo‘qolishi tojik tilining ta’sirida tezlashgan, degan qarash mavjud. Aslida bu jarayonning taqdirini o‘zbek tilining ichki taraqqiyot qonuniyatlaridan qidirish lozim. Bunda asosiy sabab “a” unlisining so‘z bo‘g‘inlarida o‘z pozitsiyasini yo‘qotishi, ã unlisining paydo bo‘lishi kabi faktorlar muhim bo‘lgan;

areal tadqiqotlarning ustunligi qayd qilingan muayyan tovush, so‘z shakllari, so‘zlarning shakllanganligini ko‘z oldingizda ko‘rsatib turishidadir.

Turkiy tillarni areal o‘rganish natijasida ularga xos bir qator qonuniyatatlarni ochish mumkinligi adabiyotlarda qayd qilinmoqda, jumladan, turkiy tillardagi so‘zlarning qanday undosh tovush bilan boshlanishi areal o‘rganishda bunday pozitsiyada jarangsiz undoshning o‘rni turg‘un ekanligi, qadimgi turkiy tilda faqat jarangli “b” undoshigina so‘z boshida kelishi qayd qilingan, lekin ayrim turkiy tillarda (ozarbayjon, boshqird) va o‘zbek shevalarida (Turkiston, qirq) “b” o‘rnida “p” [putun-butun, pichim-bichim, pitim-bitim] saqlanib qoladi. Turk tilida so‘z boshida “p” (pazar) qo‘llanishi o‘zlashgan so‘zlarga ham xarakterlidir.

t-d mosligida ham jarangsizlik mavjudligi qayd qilinadi. To‘g‘ri, o‘zbek shevalarida har ikkala holat qo‘llanadi, qadimgi turkiy tilda jarangsiz undoshlarning qo‘llanishi norma hisoblanadi.

Turkiy tillarda so‘z urg‘usining o‘rganilishi so‘zning birinchi bo‘g‘inida unlilar turg‘unligini va ikkinchi bo‘g‘inidagi ayrim fonemalar o‘z pozitsiyasini yo‘qotishini aniqlashga asos bo‘lgan. Bu

¹⁵ Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание. – Ленинград: Наука, 1976. –С. 625.

fakt boshqa bir fonetik qonunni izohlashga imkoniyat bergen, ya’ni turkiy tillardagi urg‘uning birinchi bo‘g‘inga tushishi singarmonizm qonunida birinchi bo‘g‘inning yetakchiligi g‘oyasiga asos bo‘lgan (Ф.Е.Корш). Urg‘uning birinchi bo‘g‘in bilan bog‘liq bo‘lganligi ularning mongol tili bilan qarindoshligini assoslashga ham xizmat qilgan. Mashhur turkolog N.K. Dmitriyev mongol tilidagi birinchi bo‘g‘inda kelgan unli o‘z pozitsiyasini saqlashi va turkiy tilda keyingi bo‘g‘inlar esa pozitsiyasini yo‘qotishini misollarda ko‘rsatgan¹⁶:

<i>Mongol tilida</i>	<i>Turkiy tillarda</i>
<i>beki</i>	<i>bek, pek, bik (mahkam)</i>
<i>tune</i>	<i>tun, dun</i>
<i>nidurga</i>	<i>judrug (musht)</i>
<i>qutuq</i>	<i>qut</i>
<i>yežen</i>	<i>ädi (janob)</i>

Turkiy tillar tadqiqotlari va jahon tilshunoslik amaliyoti cho‘ziq unlilar to‘g‘risida munozarani davom ettirmoqda. Aksariyat tillarda cho‘ziq unlilar o‘rnini diftonglar egallamoqda, lekin har ikkala holat davom etayotgan tillar mavjud. Ularga hozirgi qipchoq tizimidagi tillar va o‘zbek tilining qipchoq lahjasiga oid shevalarni va o‘g‘uz lahjasini shevalarini kiritish mumkin. Demak, turkoglarning areal lingvistikaga murojaat qilishlari majburiyat bo‘lgan, bu esa til hodisalarining kelib chiqish nuqtalarini, oqibat natijada, tillardagi yaqinlik va farqlarning tarixini o‘rganish uchun katta ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Turkologiya bo‘yicha diqqatga sazovor tadqiqotlar sirasida N.Hojiyevaning “Turkiy areal lingvistika muammolari (Проблемы тюркской ареальной лингвистики” (Москва, 1975)” asarini keltirish mumkin. Bu asarda, avvalo, areal lingvistika til hodisalarining turli hudud chegaralarida tarqalishini hisobga olishi aytilgan, shuningdek, areal lingvistika oraliq chegaralardagi til hodisalarini o‘rganishi hamda bu interferensiyaga olib kelishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi.

¹⁶ Карапнг: Гаджиева Н. З. Ко‘rsatilgan asar. - С. 258

N.Z.Hojiyeva areal lingvistikada oraliq hodisalarning fanda kam o‘rganilganligi ular orasidagi aniq chegaralarni belgilash imkoniyatining pasaytirilishiga olib kelganligini asoslab berdi. Ayni zamonda u aralash dialektlarda oraliq hodisalarning (uningcha, *tebranish* (vibratsiya) bo‘lishi, ya’ni chegara zonalarda izoglossalarning davlat chegaralarini kesib o‘tishi tabiiy ekanligini uqtiradi. Jumladan, tatar va boshqird shevalarining ayrim zonalarda aralashib ketganligidan xabar beradi. Shuningdek, turkman va qoraqalpoq tillari kesishgan hududda jarangsiz undoshlarning jaranglashishi va jo‘nalish kelishigining -a affiksi bilan ifodalanishini oraliq hodisa sifatida ko‘rsatadi. Bu asarda turkiy tillardan qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman va o‘zbek tili oraliq hududlaridagi izoglossalarning tavsifi berilgan va qozoq-o‘zbek, qirg‘iz-o‘zbek, qoraqalpoq-o‘zbek hamda aksincha jarayonlardagi oraliq (tutash) hudud areallarining xususiyatlari, o‘zaro ta’sir masalalari yoritilgan, jumladan, qozoq tilidagi ə fonemasining a, e fonemalarga moslashishi, unlilarning qisqarishi, diftonglashishning xususiyatlari va boshqa fonetik jarayonlarning areal xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tilining ayrim fonemalari, fonetik qonuniyatları, morfologik xususiyatlarining tarqalish areallari tahlil qilingan. Bu tashabbusli ishda qator muvaffaqiyatli o‘rinlar borligini qayd qilgan holda, ayrim tasodifiy ma’lumotlarga urg‘u berilganini ham ko‘ramiz, jumladan, singarmonizmli shevalarda ə ulisining a unlisi o‘rnida qo‘llanishi va boshqa faktlarni uchratish mumkin. Ma’lumki, singarmonizmli shevalarda ə unlisi turg‘un fonema emas, balki ayrim his-hayajon bilan aytilgan o‘rnlardagina qayd qilinishi mumkin. Demak, uni shevaning assosiy fonemasi deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Turkiy tillarning jahon kartasida joylashuvini tavsiflang.
2. Qaysi turkiy davlatlarda lingvistik kartalar tuzilgan?
3. Turkologiyadagi qaysi muammolar lingvistik kartani tuzishda hal qilingan?
4. N.Z.Hojiyevaning areal lingvistikaga oid asari qanday nomlanadi?

24-mavzu. Kontinuum

Reja

1. Kontinuum tushunchasi.
2. Geografik dialektal kontinuum
3. Ijtimoiy dialektal kontinuum.
4. Kontinuumning uch sathi.

Tayanch tushunchalar: kontinuum, geografik dialektal kontinuum, ijtimoiy dialektal kontinuum.

Matn

Dunyo tillarining barchasida ham o‘z ichki shevalari bo‘ladi. Lekin hamma tillar ham o‘z ichida o‘zbek tili singari lajha, dialekt va shevalarga bo‘lina bermaydi. Turk tilida sheva (bizning tushunchamizda *dialekt*) va og‘iz (bizning tushunchamizda *sheva*) farqlanadi. Qozoq tilshunosligida *dialekt-govor* terminidan foydalilanadi va ko‘proq *govor* (bizning tushunchamizda *sheva*) terminiga murojaat qilinadi, u esa tilning kichik mahalliy ko‘rinishini anglatadi. Ayrim yirik hududlarga ega bo‘lgan tillarda (Xitoy) til va dialektni farqlash masalasi muammo bo‘lib kelmoqda.

Aksariyat tillardagi shevalarning xususiyatlari, tarqalishini belgilashda geografik jihatdan yondashiladi va ularda *shimoliy*, *sharqi*, *g‘arbiy* kabi terminlar qo‘llanadi. Bu an’ana qisman o‘zbek tilining dialektal bo‘linishida ham yevropaliklar tomonidan boshlangan va olimlarimiz tomonidan davom ettirilgan.


Ma‘lumki, qanday termin bilan atalmasin, biz *sheva* deb tushunadigan hodisa tarixiy kategoriya aloqador bo‘lib, uning murakkablashgan shakli keyinchalik turli tillarda turlicha taraqqiyotga yuz tutgan hamda dialektal tushunchalar pog‘onasida eng kichik mavqeni egallagan. Shu tufayli ham *dialektal kontinuum* shu tushuncha bilan bog‘lanadi.

Dialektal kontinuum (lotincha *continua to ‘xtovsiz, muhit degan ma’nolarni bildiradi*). Bu termin Chikago universiteti professori, struktur tilshunoslik vakili Leonard Blumfeld tomonidan kiritilgan.

Bir tizimdagi shevalarning kichik lingvistik xususiyatlari bilan farqlanishi adabiyotlarda kontinuum tushunchasi bilan ifoda etiladi. Bu jarayon uzoq yillarning mahsuli va nisbiy chegaralangan hudud bilan bog‘langan.

Bir dialekt tarkibidagi shevalarda o‘zaro bog‘langan, lekin kichik va muhim bo‘lgan farqlar bo‘ladi. Buni Toshkent shahar dialektiga mansub shevalar misolida ham ko‘rish mumkin. O‘zbek adabiy tilidagi *borsak* (I shaxs ko‘plikdagi shart-istik mayli) va *bordik* (I shaxs ko‘plikdagi o‘tgan zamon) fe’l shakllarining quyidagi fonetik farqlarda o‘ziga xos xususiyati namoyon bo‘ladi:

Toshkent shahar (tarixiy) shevalari kontinuumi



4-rasm

Beshyog‘och dahasida: *bärsämiz*, *bärdimiz*.

Xadra dahasida: *bärsovuz*, *bärduvuz*.

Eski Jo‘va dahasida: *bärso:vuzä*, *bärduvuzä* // *bärdu:z* // *bärduzä*.

Chorsu dahasida: *bärso://bärsok*, *bärdu(v)*. (Qarang: O‘zbek dialektologiyasi, 14)

Bunday kichik (nozik) farqlarni barcha dialektlar tarkibidagi shevalarda ham ko‘rish mumkin.

Adabiyotlarda dialektal kontinuumning ikki turi to‘g‘risida ma’lumot beriladi:

Geografik dialektal kontinuum. Bu *bir geografik hududda joylashgan shevalar* va kelib chiqishi umumiyligi bo‘lgan xalqlar shevalari doirasida belgilanadi. Bunga yuqoridagi – Toshkent dialekti tarkibidagi shevalarning kichik farqlar bilan ajralib turishi misol bo‘la oladi. Kontinuumning bu turida shevalar bir-biridan uzoqlashgan sari dastlabki shevadan tobora farqlari ortib boradi, pirovard natijada, dastlabki va eng so‘nggi sheva sezilarli farqlanib qolishi mumkin. Buni yuqoridagi Beshyog‘och va Chorsu shevasi misolida ham ko‘rish mumkin.

Kontinuum ayni bir lajhaga oid dialektlar shevalaridagi kichik farqlarni belgilash asosida yuzaga chiqadi. Bu jarayon qarindosh til va uning shevalari chegaralarida yuz berishi ham mumkin (bu haqda quyiroqda fikr yuritiladi). Bir hududda turli etnik guruhlarga tegishli shevalar aralashgan bo'lsa, unda kontinuum haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Kembrij universiteti e'lon qilgan darslikda geografik dialektal kontinuum shunday tushuntiriladi: "Dunyoning ko'plab joylari bor, agar biz qishloqdagi odamlarning shevalarini ko'rib chiqsak, biz quyidagi vaziyatni topamiz. Agar qishloqdan qishloqqa, ma'lum bir yo'nalishda harakatlanadigan bo'lsak, biz bir qishloqni boshqasidan ajratib turadigan lisoniy farqlarni sezamiz. Ba'zan bu farqlar kattaroq, ba'zida kamroq bo'ladi, ammo ular kumulativ (yig'ilgan, to'plangan) bo'ladi. Boshlang'ich nuqtadan qanchalik uzoqlashsak, farqlar shunchalik katta bo'ladi. Shunday qilib, buning samarasi, agar masofa yetarlicha katta bo'lsa (agar biz yo'nalishimiz bo'ylab qishloqlarni geografik tartibda joylashtirsak), A qishlog'idagi so'zlovchilar B va F qishlog'idagi odamlarni yaxshi tushunadilar, ular M qishlog'i nutqini faqat katta qiyinchilik bilan tushuna oladi va Z qishlog'i umuman tushunarli emas. Boshqa tomondan, M qishloq aholisi, ehtimol, F qishlog'i aholisi nutqini juda yaxshi tushunishadi hamda A va Z aholisi faqat katta qiyinchilik bilan tushunadilar. Boshqacha qilib aytganda, geografik hududning tashqi qirralaridagi shevalar o'zaro tushunarli bo'lmasligi mumkin, ammo ular o'zaro tushunarli zanjir bilan bog'lanadi.

Lingvistik farqlarning kumulativ (pog'ona-pog'ona) ta'siri shunday bo'ladiki, geografik bo'linish qanchalik katta bo'lsa, tushunish qiyinligi ham shunchalik katta bo'ladi. Vaziyatning bu turi *geografik dialektal uzlusizlik* deb nomlanadi. Bunday *uzlusizlik* (kontinua) juda ko'p. Masalan, Yevropada fransuz, italyan, kataloniya, ispan va portugallarning standartlari chindan ham o'zaro tushunarli emas. Biroq ushbu tillarning qishloq shevalari Portugaliya sohilidan Belgianing markazigacha cho'zilgan g'arbiy dialektal uzlusizligining bir qismini tashkil etadi.

Boshqa Yevropa dialektal uzlusizligiga:


G'arbiy Germaniya uzlusizligi kiradi, u odatda nemis, golland va flamand deb ataladigan barcha dialektlarni o'z ichiga oladi;

Norvegiya, shved va daniya shevalarini o‘z ichiga olgan skandinaviya shevasi uzlucksizligi;

rus, ukrain, polyak, chek va slovaklarni o‘z ichiga olgan shimoliy slavyan shevasi uzlucksizligi;

sloven, serb, xorvat, makedon va bolgar tillarini o‘z ichiga olgan janubiy slavyan uzlucksizligi.”¹⁷

Buni o‘zbek tiliga tatbiq etadigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rganimiz kabi bir dialekt ichidagi shevalarning biridan ikkinchisiga o‘tish yoki bir lahja ichidagi dialektlarning nisbatan yirikroq faktorlar bilan o‘xshashligi hamda bu faktorlarning tobora uzoqlashgan sari chekka dialektlar kishilarga tushunarli bo‘lmasligi bilan izohlash mumkin. Buni shunday tushuntirish mumkin: turkiy tillarda o‘g‘uz guruhi tillari geografik dialektal xususiyatiga ko‘ra bir kumulativ xarakterga ega bo‘lib, ular *turk* → *ozarbayjon* → *turkman* → o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi kontinuumini hosil qiladi, qipchoq kumulativ qo‘rg‘onida *qirg‘iz* → *qozoq* → *qoraqalpoq* tillari, qarluq kumulativ hududida o‘zbek → *uyg‘ur* geografik kontinuumi hosil bo‘ladi (5-rasm), lekin o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi bilan qirg‘iz, qirg‘iz bilan uyg‘ur tili geografik dialektal kontinuumda bo‘la olmaydi.



5-rasm

Ijtimoiy dialektal kontinuum. U siyosiy va uzoq tarixiy taqdir tufayli qarindosh bo‘limgan va qarindosh tillar orasida yuz berishi mumkin.

¹⁷ Chambers J.K., Peter Trudgill. Dialektology. - Cambridge Universitetu Press, 2004. – p 5.

Buni sotsiolingvistlar *pi(d)jin* (inglizchada *pidgin*) tili orqali tushuntiradilar. *Pi(d)jin* o‘ta soddalashtirilgan grammatik qurilishga ega bo‘ladi, lug‘at tarkibi ham 1500gacha so‘zdan iborat bo‘ladi. Aslida bu til ular uchun ona tili bo‘lmaydi.

Bu til o‘rtalarda Sharqiy O‘rtayer dengiziga kirgan mamlakatlarda yevropaliklar bilan savdo-sotiq munosabatlardida qo‘llangan, XVI asrda portugal, ispan, fransuz va ingliz tili asosiga qurilgan tilda gaplashganlar, *pi(d)jin* XVII asrda hindiyalar va amerikaliklar muomala vositasi bo‘lgan. Keyinchalik butun dunyoda keng tarqalgan.

Pi(d)jin kontakt tillardan biri hisoblangan. U til improvizatsiyasi bo‘lib, til umumiyligi bo‘laman jamoalarda qo‘llangan. *Pi(d)jin* borib-borib *kreol* tiliga aylanadi, ya’ni kreol tili *pi(d)jinning rivojlangan shakli* bo‘lib, pirovard natijada, ona tili bo‘lib qoladi va mustaqil til darajasiga yetadi. *Pi(d)jinning kreol tiliga aylanishi omillari:*

aralash oilalarning ko‘payishi;

plantatsiyada birga ishslash paytida *til-leksifikator dan foydalanishi*. Til-leksifikator – *pi(d)jinni shakllantirishda murojaat qilinadigan asos tillardan biri*, masalan, ingliz tili asosli *pi(d)jin*. Bunda ingliz tilining leksikasi tilning imkoniyatlarini belgilaydi. Ingliz tilidan boshqa yevropa tillaridan biri ham *pi(d)jin-kreol* tili til-leksifikatori vazifasini bajarishi mumkin.

V.D.Bondalatov *pi(d)jinni aralash tillarning bir turi* deb tavsiflaydi va turli tillardan foydalanadigan hududlarda muloqot ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan deb hisoblaydi. Shuningdek, bu tilni Janubiy Xitoyning ko‘p tilli portida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan deb hisoblaydi. Uning leksikasi inglizcha, lekin u fonetik, semantik jihatdan buzilganligini ta’kidlaydi, jumladan, *nusi-pepe* (kitob)ni *nues-paper* (gazeta)dan olingan, *maru* (ayol), *pi(d)jinda qushni* ifoda qiladi, grammatikasi esa xitoycha bo‘lgan deb ko‘rsatadi¹⁸.

Kreol tili soddalashgan grammatika, fonetika va orfografiyaga ega bo‘ladi va analitizm ustun bo‘ladi, ya’ni gapda so‘z shakli o‘zgarmaydi, balki grammatik aloqa so‘z tartibi, ko‘makchilar kabi analistik vositalarda amalga oshiriladi va keyinchalik aralash-kontakt til hosil qiladi. Bunga frans-hind tili - *michif*, Kanada *metislari* misol bo‘ladi.

¹⁸ Бондалатов В.Д. Социальная лингвистика. – Москва: Просвещение, 1987. – С. 58.

Kreol tili dastlab Amerikada qo'llandi va yevropaliklarning kolonizatsiya manfaatlariga mos kelar edi. Kreol tilining Osiyo, Afrika, Surinam variantlari ham bor. Kreol tilida asos til saqlanishi mumkin, lekin portugal kreol tili yo'qolmoqda.

Hozirgi kunda 60ga yaqin kreol tili bor. Ularning shakllanganiga 200 – 500 yillar bo'lgan. Hozirgi kunda bu tilda o'n million atrofida kishilar gaplashadi.

Kontinuumning bu turiga Kembrij universiteti darsligida Yamaykadagi kreol shevasi misol qilib ko'rsatiladi. Surinamda sranan tili ingliz tili asosiga qurilgan kreol (pi(d)jin) shevasi shakllanganki, yuqori tabaqa kishilari ingliz tilida gaplashsa, quyi tabaqa kishilari esa ingliz va kreol tili o'rtasidagi shevada gaplashganlar va shu bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan.

A.Nurmonov va A.Rahimovlar pi(d)jinlashuv va kreollashuv jarayonini sinergetika bilan bog'laydilar. Ular pi(d)jinlashuvning quyidagi shartlarini belgilaydi:

nisbatan kam sonli, lekin iqtisodiy jihatdan kuchli ijtimoiy guruhlardan tarkib topgan dominant etnosning (bosqinchi yoki mustamlakachi qatlam) mavjudligi;

dominant etnosga tobe (ular plantatsiyadagi yollanma ishchilar va xizmatkorlar, qullar bo'lishi mumkin) ikki yoki undan ortiq etnosning mavjudligi.

Pi(d)jinlashuv jarayonida dominant etnosning tili "asos til" hisoblanadi. U pi(d)jin tilining shakllanishi uchun leksika, fonetika va ayrim leksik birlıklarning grammaticalizatsiyalanishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Pi(d)jinlashuv murakkab sotsiolingvistik jarayon bo'lib, unda asos til tizimlari boshqa til vakillari tomonidan so'zlarni noto'g'ri ishlatalishi natijasida uning grammatick paradigmasi buziladi, oqibatda asos til soddalashadi, undan amaliyotda foydalanilmaganligi uchun cheklangan miqdordagi lug'atga asoslangan muloqot vositasiga aylanadi.

Kreollashuv jarajonida til yangi tipologik tizimga ega bo'ladi. Ikki va undan ortiq tillar o'zaro ta'sir etadi va yangi sifat bosqichiga o'tadi¹⁹.

¹⁹ Нурмонов А., Раҳимов А. Лингво-синергетикага кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – С. 71-72.

Axborot tizimlarida til kontinuumining 3 sathi to‘g‘risida ma’lumot beriladi:

1. Tilning yuqori bosqichi (akrolekt). Bu rasmiy til yoki adabiy tildir.

2. Tilning o‘rta bosqichi (mezolekt). Muayyan guruhning norasmiy muloqot tili, ya’ni so‘zlashuv tili (koyne)dir.

3. Tilning quyi bosqichi (bazilekt). Bu mahalliy shevalardir. Bu tasnif kontinuum ma’nosiga muvofiq keladi, chunki bu tushunchalar biridan ikkinchisiga bosqichma-bosqich o‘tiladigan lingvistik hodisalardir.

Aralash-kontakt tilni o‘zbek – tojik, o‘zbek – turkman, o‘zbek – qozoq, o‘zbek – qoraqalpoq xalqlari aralash va qo‘shti yashagan joylarda ham tatbiq etish mumkin.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Dialektal kontinuum nima?
2. Geografik dialektal kontinuumni qanday tushunish mumkin?
3. Geografik dialektal kontinuumga o‘zbek tilida misollar bormi?
4. “Dialektology” darsligida geografik dialektal kontinuumni qanday tushuntirishadi?
5. Ijtimoj dialektal kontinuumni qanday izohlaysiz?
6. Pi(d)jin va kreol tilining farqi nimada?
7. Kontinuumning uch sathi deganda nimani tushunasiz?

25-mavzu. Kontinuum zonalari

Reja

1. Kontinuumning markaziy, marginal, diffuz (oraliq) zonalari.
2. Diasistema.
3. Til kompleksi.

Tayanch tushunchalar: markaziy zona, marginal zona, diffuz zona, diasistema, til kompleksi.

Matn

Areal lingvistikada innovatsiyalarning paydo bo‘lishi, tarixiy rivojlanishi va tarqalishi yo‘nalishlarini, arxaizmlarning konservatsiyasi areallarini o‘rganishda ularning markazi, periferiyasi

va diffuz zonalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Bunda kontinuumning markaziy, marginal (atrof), diffuz (oraliq) zonalari tushunchalaridan foydalaniladi:

1. *Markaziy zona*. U innovatsion zona deb ham yuritiladi. Avvalgi mavzularimizdan ma'lumki, lingvistik kartalardagi izoglossalarning joylashuvi taksonlarning bir manba tomonga harakatini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu harakat ko'pgina til hodisalarini innovatsion markazga olib boradi. Boshqacha aytganda, izoglossalar biri ikkinchisiga pog'ona (kontinuum) vazifasini bajarib, biror tilga xos bo'lgan uning unsurini yoki tilning kelib chiqish nuqtasini aniqlash imkoniyatini beradi. Ma'lumki, turkiy tillarning innovatsion zonasasi oltoy tili ekanligini turkiy tillardagi umumiylilik asosida, ya'ni turkiy tillardagi umumiyligi va o'xshash izoglossalar tizimining tarqalishi (ekspansiyasi) oltoy tiliga olib boradi.

Buni til strukturasiga ham tatbiq etish mumkin. O'zbek tilining shahar va shahar tipidagi shevalari va uyg'ur tilidagi so'z boshida т va ё undoshlarining almashishi (tushdi - čüšdi) qarluq til guruhiiga mansub qiladi, qipchoq va qozoq tillaridagi harakat nomining -v affiksi bilan ifodalanishi (*baruv*, *aluv*, *körüv*) bu hodisani turkiy tillarning qipchoq guruhiiga tegishli ekanligini ko'rsatadi va h.k.

2. *Marginal zona*. U arxaik zona deb ham yuritiladi. Bu zonada izoglossalar yorqin ko'rinxmaydi yoki asosiy izoglossalardan yiroqroq (qochiqroq) joylashadi. Bu zona atrof (periferiya) zonasasi deb ham yuritiladi. Odatta innovatsion zonani aniqlashga xizmat qiladigan izoglossalar e'tiborga olinadi. Shu bilan birga, izoglossalar atrof qurshovida bo'ladi. Bu qurshovdagi izoglossalar til tarixiga tegishli deb qaraladi. Shuning uchun ham u arxaik zona nomini oladi. Bunga fonematik tizimda i fonemasini izoglossa sifatida belgilaydigan bo'lsak, uning i, ī, i:, ī: vajantlarini periferiyasi sifatida qaraymiz, chunki ular tarixan qadimiyoqdir. *-lär* affiksining arxivariantini izoglossa sifatida belgilasak, uning *-lar*, *-la*, *-lär*, *-lä*, *-nar*, *-när* kabi variantlari arxaik zonaga aloqador bo'ladi. O'zbek adabiy tilini turkiy tillardan biri sifatida bir izoglossa (takson) deb qaraladigan bo'lsa, uning lahjalari arxaik zona hisoblanadi va h.k.

3. *Diffuz yoki oraliq zona*. Bu hodisani tebranish (*vibratsiya*) termini bilan yuritish ham keng tarqalgan. Diffuz zona tushunchasini har tomonlama izohlash mumkin. O'zbek tilining singarmonizmli

shevalarida **a** unlisi artikulyatsion jihatdan **ä** va **ă** oralig‘ida joylashgan. Morfologiyada ham oraliq hodisalar bor. Morfologik sistematikaga ko‘ra, so‘zdagi morfemik tarkibda *asos – so ‘z yasovchi – shakl yasovchi – so ‘z o ‘zgartuvchi* tartibi mavjud. Bunda affiksal morfemada shakl yasovchi oraliq hodisa sanaladi, chunki shakl yasovchilar sintaktik aloqani ta’minlamagani uchun so‘z yasovchiga yaqinlashadi; so‘z yasamasligi jihatidan esa so‘z o‘zgartiruvchilar tomonga og‘adi.

Oraliq zona tushunchasini tillarga ham, shevalarga nisbatan ham qo‘llash mumkin va u sistematikada yaxshi ko‘rinadi. Hind-yevropa tillarida *hind* → *urdu* → *fors* → *kavkaz* → *slavyan* → *roman-german* tillari zanjirida tilga olingan *urdu*, *fors*, *kavkaz*, *slavyan* tillari bir-biriga nisbatan oraliq zonani hosil qiladi. Oraliq shevalar to‘g‘risida juda ko‘p ma‘lumotlar bor. Jumladan, ozarbayjon tilida *a ‘dash*, *ko ‘kchoy*, *uchar*, *zardob* kabi oraliq shevalari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. O‘zbek tilida Qashqadaryo shevalari misolida T. Qudratov ikki tipdag‘i oraliq shevalari to‘g‘risida fikr yuritadi: 1) qipchoq lahjasiga yaqin turgan Chechak, Uz, Do‘ngamar oraliq shevalari; 2) shahar shevalariga yaqin turgan Nushkent, Tatar, Tol shevalari.

Tillar aralashgan hududlar to‘g‘risida fikr yuritilganda, diffuz terminiga murojaat qilinadi. Tillarning yaqinlashishi (kontakti) yuz bergen vaqtida, so‘zlar bir turkumdan ikkinchi turkumga o‘tganda, grammatik hodisalar diffuziyasi yuz beradi, natijada katta vaqt oralig‘ida qarindosh bo‘lmagan tillar tipologik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib qoladi, aksincha, bir-biridan qochiq areallardagi qarindosh tillar bu darajada yaqin bo‘lmay qolishi mumkin. Masalan, o‘zbek va Volgabo‘yi turkiy tillari kabi.

Bunda markaziy va marginal zona har qanday lingvistik hududning zaruriy tavsifiga (баҳосига) ega bo‘ladi. Bu zonalar yetarli darajada jips holatda va turg‘un bo‘ladi hamda nisbatan yirikroq hududni egallaydi, ular begona ta’sirlarga kam uchraydi, tarixan tarqalish (irradiatsiya) markazi hisoblanadi.

Lahja va til varianti masalasi (diasistema). Lahja har bir xalqning etno-lingvistik taraqqiyoti tarixi hosilasidir. Aksariyat tillar bir necha lahjaning birlashuvidan tashkil topadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, o‘zbek tili uch lahja - *qarluq* lahjasi, *qipchoq* lahjasi, *o‘g‘uz* lahjasidan tashkil topgan. Ingliz tili *angliya*, *uels*,

shotland dialektlariga ega, lekin ingliz tilining Britaniya, Irlandiya, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi variantlari bor. Ispan tilining kastil va lotin Amerikasi variantlari amalda mavjud. Fransuz tilining ham bir necha variantlari bor. Bu til variantlari *plyurosentrif* yoki *polisentrif* tillar deb ham yuritiladi. Ayni bir til turli davlatlarda o‘zining davlat maqomiga, standartlar tizimiga ega bo‘ladi va boshqa davlatlardagi ayni shu tildan va *negiz tildan*, masalan, Britaniya variantidagi ingliz tilidan so‘z qo‘llash, terminlarning xususiyati, talaffuz me’yorlari bilan farq qiladi. Fanda genetik jihatdan bir tilga mansub bo‘lgan tillarning variantlari (turli davlatlardagi ko‘rinishlari) *diasistemani* hosil qiladi.

Ma’lumki, o‘zbeklar O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘izistonda ham yashaydilar, o‘zbek adabiy tilida ta‘lim ishi olib boriladi, gazeta va jurnallar, kitoblar nashr qilinadi, lekin bu davlatlarda o‘zbek tili variant maqomiga ega emas, chunki shu davlatlarning rasmiy davlat tili emas. Afg‘onistonda ham o‘zbeklar yashaydi. Yuqorida respublikalardan farq qilgan holda, bu yerda o‘zbek tiliga ham davlat maqomi berilgan. Demak, endi Afg‘onistondagi o‘zbek tilini variant deb atash mumkin bo‘ladi.

Diasistema. Bu tushunchaga ikki xil qarash mavjud: 1) ma’lum bir tilning turli variantlari bir necha davlatlarda davlat tili maqomiga ega bo‘lishi. Bunga ingliz, ispan, fransuz kabi tillarning turli davlatlarda adabiy til maqomiga ega bo‘lganligi misol bo‘la oladi; 2) bir davlatda ikki va undan ortiq tillarning davlat tili sifatida qo‘llanishi. Bunga Belgiyada niderland, fransuz, nemis tillarining, Shvetsariyada nemis, fransuz, italyan tillarining davlat tili sifatida amal qilishini keltirish mumkin.

Til kompleksi dialektal kontinuumning bir ko‘rinishi bo‘lib, uning tarkibiga orasiga chegara qo‘yib bo‘lmaydigan idiomlar kiradi. Bunga fors va tojik tillari; shuningdek, donegal, shotland, irland til kopleksini misol sifatida keltirish mumkin.

Takrorlash uchun savollar:

1. Kontinuumning markaziy zonasiga deganda nimani tushunasiz?
2. Kontinuumning marginal zonasiga izoh bering.
3. Oralik til tushunchasi nimani anglatadi?
4. Oralik shevani qanday tushunasiz?

5. Diasistema qanday tushuniladi?
6. Til kompleksi tushunchasini ochiqlang.

26-mavzu. Til va dialektlar sistematikasi. Klaster Reja

1. Til sistematikasi.
2. Til sistematikasi va taksonomiya.
3. Klaster.

Tayanch tushunchalar: til sistematikasi, klaster, taksonomiya, arealogiya.

Matn

Moddiy va ma'naviy hayot o'zaro bog'langan sistemadan iborat ekanligi har bir fan mazmunida aks etgan. Til ham sistemadan iborat bo'lib, unda sistema tushunchasi struktura tushunchasi bilan uzviy ravishda qaraaldi va til unsurlari (struktura elementlari) o'zaro bog'langan, o'zaro shartlangan bo'ladi hamda unda o'rnatilgan tartib - pog'onaviylik namoyon bo'ladi. Til sistematikasi ham shu nazariyani aks ettiradi. Tilning ko'rinishlarini (adabiy til, uslublari, shevalari, jargonlari va b.) sistematik aspektida aniqlash uchun statistik jihatdan yondashiladi va ularning yaqinligi belgilab beriladi. Bu aspektida til strukturasi uning ko'rinishlaridagi 4 bosqich, ya'ni tilning *til ← lahja ← dialect ← sheva* ko'rinishlari aniqlanadi. Bu doimiy sistema sifatida yashaydi, chunki ular o'zaro pog'onaviy bog'langan. Bunda til taksonligini saqlab qoladi, boshqacha aytganda, uni aksariyat tillar, shu jumladan, o'zbek tili xususiyatidan kelib chiqib, ular strukturasi namunasida tushuntirganda, tilning boshlang'ich nuqtasi va asosi sheva bo'lib, u boshqa pog'onaviy bo'laklarga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunda dialect shevaga, lahja dialectga va til lahjalarga tayanishi ko'zda tutiladi. Demak, bunda *til ← lahja ← dialect ← sheva* pog'onaviyligi namayon bo'ladi. Shuni aytish lozimki, barcha tillar ham ushbu sistematikaga ega bo'lmaydi. Bu, albatta, har bir tilning rivojlanish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, jumladan, turk, xakas, qirg'iz, ozarbayjon, turkman tillarida bu sistemada *lahja* qatnashmaydi, balki ular 4 bosqichli emas, balki 3 bosqichli shkala asosiga qurilgan, ya'ni *til ← dialect*

← *sheva* shkalasi yuzaga keladi. To‘g‘ri, turk tilshunosligida *lahja* terminidan foydalaniлади, лекин бу тушунча о‘zbek tilshunosligidagi kabi dialektal tushunchani emas, balki u idiom (qarindosh tillardan biri) ma’nosini ifoda qiladi. Qozoq dialektologiyasida *dialekt* va *sheva* (ular *govor* terminidan foydalanadilar) sinonim sifatida qo‘llangan.²⁰ Demak, qozoq tilida 2 bosqichli til sistematikasi, ya’ni *til* ← *sheva* pog‘onalari ishtirot etadi.

Til sistematikasi *klaster* tushunchasi bilan bog‘langan bo‘lib, u (tarqalgan) idiomlarning yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir klaster bir necha idiomlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bundan hind-yevropa tillari klasteri, turkiy tillar klasteri kabi tushunchalar kelib chiqadi. Til sistematikasida pog‘onaviylik, uzviylik asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qilsa, klasterda pog‘onaviylik tushunchasi ishlamaydi, balki uzviylik, ya’ni bir manbadan kelib chiqqanlik tamoyili amal qiladi.

Sistematika



6-rasm

Klaster



7-rasm

²⁰ Қалыев F., Сарыбаев Ш. Қазак диалектологиясы. – Алматы: Мектеп, 1967. – Б. 6.

Shunday qilib, til bir necha lahja, dialekt va shevalarni o‘zida birlashtiradigan bo‘lsa, klaster bir guruh idiomlarni o‘zida birlashtiradi va ba’zan qarindosh tillardan biri degan (ya’ni idiomlardan biri) tushunchaga ham ega bo‘ladi.

Shuningdek, klaster til qarindosh tillarning turli guruhlarini ham anglatadi, jumladan, turkiy tillarning qarluq guruhlari yoki o‘g‘uz va qipchoq guruhlari alohida olingen klasterlar hisoblanadi.

Til sistematikasi va taksonomiya. Avvalgi mavzularda ta’kidlanganidek, taksonomiya yuqorida ko‘rsatilgan til sistematikasiga asoslanadi va o‘zaro bog‘langan sistema hosil qiladi.

U lingvistik taksonomiya bilan ham bog‘lanadi va tilshunoslik o‘rganadigan obyektlar - tillar, shevalar va tillar guruhlarini tartibga solishga yordam beradi. Tilshunoslik sistematikasining maqsadi ma‘lum qoidalar (lingvistik nomenklatura) asosiga qurilgan lingvistik taksonlar tizimini va tegishli nomlanishlarni taqsimlash asosida dunyo tillarining yagona uyg‘un tizimini yaratishdir. Bu yuqori darajalarga (oila va guruh) ham, quyi (tillar va lahjalar) uchun ham amal qiladi. Sistematikada yuqori darajani *makrooila* ← *oila* ← *guruh* ← *nimguruh* ← *til* tarzida belgilash an’anasи bor. Buni *oltoy* ↔ *o‘zbek* tillari ziddiyatiga tatbiq etadigan bo‘lsak, *oltoy* ← *turkiy Markaziy Osiyo turkiy tillari* ← *qarluq tillari* ← *o‘zbek* tili sistematikasi paydo bo‘ladi. V.V.Reformatskiy til oilalarini belgilashda leksikaning qiyoslanishi ko‘proq natija berishini ko‘rsatadi va leksikadagi yaqinlikni *мать, сестра, дочь, дева, мы* so‘zlarining boshqa yevropa tillaridagi variantlari va ma’nosidagi yaqinlik hamda kichik farqlarini ko‘rsatish orqali asoslashdi²¹. Y.Abdurasulov ham oltoy tillari oilasini asoslashda turkiycha *bug‘a* // *buqa*, mo‘g‘ulcha *buxa*, tungus-manchjurcha *buxa* // *bug‘u* so‘zlarini, turkiy tillar oilasini asoslashda turkmancha *doquz*, qipchoq tillaridagi *to‘g‘iz*, uyg‘urcha *to‘quz* kabi qiyoslashlardan foydalanadi.²²

Demak, klaster idiomlarning yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Boshqacha aytganda, bir klaster bir necha idiomlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Til bir necha lahja, dialekt va shevalarni o‘zida birlashtirgan bo‘lsa, klaster bir guruh idiomlarni o‘zida birlashtiradi

²¹ Реформатский В.В. Введение в языкоковедение. – Москва: Аспект – Пресс, 1966. –С. 213.

²² Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг киёсий-тариҳий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 21.

va bir til degan tushunchaga ham ega. Ma'lum bo'ladiki, klaster til sistematikasi tarkibida qatnashadi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Til sistematikasi nima?
2. Til sistematikasining 4 unsurlari (elementi) qaysilar?
3. Til sistematikasidan qaysi o'rnlarda foydalaniladi?
4. Klaster tushunchasiga izoh bering.

27 -mavzu. Sistematika va tillar (dialektlar) tasnifi

Reja:

1. Til va shevalar sistematikasi va ularni tasnif qilish.
2. Tillarning genealogik va tipologik tasnifi.
3. O'zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari.
4. O'zbek shevalarining tasnifi.

Tayanch tushunchalar: sistematika, tillarning genealogik va tipologik tasnifi, shevalar tasnifi, lahja, dialekt, sheva tushunchalari.

Matn

Til sistematikasi tillarni va shevalarni tasnif qilishda kumulativ funksiya bajaradi. Mashhur **SIL International** tashkiloti tomonidan nashr qilinadigan **ETHNOLOQUE** ma'lumotnomasining (справочник) 2022-yilgi nashrida dunyoda **7151** til bor deyiladi. Bu raqam e'tiborga olinadi, biroq uning yana o'zgarishi mumkinligini ta'kidlash joyiz ham, chunki dunyoning barcha go'shalaridagi tillar to'liq o'rganib chiqilmaganligi ma'lum, shu tufayli yangi topilgan tillarni tadqiq qilish va hozirgacha ma'lum bo'lgan tillarning dialekti yoki mustaqil til ekanligini aniqlash istiqbolga qolaveradi.

Tillar tasnifi ham, shevalar tasnifi ham sistematika tamoyillariga asosan klasterni yaratishga qaratiladi. Tillar va shevalarni tasnif qilish aslida areal lingvistikaning vazifasidir, chunki bu masala til va shevalarning hududiy va lingvistik belgilariga ko'ra tasnif qilib kelgingan.

Tillar tasnifi. O'z sivilizatsiyasini o'rnatgan mamlakatlardagi tillar har tomonlama o'rganilgan va dunyo tillari ro'yxatidan o'tgan. Bu tillardagi o'xshashliklar va farqlarga alohida ahamiyat berilgan

hamda ushbu jarayonlarning natijasi o‘laroq jahon tillari tasnifi yaratilgan. Umumiy tilshunoslikdan ma’lumki, jahon tillarini qizg‘in o‘rganish XIX asrda amalga oshirilgan va, albatta, ulkan muvaffaqiyatlarga erishilgan. Shu bilan birga, inson tili yaratilgan davrdan boshlab turli darajadagi shaxslarni qiziqtirib kelgan²³. Shu bilan barobar, tillarni tasnif qilish ham o‘z tarixiga ega bo‘ldi. Bulardan ba’zilariga to‘xtalish lozim. Dastlabki tasnif fransuz I.Y.Skaligerga (1540 - 1609) tegishli bo‘lib, u 4ta “til onalari”ni belgilaydi: grek, lotin, tevton (german), slavyan.

Germaniyalik matematik va falsafa mutaxassisi V.Leybnits (1646 -1716) ham tillarni tasnif qilishga urinib ko‘rdi va quyidagi tasnifni berdi:

1. Aramey (semit) tili.

2.Yofas tili. Uning o‘zini 2 tarmoqqa ajratdi: 1) skif, fin, turkiy, mongol, slavyan tillari; 2) kelt (yevropa) tillari.

Albatta, ilmiy tasnif qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vakillari tomonidan amalga oshirilgan. Uning boshlanishiga V.Jonzning (1746 - 1794) Kalkuttadagi Sharq madaniyati institutidan Yevropaga yo‘llagan xati sabab bo‘lgan va u qadimgi sanskrit, grek, lotin tillarining o‘xshashligi haqidagi dastlabki ma’lumotni bayon qilgan edi. Yevropa olimlari bu xabardan keyin Yevropadagi tillarni qiyosiy va tarixiy jihatdan o‘rgana boshladilar va katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdilar. Shulardan biri nemis tilshunosi F.Bopp (1791-1867) V.Jonzga ergashib, sanskritni grek, lotin, got tillariga qiyosladi va ulardagi so‘zlarning o‘zagi va fleksiyasini qiyoslash metodologik jihatdan to‘g‘ri ekanligini uqtiradi. Daniyalik R.Rask island tilini o‘rgandi va uni grenland, bask, kelt tillari bilan qiyosladi. U Boltiqbo‘yi tillarini ham o‘z tadqiqotlariga kiritdi. Rossiyalik A.Vostokov eski slavyan tilini o‘rganish asosida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazdi. Keyinchalik aka-uka Shlegellar, Y.Grimm, V.Gumboldt, A.Shleyxerlar qiyosiy-tarixiy metod va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishini ta’miladilar.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning eng katta yutug‘i jahon tillarining tasnifi yaratilishiga zamin tayyorlash bo‘ldi va hozirgi

²³ Qarang: Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. - Б. 9; Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: ТДПУ, 2010. – Б. 9.

kunda uning bir necha namunalari bor. Ma'lumki, tillar tasnifining ikki varianti bor. Bular:

1. Jahon tillarining genealogik tasnifi.
2. Jahon tillarining tipologik tasnifi.

Tillarning genealogik tasnifi tillarning til oilalarini belgilashga qaratilgan bo'lib, ularda tillarning qadimda bir manbadan tarqalganligi (bobo tili) e'tiborga olinadi. Genealogik tasniflardan hozirgacha mukammalrog'i sifatida V.V.Reformatskiyning "Введение в языковедение" asaridagi tasnif hisoblanadi. U dunyo tillarini 20ta til oilasiga ajratadi. Ular quyidagilar: 1. Hind-yevropa tillari. 2. Kavkaz tillari. 3. Bask tili (guruhdan tashqari). 4. O'rol tillari. 5. Oltoy tillari. 6. Afrosiyo (xom-som) tillari. 7. Nigeriya-kongelez tillari. 8. Markaziy Afrika tillari. 9. Qoyson tillari. 10. Xitoy-tibet tillari. 11. Tay tillari. 12. Mao-yao tillari. 13. Dravid tillari. 14. Burushask tili. 15. Avstro-osiyo tillari. 16. Avstro-polineziya tillari. 17. Avstraliya tillari. 18. Papuas tillari. 19. Paleosiyo tillari. 20. Hindiy (amerin) tillari.

Tipologik jihatdan tillar:

1. Ajraluvchi tillar.
2. Agglutinativ tillar.
3. Flektiv tillar.

4. Polisintetik tillar. Bu guruh tillari tafsiloti tilshunoslik nazariyasiga oid adabiyotlarda yetarlicha berilgan.

Har ikkala tasnif bir vaqtida yaratilgan va ularning paydo bo'lishi areal yondashuv natijasi sifatida qaralishi kerak. Jumladan, genealogik tasnifda izoglossalarning innovatsiya markaziga intilishi muhim rol o'ynasa, tipologik tasnifda takson nazariyasi ishtirok etadi va taksonlarning o'zaro birika olish qobiliyati asosga olinadi. To'g'ri, qiyosiy-tarixiy grammatikachilar bu tamoyillarni ko'zda tutib tasnif qilmaganlar, balki ularning tadqiqot natijalari bunday areal yondashuv tamoyillariga mos ekanligini e'tirof etishga asos bo'lmoqda.

O'zbek shevalari tasnifi. O'zbek shevalari tasnifi XX asr boshlarida izga tushgan. Garchi XIX asrning oxirlarida turkiy tillar va o'zbek shevalari tasnifining ayrim namunalari bo'lsa-da, ular

ilmiy tasnif darajasiga ko‘tarilmagan. Quyida o‘zbek shevalarining ilmiy tasniflarini keltiramiz²⁴.

O‘zbek shevalari, asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o‘rganila boshlandi va shu asnoda uning dastlabki tasniflari paydo bo‘ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida V.Nalivkin, M.Nalivkina, A.Starchevskiy, A.Vishnegorskiy, Z.Alekseev, N.Ostromov, T.Qiyosbekovlar jonli til faktlari asosida o‘zbek tili lug‘ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ularni sof dialektologik deb ham, adabiy tilni aks ettirgan ishlar deb ham bo‘lmaydi.

XX asrning boshlarida o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o‘zbek shevalari keng miqyosda o‘rganila boshlandi. Shu jarayonda o‘zbek shevalari tasnif qilindi.

O‘zbek shevalarini tasnif qilishda asosiy tamoyil sistematikadir, ya’ni shevalarning “ona areal”dan boshlab rivojlanishi va ularning uzviyligidir. Shu bilan birga, quyidagilar ham e’tiborga olingan:

o‘zbek (turkiy) tiliga xos bo‘lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo‘lishi;

ma’lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan, singarmonizm va umlautning mavjudligi;

tarixiy qatlama oид leksik birliklarning miqdori, o‘zlashgan qatlam so‘zlarining ishtiroki;

o‘zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo‘lmagan til va shevalarning ta’siri;

shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo‘lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darjasи;

so‘zning fonetik strukturasi va boshqalar [Ashirboyev 2021:112].

O‘zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O‘zbek shevalarini professor **I.I.Zarubin** (1887-1964) tasnif qilishga harakat qilgan va uni Xiva, Farg‘ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro kabi to‘rt guruhga bo‘lgan, lekin ularga xos bo‘lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto qipchoq va shimoliy o‘zbek shevalari uning e’tiboridan chetda qolgan.

²⁴ Bu masala “O‘zbek dialektoloyasi” darsligida keng yoritilgan. Qarang: Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 112-122.

O‘zbek shevalari professor **K.K. Yudaxin** (1890-1975) tomonidan tasnif qilingan. U o‘zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlashi darajasini tasnifiga asos qilib oldi va unga ko‘ra 4ta guruhni belgiladi:

asl turkiy tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalari;

o‘z tovush tarkibini qisman o‘zgartirgan, singarmonizmni yo‘qotgan shevalar;

eron tili unlilar tizimini saqlagan o‘zbek shevalari;

o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik K. K. Yudaxin o‘zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib, uni 5 guruhga – Toshkent, Farg‘ona, qipchoq, Xiva va shimoliy o‘zbek shevalariga ajratadi. Bu tasnifini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilmadi.

G‘ozi Olim Yunus (1893-1939) tasnifi. U o‘zbek shevalari tasnifining ikki variantini yaratdi. “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalining 1927-yil 12-sonida “O‘zbek tilining tovushlari (isloh qilingan arab yozuvida)” maqolasida o‘zbek tilining uch lahjasi to‘g‘risida dastlabki ma’lumotni keltirgan edi. Unga ko‘ra, o‘zbek tili tarkibida 1) qipchoq, 2) uyg‘ur-chig‘atoy²⁵, 3) o‘g‘uz lahjalari ajratilgan va ularning tavsifi berilgan. G‘ozi Olim “O‘zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba” asarida bu tasnifini bekor qiladi. Aslida bu tasnifi hozirgi qarashlarga yaqin kelar edi. Su asarning o‘zida o‘zbek shevalarining leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarini hisobga olib, shu asosda ularni 1) o‘zbek-qipchoq, 2) turk-barlos, 3) Xiva-Urganch lahjalariga ajratati. O‘zbek-qipchoq lahjasining qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, Gurjan; turk-barlos lahjasining Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasining Xiva, Qarluq guruhlarini ko‘rsatadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda **Y.D. Polivanovning** (1891-1938) ulug‘ xizmatlari bor. U o‘zbek tili va shevalari bo‘yicha 250dan ortiq nomda katta va kichik hajmda asarlar yaratgan. Hozirgi kunda uning 150dan oshiq ishlari ma’lum.

²⁵ Bu davrda *chig‘atoy* terminiga murojaat qilinishi XIV va XV asrlarda bu tilning shu nomda yuritilganligi bilan ham bog‘liq. Bu haqda yana qarang: Благова Г.Ф. ТЮРКСК. *чагатай* – РУССК. *чагатай*–/джағатай–(Опыт сравнительного изучения старого заимствования) // Тюркологический сборник. – Москва: Наука, 1972. – С.167. – 205.

Y.D.Polivanovning o‘zbek shevalari bo‘yicha “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” (1933), “Toshkent shevasining tovush tizimi” (1922), “O‘zbek tilining singarmonizmni yo‘qotgan shevalari namunalari” (1928) kabi ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Y. D. Polivanov o‘zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Lekin uni o‘zbek shevalari tasnifi nomi bilan e’lon qilmagan, balki “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” asarida ilmiy tadqiqot ishidan shogirdlari tasnifga oid o‘rinlarini ajratib olib, tasnif sifatida e’tirof etganlar va oqibat natijada bu ilmiy tasnif sifatida mashhur bo‘ldi.

Keyingi davr dialektologlari Y.D. Polivanov o‘zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiyani (qardosh bo‘limgan tillarning aralashuvi) hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu e’tibordan chetda qoladigan fikr emas, lekin Y.D.Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog‘lab qo‘yish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi, balki Y.D.Polivanov bu tasnifiga turkiy tillar tarixini ham asos qilib olganligini ta‘kidlash joyiz bo‘ladi hamda o‘zbek tili bilan aloqada bo‘lgan tillar – qo‘shni turkiy va eroniy tillar bilan munosabatini ham hisobga olgan. Aslida u deyarli barcha o‘zbek shevalarini shaxsan o‘rganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi, urug‘, qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtayi nazardan o‘rgandi va tizimga tushirdi hamda o‘zbek tili tarkibida uch yirik lahja mavjudligini belgilab berdi:


Chig‘atoy lahjasi. Bu lahjani 7 tipga ajratadi: 1. Samarqand-Buxoro. 2.Toshkent. 3. Marg‘ilon-Qo‘qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A. Chortoq yoki umlautli shevalar. 5. Qo‘qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o‘zbek shahar (Chimkent, Turkiston) shevalari. 7. Shimoliy o‘zbek qishloq (Mankent) shevalari.

O‘g‘uz lahjasi. Uningcha, bu lahja 2 tipdagi shevalarni o‘z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G‘azavot, Hazorasp, Yangiariq) shevalari. 2. Shimoliy o‘g‘uz (Iqon, Qorabuloq) shevalari.

Qipchoq lahjasi. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. Xorazm qipchoq shevalari: a) Shimoliy Xorazm (“з”lovchi); b) O‘rta Xorazm (“ж”lovchi) shevalari. 2. Qurama shevalari. 3. Qozoq-nayman,

Farg'ona-Qoraqalpoq shevalari. 4. Shimoliy o'zbek qipchoq dialekti (So'zoq, Cho'laqo'rg'on²⁶).

Chig'atoy lahjasiga qarashli, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli *eronlashgan* shevalar deb hisoblaydi (8-rasm).



8-rasm

A.K.Borovkov (1904-1962) shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib, dastlab “*a*”lovchi va “*ɔ ~ ə*”lovchi shevalarni farqlaydi. “*ɔ ~ ə*”lovchi shevalarga Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo'l shevalarini; “*a*”lovchi shevalarni esa, o'z navbatida, “*y ~ j*”lovchi va “*dʒ ~ ʒ*”lovchi shevalarga ajratadi. “*y ~ j*”lovchilarga Chimkent, Mankent, Turkiston; “*dʒ ~ ʒ*”lovchilarga Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A.K.Borovkov o'zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana **4** dialektga ajratadi:

1. *O'rta o'zbek dialekti*. Uning ikki guruhini belgilaydi: 1) O'rta O'zbekiston shevalari: Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va boshqalar; 2) shimoliy o'zbek shevalari: Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2. *Shayboniy o'zbek yoki “dʒ ~ ʒ”lovchi dialekti*. Bunga Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Shimoliy

²⁶ Dialektologik adabiyotlarda, shu jumladan, Y.D. Polivanov asarlarida ham bu sheva nomi *Chalaqo'rg'on* (*Чалақұрғон*) tarzida xato berilgan.

Xorazm va Farg‘ona vodiysidagi “*dj~ž*”lovchi shevalarni kiritadi.

3. *Janubiy Xorazm dialekti*. Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘azovot, Sho‘raxon kabi shevalarni kiritadi.

4. *Alohidə guruhi shevalari*: 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent; 2) umlautli shevalar (unga Namangan shevasini kiritadi).

V.V.Reshetov (1910-1979) tasnifi²⁷. V.V. Reshetovning tasnifida areal lingvistik qarash yetakchilik qiladi va unda tubandagi masalalar o‘z aksini topgan edi.

Hozirgi O‘zbekiston hududlarida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos etnogenetik jarayon hamda qardosh va qardosh bo‘laman xalqlar tilining bir-biriga ta’siri o‘zbek tilining juda murakkab dialektal kompleksini vujudga keltirdi. Tarixiy-lingvistik jihatdan bu kompleks uchta komponentdan iborat:

1) *shimoli-garbiy guruhi* – o‘zbek tilining qipchoq lahjası. Bu guruhgaga o‘zbek tilining qipchoq shevalari, hududiy yondosh qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2) *janubi-g‘arbiy guruhi* – o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjası. Bu guruhgaga hududiy yondosh turkman tili taalluqlidir.

3) *janubi-sharqiy guruhi*. Bu guruhgaga qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini tashkil qiluvchi aksariyat o‘zbek shahar shevalari, hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg‘ur tili kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko‘pchiligi uchun shu narsa xarakterlik, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqador bo‘lgan.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining dialektal tarkibi, haqiqatan ham, murakkab bo‘lib, u O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududidagi xalqlar tilining kichik lingvistik kartasini eslatadi.

Tarixiy-lingvistik faktlar ko‘rsatganidek, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududida mavjud bo‘lgan uchta (qipchoq, o‘g‘uz, qarluq-chigil-uyg‘ur) til birligi o‘zbek tili tarkibida ham xuddi shunga mos uch lahjaning (qipchoq, o‘g‘uz va qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalarining) mavjud bo‘lishiga olib kelgan.

Qipchoq lahjası. O‘zbek tilining qipchoq lahjası har xil turkiy urug‘-qabila guruhi vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida

²⁷ Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. - №1.

qipchoq, nayman, qangli, mitan, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, ongut, qiyot, do'rmon, arg'in kabi ko'pgina urug'lar mavjud.

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta hududga tarqalgan. O'zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to'g'ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Farg'ona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko'pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Bugina emas, o'zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston respublikalarida ham bor.

O'zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avloddan-avlodga o'tib kelgan juda boy xalq og'zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi o'zbek xalqining milliy g'ururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan bo'lgan o'zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini o'rganish, o'z navbatida, qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasi o'z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra, o'zbek adabiy tili normalaridan ham ko'p jihatlari bilan farq qiladi.

O'g'uz lahjasi. Xorazmning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G'azavot, Yangiariq, Sho'raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarda, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog'istonning bir qator tumanlarida o'g'uz lahjasining vakillari juda ko'p.

Shimoliy o'zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o'g'uz unsurlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog'don qishlog'ida) ham uchraydi.

Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi (Bu lahja keyingi adabiyotlarda qisqaroq *qarluq* deb yuritilmoqda). O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi shahar shevalarini va ularga yondosh bo'lgan shahar tipidagi qishloq shevalarini o'z ichiga oladi.

Bu lahjaning shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniylar harakati bilan bog‘langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga Namangan, Toshkent, Andijon va O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi aholi shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O‘zbekistan hududlaridan tashqarida ham ko‘p tarqalgan. Masalan, Qozog‘iston hududidagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent²⁸; Qirg‘izistondagi O‘sh, Jalolobod, O‘zgan va boshqalar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg‘onistonda ham uchratamiz. Ma‘lumki, 1630-yillarda o‘zbek urug‘laridan qatag‘onlarning bir qismi Shoshdan (Toshkent vohasidan) Afg‘onistonga ko‘chib ketganlar. O‘zbek shevalarini tasnif qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli guruhlarga kiritganlar, holbuki, mazkur shevalar o‘rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham, ba’zi grammatik shakllarda ham ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Uyg‘ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman ‘umlaut’ning mavjudligiga qarab Namangan shevasi, xususan, Namangan atrofidagi ba’zi qishloq shevalari, masalan, Uychi shevasi alohida o‘rin tutadi.

Bu lahjani tubandagi guruhlarga ajratish mumkin:

Farg‘ona guruhi. U bir necha dialektlarni o‘z ichiga oladi:

Namangan dialekti. Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) taalluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi).

Mazkur dialektga oid shevalar uyg‘ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Andijon-Shahrixon dialekti. Bu dialektga Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

²⁸ Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent shevalarining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiritilishiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Bu shevalar o‘g‘uz lahjasiga oiddir. – A.S.

O'sh-O'zgan dialekti. Bunga O'sh, O'zgan, Jalolobod va shu tipdagi boshqa shevalar taalluqli bo'lib, ular uchun janubiy qirg'iz shevalari bilan bo'lgan metisatsiya xarakterlidir.

Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Bu dialektga Marg'ilon, Farg'ona, Vodil, Qo'qon va boshqa shu tipdagi shevalar kiradi.

Toshkent guruhi.

Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.

Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo'jand, Farg'ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o'g'uz va qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).

Shimoliy o'zbek guruhi.

Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba'zi shevalar taalluqli bo'lib, ular o'zining tarkib topish jarayonida avvalo o'g'uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan (Bu dialekt qarluq guruhiga xato kiritilgan. U o'g'uz lahjasiga oid dialektdir).

Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston, Chimkent, Sayram shevalari kiradi.

O'zlashtirish uchun savollar:

1. Til va shevalar qanday tasnif qilinadi?
2. O'zbek tilida uchta lahja mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar qaysi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan?
3. Qarluq lahjasi O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning qaysilariga tarqalgan?
4. Qipchoq lahjasi O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning qaysilariga tarqalgan?
5. O'g'uz lahjasi O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning qaysilariga tarqalgan?

28-mavzu. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi

Reja

- 1.O‘zbek lingvistik geografiyası ildizlari.
2. O‘zbek lingvistik geografiyasining dastlabki tadqiqotchiları.
3. Turkiy tillar chegaralaridagi oraliq til va dialektal hodisalar.

Tayanch tushunchalar: turkiy tillar, lingvistik geografiya, til oilasi, turkologiya, oraliq (tutash) zonalar.

Matn

Lingvistik geografiyaning o‘rganilishini faqat XIX asr bilangina chegalab bo‘lmaydi. Turkiy zaminda ham areal lingvistika, lingvistik geografiya terminlari qo‘llanmasa-da, bu masalaga e’tibor berilgan. Buni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari, muallifi noma’lum “Attuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” asarlari, XIX-XIX asrlarda yaratilgan boshqa asarlarda ham qayd qilish mumkin.

Bu masalada Mahmud Koshg‘ariyga yuzlanamiz. U Markaziy Osiyo va Qashg‘arning turkiy zonasini tadqiq qildi va turkologiyada maxsus termin sifatida tilga olmasa ham, turkiy xalqlar tilining bir zonasini tadqiqotini amalga oshirdi. Uning kartasi aslida lingvistik karta darajasida bo‘lmasa-da, o‘scha davrdagi xalqlar va qabilalar joylashuvining tasvirlanishi ular tiliga ham aloqadordir. Bu karta boyicha talaygina tadqiqotlar bor, jumladan, qozoq olimasi Z.Avezova “Devonu lug‘atit turk” asarini nashrga tayyorlashda kartadagi arabcha yozuvlarning ingliz tiliga tarjimasini ham amalga oshirdi.

Alisher Navoiy dunyoda tillarning tarqalishiga (ekstensional takson) e’tibor berib, uning Xom, Som, Yofas urug‘larining turli hududlarga tarqalganligi ma’lumotini bergen edi. Bu fikrga ko‘p yillar diniy qarash sifatida baho berib keltinganligi ma’lum, aslida u dunyo tillarining genealogik tasnifiga mos kelishini keyingi davrlardagina tan olishga to‘g‘ri kelgan. Ma’lumki, ajdodlarimiz tillarning va shevalarning turli hududlarda amalda bo‘lishidagi ijtimoiy sabablarini yaxshi anglab yetishgan.

Arealogik tadqiqotlar keyingi davrdagi vatandoshlarimiz tomonidan ham amalga oshirilgan, lekin ular maxsus terminlar bilan yuritilgan emas. Ular turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy o‘rganilishi,

dialektologik tadqiqotlar jarayonida olib borildi va keyinchalik ulardag'i arealogik tadqiqot usullari ajratib olina boshladi.

O'zbekistonda lingvistik geografiya dastlab V.V.Reshetov asarlarida tilga olindi. Uning 49 lingvistik karta ishlab chiqqanligi avvalgi sahifalardan ma'lum. Bu kartalarda V.V. Reshetov o'zbek shevalaridagi fonetik, grammatik va leksik o'ziga xosliklar uchun maxsus belgililar ishlab chiqdi. Jumladan, 1-kartada fonetik hodisa sifatida j – ј, а – а va boshqa izoglossalarining tarqalishini, 24, 25, 26, 27, 28-kartalarda jo'nalish kelishigi shakllarining tarqalishini, 38, 39-kartalarda leksik farqlarning tarqalishini ifoda qilgan, ya'ni bunda *mäjäk*, *žezdä*, *päččä* kabi so'zlarning tarqalishi kartalarda o'z ifodasini topgan.

V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar lingvistik kartalar yaratishda qaysi dialektal hodisalar izoglossalarini dastlab kartalashtirish lozimligini ko'rsatib berdi. Bunda ham fonetika, morfologiya, leksika boblaridan izoglossalar tizimini yaratish takliflarini berishgan (Qarang: O'zbek dialektologiyasi, 1978:20-21). Bunday nazariy fikrlardan foydalangan holda A. Sermatov, Y.Ibrohimov, Q.Muhammadjonov, N.Murodova, Z.Ibrohimova, N.Rahmonov va boshqalar o'zlari tanlagan zonalarning lingvistik kartalarini yaratdilar.

O'zbek shevalari areal lingvistik yondashuv asosida ham o'rGANILGAN. Bunga Y. Ibrohimov, T.Qudratov, I.Darveshov, N.Rahmonovlarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Oraliq shevalarning o'rGANILISHI. Garchand umumturkologik aspektda bo'lsa-da, N.Z.Hojiyeva dialektologiyada oraliq hodisalarning o'rGANILISHI shevalar orasidagi aniq chegaralarning belgilanishiga monelik qilishini asoslab berdi. Ayni zamonda u aralash dialektlarda oraliq hodisalarning (uningcha, "vibratsiya") bo'lishi, ya'ni chegara zonalarda izoglossalarning kesib o'tishi tabiiy ekanligini uqtiradi. Jumladan, tatar va boshqird shevalarining ayrim zonalarda aralashib ketganligining xabarini beradi. Shuningdek, turkman va qoraqalpoq tillari kesishgan hududda jarangsiz undoshlarning jaranglashishi va jo'nalish kelishigining -a affiksi bilan ifodalanishini oraliq hodisa sifatida ko'rsatadi. Bu asarda turkiy tillardan qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va o'zbek tili oraliq zonalaridagi izoglossalarning tavsifi berilgan va qozoq-o'zbek,

qirg'iz-o'zbek, qoraqalpoq-o'zbek hamda aksincha jarayonlardagi oraliq (tutash) hududlarda o'zaro ta'sir masalalari yoritilgan, jumladan, qozoq tilidagi ə fonemasining a, e fonemalariga moslashishi, unlilarning qisqarishi, diftonglashishning xususiyatlari va boshqa fonetik jarayonlarning areal xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, o'zbek tilining ayrim fonemalari, fonetik qonuniyatlar, morfologik xususiyatlarining tarqalish areallari tahlil qilingan. Bu tashabbusli ishda qator muvaffaqiyatlari o'rinalar borligini qayd qilgan holda, ayrim tasodifiy ma'lumotlarga urg'u berilganini ham ko'ramiz, jumladan, singarmonizmli shevalarda ə ulisining a unlisi o'rnida qo'llanishi va boshqa faktlarni uchratish mumkin. Ma'lumki, singarmonizmli shevalarda ə unlisi turg'un fonema emas, balki ayrim his-hayajon bilan aytilgan o'rinalarda qayd qilinishi mumkin. Demak, unga shevaning asosiy fonemasi deb qarash to'g'ri bo'lmaydi.

Areal lingvistikaga oid adabiyotlarda izoglossalar chizig'inining masofasi va yo'lini o'rnatish tadqiqotchilarda qiziqish uyg'atishi aytildi. Jumladan, Xorazm j(y,ÿ)lovchi shevalarida k ~ g undosh tovushlarining almashib qo'llanishida ko'rindi. Bunda bizga izoglossa chizig'i yordamga keladi. Uning vositasida bu izoglossalarning tarqalishini aniqlash mumkin bo'ladi, chunki bunday fonetik o'zgarish Xorazm shevalarining barchasida ham qayd qilinmaydi.

Oraliq hodisalar konkret bir tilning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini belgilashda ancha noqulayliklar tug'dirishi aniq. Avvaldan biror tilga, shevagagina xos bo'lgan xususiyatlar boshqa til yoki sheva bilan aralashib ketadiki, uni tadqiq qilishda qiyinchilik yuzaga keladi. Buni turkman tili misolida ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, turkman tili o'g'uz guruh tillariga mansub, lekin unda qipchoq va qarluq tili unsurlari ham aralashgan. Turkman adabiy tilidagi -i / ji tushum kelishigi affiksi o'rnida tekin, yovmut, chovdur shevalarida -ni affiksi, turkman adabiy tilidagi jo'nalish kelishigida -a affiksi o'rnida yuqoridagi shevalar bilan bir qatorda ilonli, xasarli, arsari shevalarida -ya affiksi ham qo'llanadi. Bu chegara hududida yuz berayotgan izoglossalarning harakatidir.

Oraliq dialektal hodisalarning barchasi ham keyingi davrlarning hosilasi emas, balki u qadimiy bo'lishi ham mumkin. V.V.Reshetov o'zbek, qozoq, uyg'ur, turkman va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan

urug' va qabilalar dialektlari, ularning umumiy bo'lgan hududlarida izoglossalarning tarqalish xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi, jumladan, ã unlisining tarqalishi to'g'risidagi fikrlari e'tiborlidir. Bu unli tojik tili bilan chegaradosh Samarqand hududidagi qipchoq shevalarida ham qayd qilingan. Toshkent tip shevalarga xos bo'lgan ochiq ã unlisi undan yiroqlashgan sari Samarqand-Buxoro shevalari xususiyatiga, ya'ni lablanganlik xususiyatiga ega bo'ladi. N.Z.Hoziyeva Turkmanistonning ba'zi shevalarida ham bu unli tarqalganligini keltiradi. Mazkur fikr yana qo'shimcha tadqiqotni talab qiladi.

Umlaut. Bu hodisa mavjud hududlarda “ä”lashishning kuchsizlanishi seziladi. Bu hodisa qirg'iz tilli zona bo'lgan O'sh shevasida qayd qilinadi: čäč (soch), čäk (chok), ät (ot). Qozoq, qirg'iz, tojik tillari bilan yondosh Jizzax sheavsida ham ã va ã unlilari almashuvi yuz beradi: älmä (olma), dän (don).

Singarmonizm. Ma'lumki, singarmonizm qonunining o'zbek tilida amal qilishi barcha hududlar uchun bir xil emas. Ayniqsa, qurama, Angren vohasida, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston bilan chegaradosh hududlarda bu qonun turli darajada amal qiladi. Bu qonunning qo'llanishini tadqiqotchilar a, ã va ã unlilarining qo'llanishiga bog'liq qilib qo'yadilar (N.Z.Hoziyeva buni Mirsoatovdan olgan). Garchand bu fikr asosli bo'lmasa-da, uni e'tiborga olish mumkin, chunki a unlisi singarmonizmli shevalarning, ã unlisi esa bu qonunni yo'qotgan shevalarning xususiyati hisoblanadi. Bunda chegaradosh hududlardagi holatlar konkret bir shevaning xarakterini belgilamaydi. ã unlisi esa singarmonizmni belgilashda atribut bo'la olmaydi, balki oraliq shevalarda oldingi unlilarni almashtirishi mumkin.

Tutash (yondosh) shevalar ham singarmonizmning amal qilishiga ta'sir etishi mumkin. Qurama shevalari aslida singarmonizmli shevadir, lekin qarluq shevalari bilan tutashganligi va aralash joylashganligi uchun ham uning ba'zi shevalarida singarmonizm qo'llanmaydi. V.V.Reshetov qurama shevalaridagi singarmonizm qonunining amal qilishidagi 3 holatni qayd qiladi: 1) “ž”lashgan shevalarda bu qonun to'la saqlanadi; 2) oraliq qurama shevalarida lablanmagan yuqori-tor unlilarning qisqarishi (kontrastligini yo'qotishi – A. S.) natijasida singarmonizm qat'iy bo'lmaydi; 3)

qurama “*j(y, ü)*”lovchi shevalarida bu qonun amal qilmaydi. Ma’lum bo‘lishicha, bu shevalatga Toshkent tip shevalarning ta’siri bo‘lgan.

Oraliq shevalardagi izoglossalarning joriylanishi quyidagilarda ko‘rinadi:

turkman tili bilan chegaradosh hududlarda **t**, **k** undoshlari jaranglashadi: de:mä (tegma), gäl (kel);

qoraqalpoq tili bilan chegaradosh hududlarda **γ** // **v** mosligi qayd qilinadi: **day – tav**, turkman tiliga yaqin shevalarda **day** varianti qo‘llanadi;

uyg‘ur tili ta’siri bo‘lgan Namangan shevalarida **r** (**r**) undoshining pozitsiyasi mustahkam emas (Reshetov): *silä(r)*, *bi(r)lä*. Bu holat boshqa shevalarda ham qayd qilinadi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishi to‘g‘risida qanday fikrdasiz?
2. O‘zbek tilining turkiy tillar bilan oraliq zonani tashkil etuvchi areallarini ko‘rsating.
3. O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning ildizlari haqida so‘zlang.
4. Kimlar lingvistik kartalar tuzishgan?

29-mavzu. Mahmud Koshg‘ariy va areal lingvistika Reja

1. Mahmud Koshg‘ariy – turkiy tillar shevalarining ilk kartasini tuzuvchisi.
2. Kartaning tuzilish xususiyatlari.
3. Mahmud Koshg‘ariy kartasi tavsifi.

Tayanch tushunchalar: areal, karta, turkiy tillar, urug‘-qabilalar.

Matn

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davrining ulug‘ dialektologi bo‘lgan. U o‘sha davrning benihoyat murakkab vaziyatidagi qabilalarni va ularning tillarini mukammal o‘rganib, aniqlab chiqdi. Ma’lumki, XI asrda O‘rta Osiyoda yashovchi qabilalar ham, ularning tillari ham u davr tuzumi sharoitiga muvofiq ancha murakkab vaziyatda edilar.

Avvallari kam nufuzli bo‘lgan qabilalar yiriklashgan, ba’zi qabilalar bir-birlari bilan birikishgan, yangi-yangi qabilalar paydo bo‘la boshlagan edi. Dastlab mamlakat hayotida siyosiy jihatdan yetakchi bo‘lgan ayrim qabilalar vaqt o‘tishi bilan o‘zlarining avvalgi mavqeyini yo‘qotib yangidan siyosiy jihatdan ustun bo‘lgan qabilalarga tobe bo‘lib qolgan bo‘lsalar, boshqa mamlakatlardan kelib joylashib qolgan kichik nufuzli qabilalar ham o‘sib-unib yirik qabilalar qatoriga o‘tgan edi.

Mahmud Koshg‘ariy qabilalar masalasiga alohida ahamiyat berdi. Bu to‘g‘rida u maxsus ilmiy tekshirish olib bordi. Har bir shaharni va har bir qishloqni boshdan-oyoq, birin-ketin tartib bilan sistematik o‘rgandi. Natijada u shuncha murakkab qabilalarni ham, ularning til xususiyatlarini ham, oldinlari shu yerlarda unib-o‘sganlarini ham, so‘ng kelib joylashganlarini ham, hatto har bir qabilani tashkil etgan sonsiz-sanoqsiz urug‘larni ham mukammal aniqlab chiqdi va ularning turar-joylarini, geografik mavqelarini belgiladi va o‘sha davr saviyasiga mos to‘la ilmiy asosda geografik karta tuzdi. Qabilalarning yonma-yon turishlarini quyidagicha ko‘rsatdi: Rum yaqinidagi qabila *bajanak*, so‘ng *qipchoq*, so‘ng *o‘g‘uz*, so‘ng *yamoq*, so‘ng *boshg‘irt*, so‘ng *basmil*, so‘ng *koy (qay - A.S.)*, so‘ng *yaboqu*, so‘ng *tatar*, so‘ng *qirg‘iz* - bular Chin yaqinida, Rum yonidan Chinga qadar cho‘zilgan qabilalardir. So‘ng *chigel*, so‘ng *tuxsi*, so‘ng *yag‘mo*, so‘ng *ig‘roq*, so‘ng *joruh*, so‘ng *jumul*, so‘ng *uyg‘ur*, so‘ng *tangut*, so‘ng *xitoy* Chin shahridadir. U hatto bu qabilalarni tashkil etgan urug‘larni ham aniqlab chiqdi. Lekin ularning hammasini o‘z asarida ko‘rsatishga zarurat ko‘rmadi. U yozadi: “Har bir qabilalarning behisob ko‘p urug‘lari bordir, lekin men o‘z asarimda ularning hammasini bayon qilmadim, faqat o‘g‘uz qabilasining urug‘larini va ularning chorvalarga qo‘llaydigan tamg‘alarinigina namuna sifatida ko‘rsatish bilan cheklandim” (DLT 1-jild, 24-bet).

Mahmud Koshg‘ariyning kartasi yuzasidan geografiya fanlari doktori, professor Hamidulla Hasanovning juda qimmatli tadqiqotlari bor. Shulardan biri “Sayyoh olimlar” asari bo‘lib, unda Mahmud Koshg‘ariyning “Dunyo kartasi” tahviliga yetarlicha o‘rin berilgan. H.Hasanovning e’tiroficha, bu karta dunyoning sharqiy

qismini aks ettiradi. Uning Mahmud Koshg‘ariy kartasi bo‘yicha bildirgan qimmatli mulohazalarini keltiramiz:

geografik nomlarning berilishi masalasida 3 fikr aytildi:
1) “Devon” matnida berilgan, lekin kartada berilmagan nomlar;
2) matnda ham, kartada ham aks etgan nomlar; 3) faqat kartada berilgan nomlar;

kartaga kimdir yanglish yozib qo‘ygan shahar nomini ham ko‘rsatadi, ya’ni gap Shosh nomi yonida “Buxoro” so‘zi xato yozib qo‘yilgani to‘g‘risida bormoqda;

hozirgi zamon kartografiyasidagidek, shartli belgilardan unumli foydalangan;

O‘rtal Osiyoning tog‘lik va tekislikdan iborat ekanligi aytildi va uning shimoliy-sharqida bitta tog‘ – “Jabali Qorachuq” tog‘i tilga olinadi;

yer yuzi markazi deb Qoraxoniylar davlati poytaxti *Balasog*‘un ko‘rsatiladi. Bu hozirgi To‘qmoq shahri yaqinida bo‘lgan deb uqtiradi. Balasog‘unning qadimgi nomi *Biklig* deyilgan. Uning asosiy qabilalari *chigillar* va *arg‘ular* bo‘lgan:


Biklig Issiqko‘l atrofida bo‘lgan, Issiqko‘l kartada ko‘rsatilmagan, lekin “Devon”da bor;

Markaziy Osiyoning uyg‘ur viloyatidan iborat bo‘lganligini aytadi: Sulmi, Kuju, Jonbaliq, Beshbaliq, Yangibaliq;

H.Hasanov “Devon”idagi “Balda Niso” (Xotinlar mamlakati) nomiga to‘xtalib, uning keltirilish va nomlanish sabablarini ochishga harakat qilgan. U sharq va g‘arb adabiyotida “Xotinlar mamlakati” to‘g‘risidagi afsona keng tarqalgaligini eslatadi. Bu o‘rinda ularning barchasini emas, ba’zilarini keltiramiz: Nizomiy Ganjaviyining “Iskandarnoma”sidagi xotin podsholigi (Kura viloyati), Qoraqalpoqlarning “Qirq qiz”idagi “Qizlar oroli” va b. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, “Xotinlar mamlakati” Afrikada bo‘lgan. Jamoliddin Avfiyning “Jomi ul hikoyat” asarida (XIII) mag‘rib cho‘llarida faqat xotinlardan iborat xalq borligi yozilgan. Hamdaloh Qazviniy “Nuzxatul qulub” (XIV) asarida Afrikadagi “Xotinlar mamlakati” tasvirlanadi. Bu mamlakatda erkaklar bajaradigan barcha ishlar ayollar tomonidan amalga oshirilgan. H.Hasanov bulardan xulosa qilib, Mahmud Koshg‘ariy bu afsonalar asosida “Balda Niso” shahri nomini keltirgan bo‘lishi mumkin degan fikrni aytadi.

Mahmud Koshg‘ariyning sof til to‘g‘risidagi aytganlari fan uchun ahamiyatlidir. U yozadi: “Eng to‘g‘ri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan, forslar bilan aralashmaydigan va shaharlarga (da?) borish-kelish qiladigan odami bo‘lmagan kishilarning tilidir” (DLT, 2017:25). Ikki tilli qabilalar to‘g‘risidagi fikri ham e’tiborli: “... suylaq, känjäk, aryular kabi ikki tilda so‘zlashuvchilardir; xotanliklar, tüpütlar, taqutlarning ba’zilari kabi ikki tilda so‘zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bor” (DLT, 2017:25).

Mahmud Koshg‘ariy o‘z kartasining qamrovi to‘g‘risida ham bayon qiladi: “Rumdan Mochingacha bo‘lgan turk shaharlarining hammasining bo‘yi besh mingdan sakkiz ming farsahgacha yetadi. Bu shaharlar o‘rnini aniqlash maqsadida hammasini yer shaklidagi doirada ko‘rsatdim” (DLT, 2017:25).




Махмуд Кошгорбай тұнған дүрөз қарғасы

Mahmud Koshg'ariy kartasidan quyidagilarni ko'rish va anglash mumkin: Irtishning sharqiy tomonida Yamar (O'b yoki Yenisey) ko'rsatilgan. Irtish va Yamar o'rtasida O'tukan, Qay va Jumul aholi joylari yozilgan. Xaritada Koshg'ar, Xo'tan, Yorkent markaz deb ko'rsatilgan. Sharqiy Turkistonning shimoli-sharqida Beshbaliq va Jonbaliq shaharlari aks ettirilgan. Sharqiy Turkistonning sharqiy tomonida uyg'urlar joylashgan. Uning janubi-sharqiy tomonida Zulqarnayn (ya'ni Buyuk Xitoy devori), undan keyin Ya'juj-ma'juj yerlari ko'rsatilgan. Sharqiy Turkistonning janubida Takla-Makan sahrosi va Kashmir joylashgan. Irtishning g'arbida Yimak, Ille daryosining g'arbrog'ida Tatar cho'li, Tatarning janubrog'ida Talas bor.

Jabarqa – *jab* va *orqa* so'zlari qo'shilmasi deb taxmin qilinadi va *Jat* orqa (yot orqa), ya'ni Yaponiya tushuniladi. Buni uning quyidagi so'zlari yanada asoslaydi: "Lekin čabarqaliklarning uzoqda turishi, orada Močin bilan ularni katta dengiz ayirib turganligi uchun ularning tillari bilinmaydi" (ДЛТ, 2017:25). *Močin* - bu mochin, ya'ni xitoy.

Z.- A.Auezovaning “Диван Лугат ат-Турк”асарida keltirilgan karta



10-rasm

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Lingvistik kartalarning yaratilish tarixi to‘g‘risida nima dey olasiz?
2. Mahmud Koshg‘ariy karta tuzishning qanday tajribalaridan foydalangan bo‘lishi mumkin?
3. Uning kartasi hozirgi zamon kartalaridan nimasi bilan farq qiladi?

30-mavzu. Areal lingvistik tadqiqotlar

Reja

1. Xorij tadqiqotlari.
2. Y. D. Polivanov – dastlabki areal lingvistika tadqiqotchisi.
3. V.V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlarning lingvistik geografiyaga oid tadqiqotlari.
4. O‘zbek lingvistik geografiyasi tadqiqotchilar.

Tayanch tushunchalar: areal lingvistika, lingvistik hudud, yagona hududiy birlik, geografik region.

Matn

Dunyoda areal lingvistik tadqiqotlar ko‘plab amalga oshirilgan, ularning barchasi haqida ma’lumot berish qiyin, lekin axborot tizimlaridan olingan ayrim ma’lumotlarni keltirish mumkin.

Bernd Heyne va Motoki Nomachi (Bernd Heine and Motoki Nomachi)larning “Lingvistik hudud va grammaticalizatsiya nazariyasi. Yevropa yagona lingvistik hududmi?” (Linguistic Area and Grammaticalization Theory. Is Europe a Linguistic Area?) asarida olimlar Yevropa tillarini lingvistik mezonlarga ko‘ra genetik munosabatlarga bog‘liq bo‘lмаган yagona hududiy birlik sifatida belgilash mumkinmi yoki yo‘qmi degan masalada munozara qilishganini eslatadi. Ular tomonidan berilgan quyidagi kabi savollarga e’tibor qaratadi, xususan:

1. Lingvistik jihatdan aniqlanishi mumkin bo‘lgan Yevropa hududiga o‘xshash hudud bormi va agar shunday bo‘lsa, uni dunyoning boshqa qismlari va boshqa hududlaridan qanday ajratish mumkin?

2. Hudud markazini aniqlashga qaratilgan biror asos bormi?
3. Yevropa tillarini dunyoning boshqa qismlaridagi tillardan ajratib turadigan lingvistik xususiyatlar bormi?
4. Agar Yevropa haqiqatan ham yagona hudud bo‘lsa, mintaqaviy munosabatlar asosida qanday harakatlantiruvchi kuchlar yotadi?
5. Yevropa tillarini irsiy munosabatlardan qat’iy nazar, muhimroq kichik birlklarga bo‘lish mumkinmi?

Dastlabki urinish XX asrda qilingan va bularning barchasi hind-yevropa tilshunosligiga qiziqish bilan boshlangan. Asosiy g‘oya shundan iborat ediki, yevropa tili flektiv tildir, ko‘rinishi nemis, yoki rus, yoki lotin tiliga o‘xshaydi, hind-yevropa merosini butun shonshuhratida aks ettiradi. Taxminan 1990-yildan boshlab boshqa nuqtayi nazar paydo bo‘ldi; tilshunoslар endi fidoyi deskriptivistlarga (nutqni ilmiy tekshiruvchi) aylandilar, ularning maqsadi tillarni tasvirlash edi.

Bu savollar va fikrlarga javob sifatida Yevropa hududini 4 yadroga ajratadi:

1. Golland, nemis, shimoliy italyan tillaridan iborat Yevropa tillari hududi;
2. Roman, slavyan, chex, bolgar tillari hududi;
3. Sharqiy slavyan tillari hududi. U periferiya deb ham yuritilgan;
4. Kelt guruhi tillari.

Sarah Grey Tomason “Lingvistik areal va lingvistika tarixi” (“Linguistic areas and Language history”) maqolasida lingvistik areal (Sprachband), ya’ni “til ittifoqi” to‘g‘risida fikr yuritadi. Bu maqolada “til ittifoqi”ning beshta arealini tavsiflaydi va lingvistik areal tushunchasini “til ittifoqi” tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘llaydi hamda bu “ittifoq”da kamida uch til qatnashishi kerak degan masalaga savol nazari bilan qaraydi va bu yondashuvni to‘g‘ri deb topadi. U lingvistik arealni *geografik region* deb ham ataydi va uning besh hududini belgilaydi. Ular:

1. Bolqon.
2. Janubiy-sharqiy Yevropa.
3. Yangi Gvineyadagi Sepik daryo havzasi.
4. Shimoliy Amerikaning shimoliy-g‘arbiy tarafidagi Tinch okeani havzasi.
5. Efiopiyaning tog‘lik hududlari va Janubiy Osiyo.

Jaūlo Kempellning (Lyle Campell) “Areal lingvistika: e’tiborli tadqiqot (Areal linguistics. A Closer Scrutiny) asarida lingvistik hududlarni belgilashga harakat qiladi va uning 75 hududini sanab o’tadi. Unda Afrika, Yevropa va Osiyodagi til kontaktlari bo’lgan hududlar keltirilgan.

Ma’lum bo’lgan ingliz tilidagi ishlarda gap, asosan, lingvistik hudud (“til ittifoqi”) haqida gap boradi.

O’zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishlari. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov, V.V.Reshetov, A.Jo’raev, A.Shermatov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, Z.Ibrohimova, I.Darveshov, N.Rahmonovlarning tadqiqotlari mavjud. Ular areal lingvistik qarashlarini dialektologik kartalar tuzish to‘g’risidagi ishlarida bayon qilganlar. Shuni e’tirof etish lozimki, O’zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishiga hali kirishilganicha yo‘q, lekin areal lingvistika masalalari o’zbek tilshunosligida o’tgan asrning 20-yillaridayoq tadqiq qilina boshlandi. Bu sohada Y.D. Polivanovning “O’zbek dialektologiyasi va o’zbek adabiy tili” degan asari ahamiyatlidir. Bu asarda u o’zbek shevalarining tarqalishi, ularning yaqinlik darajasi, ularga xos fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar belgilab berilgan. Muhimi, o’zbek tilining uch lahjasi turkiy tillar tarixi bilan bog’lanadi, o’zbek shevalarining chegaradosh tillar bilan munosabati ham e’tibordan chetda qolmadi.

O’zbek tilshunosligida dastlabki lingvistik kartani V.V.Reshetov tuzdi. U qurama shevalarini o’rganish chog’ida 49 kartani unga ilova qildi. Afsuski, bu kartallar e’lon qilinmadı. Bu kartalarda jami 150ga yaqin sheva faktlari aks ettirildi. V.V.Reshetov tuzgan kartalardan joy olgan izoglossalar, avval ta’kidlaganimizdek, “O’zbek dialektologiyasi” darsligining 1978-yil 2-nashridagi 17- va 18-sahifalarda to‘lig’i bilan keltirilgan.

Sh.Shoabdurahmonov o’zbek shevalarining lingvistik atlasi tuzish g’oyasini ilgari surdi. Ma’lumki, dialektologik atlas shevalarning xususiyatlarini ko’rsatuvchi izolglossalarni turli ranglarda jonli ko’rinishda tasvirlaydi, lekin unda dialektal xususiyatlarni, faktlarni joylashtirish munozarali masaladir. Sh.Shoabdurahmonov uning zaruriyati va maqsad-vazifalrini asoslab berdi.

A.Jo’rayev o’zbek areal lingvistikasining nazariy asoslarini yaratishda katta xizmatlar qildi. Uning “Теоретические основы

ареального исследования узбекоязычного массива (O‘zbekzabon massivni areal taddiq qilishning nazariy asoslari), 1991” asari o‘zbek areal lingvistikasining ulkan yutug‘i edi. Bu asarda ilk bor areal lingvistika tarixi yoritildi, o‘zbek dialektlarini zonalashtirish konsepsiysi ishlab chiqildi, o‘zbek tilining dialektal zonalari belgilandi, xullas, dunyo areal lingvistikasi tajribalaridan foydalanib, o‘zbek tilshunosligida areal lingvistikating rivojlanishiga muhit yaratildi.

Lingvistik geografiyaning mahalliy shevalarga tatbiq etilishi A.Shermatovning tadqiqotlarida amalga oshirilgan. U Quyi Qashqadaryo shevalarining kartalashtirilishini ilk bor tashkil etgan.

A.Shermatov O‘zbekistonda lingvistik geografiya metodida tadqiqot ishini olib borgan olimlardan hisoblanadi. U Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalarining atlasini yaratishdan avval uning lingvistik kartasini tuzish lozimligini uqtiradi va bu zonani dastlab tasnif qiladi, ya’ni Quyi Qashqadaryo shevalarini: 1) “j(y,ÿ)”lovchi; 2) ѳ(j,дж) lovchi; 3) ikki tilli (o‘zbek va tojik) shevalarga ajratadi. “j(y,ÿ)”lovchi shevalarning o‘zini yana 6 unlili va 7 unlili shevalarga ajratadi hamda kartalashtirishda shu tasnifga amal qiladi.

A.Shermatov bu hudud lingvistik xususiyatlarining 155ta kartasini tuzgan. Ularda ayrim olingan fonemalar, tovush o‘zgarishlari, leksika, so‘zlar semantikasi, morfologik xususiyatlar va faqat bir kartadagina so‘z birikmalari aks ettirilgan.

Kartalarda til faktlarini aks ettirishda izchillik saqlanmagan va til faktlarining kartalarda ko‘rsatilishining ijtimoiy ahamiyati va uning tilshunoslikning qaysi sohalarini oydinlashtirishdagi o‘rnini to‘g‘risida ma’lumotlar berilmagan. U tuzgan kartalarning tematikasi quyidagicha²⁹:

- aholining etnik tarkibi;
- shevalarning joylashishi;
- unli va undosh fonemalar mosligi;
- diftonglarning joylashishi;
- fonetik jarayonlar;
- tovush orttirilishi va tushishi;
- ayrim morfonologik hodisalar (bu termin ishlatilmagan);

²⁹ Tahlillar A.Shermatovning “Yangi tadqiqotlar” to‘plamidagi (TDPI, 1971) 79 – 190 sahifalari materiallari asosida amalga oshirildi.

so‘z shakllari;
leksik mosliklar;
sinonimlar;
turli turkumlarga oid so‘zlar;
ayrim frazeologik iboralar va b.

Orolbo‘yi o‘zbek shevalarining tadqiqi va uni kartalashdirish Y.Ibrohimov nomi bilan bog‘liq. Bu ish Z.Ibrohimova tomonidan davom ettirildi va u qishloq xo‘jaligi sohasi leksikasining shevalardagi variantlarini kartalashirdi.

Shimoliy o‘zbek shevalarining qarluq guruhi tadqiqotlarini amalga oshirish chog‘ida Q.Muhammadjonov sheva faktlarini kartalarda aks ettirgan.

O‘zbekiston Respublikasida areal lingvistikaning tatbiqiy yo‘nalishlarida ham tadqiqotlar olib borildi. Bu sohada N.Murodova, I.Darveshov, N.Raxmonovlarning tadqiqotlari mavjud. N.Murodova Navoiy viloyati, I.Darveshov Namangan fokus nuqtasiga kirgan dialektal zonaning va N.Rahmomov ham Navoiy viloyat arealidagi shevalarning tadqiqoti va kartalashdirish ishlarini amalga oshirdi.

N.Rahmonov til faktlarini kartalashdirishda fonetik va morfologik materiallar asosida ish ko‘rgan. Shundan, monografiyasidagi 20ta kartadan 4 - 12-kartalar izofonemani, dissertatsiyasidagi 20 kartadan 3 – 20-kartalar izomorfлarni aks ettirgan.

Dialektologik tadqiqot ishlari bevosita lingvo-geografiyaga bag‘ishlangan bo‘lmasa-da, shevalar kartasi ilova qilingan dissertatsiyalar bor. Bunga F.Abdullayevning Xorazm dialektal hududi umumiy kartasi, T.Qudratovning Qashqadaryo oraliq shevalari kartasini kiritish mumkin.

Shuni aytish lozimki, yuqoridagi kabi tadqiqotlar kelgusida o‘zbek tilining (shevalarining) milliy atlasini yaratish uchun asos bo‘ladi.

O‘zlashtirish uchun savollar:

1. Xorijiy mamlakatlarda lingvistik geografiyanı rivojlantirganlardan kimlarni bilasiz?
2. Hozirga qadar qaysi areallar lingvistik geografiya jihatidan o‘rganilgan?
3. O‘zbek lingvistik geografiyasi tadqiqotchilari kimlar?

GLOSSARY

A

Azona – dialektal zona hosil qilmaydigan hududlar.

Area(l) – til va shevalar hududini anglatadi. Qarang: lingvistik areal.

Areal lingvistika – til va dialektlarning hududiy xususiyatlarini o'rganadigan fan.

Areallarning turlari – nisbatan katta va kichik maydonni egallaydigan areallar.

Areallarning tiplari – keng hududlardan iborat areallar.

Areal tipologiya – hudud tillari va shevalari xususiyatlarining o'xshashligini tizimlashtiradigan tadqiqot usuli.

Arealogiya – biogeografiya fanlari sirasiga kiradigan fan.

B

Bobo til – u yoki bu til oilasining kelib chiqishi uchun asos bo'lgan til.

D

Dialektal zona – til massividagi tayanch dialekt ta'sirida bo'lgan shevalarni umumlashtiradi.

Dialektal kontinuum – shevalar guruhida ularning pog'onaviyligini anglatadi.

E

Ekstensional takson – turli til va dialektlarga oid taksonlarning keng hududlarga joylashishi.

F

Fokus nuqtasi – atrof tillar va shevalarga doimiy o'z ta'sirini o'tkazib turuvchi til yoki yirik shahar shevasi.

G

Gemogen areallar – o'z chegarasiga ega bo'lmasagan til va shevalar.

Genetik izoglossa – kelib chiqishi jihatidan umumiylitka ega bo'lgan til va shevalar izoglossalari.

Geterogen areallar – chegaradosh til va shevalar bilan aralashgan areallar.

H

Hudud – til va shevalar joylashgan makon.

I

Idiom – qarindosh tillardan biri, u sheva, dialekt, lahja va adabiy tildan tashkil topadi.

Ijtimoiy dialektal kontinuum – siyosiy va uzoq tarixiy taqdir tufayli qarindosh bo‘lmagan va qarindosh tillar orasida yuz beradigan jarayon.

Innovatsiya, innovatsiya markazi – muayyan izoglossaning chiqib kelish, tarqalish nuqtasi.

Innovatsiya markazini aniqlash metodi – u yoki bu izoglossaning paydo bo‘lish nuqtasini aniqlash jarayonini tashkil etish.

Intensional takson – konkret bir til yoki dialektning (takson sifatida) bir necha hududlarda tarqalishi.

Interferensiya – tillar va shevalarning o‘zaro ta’siri.

Izoglossa – lingvistik belgi, ularning tarqalish hududlarini belgilash uchun tortiladigan chiziq.

Izoleks – leksik izoglossa.

Izosema – semantik izoglossa.

Izafon – fonetik izoglossa.

Izofonema – fonematik izoglossa.

K

Klaster – idiomlar yig‘indisi va ularning tarmoqlanishi.

Kontaktologiya – aloqadagi til va dialektlarni o‘rganadigan fan.

Kontinuum – til va dialektlarning uzviy aloqada rivojlanib borishi.

Konvergent izoglossa – turli sistemadagi tillarning uzoq muddat hududiy aloqalari natijasida shakllangan izoglossalar.

Kreol tili – pi(d)jinning rivojlangan bosqichi, leksifikator til bilan mahalliy til (sheva) aralashishidan hosil bo‘lgan mustaqil til.

L

Leksifikator til – pi(d)jinning shakllanishi uchun asos bo‘lgan til.

Lingvistik areal – til va shevalarning tarqalish hududi.

Lingvistik atlas – lingvistik kartalar yig‘indisi.

Lingvistik geografiya – 1) areal lingvistikaning til va shevalarni kartalashtirish bilan shug‘ullanadigan bo‘limi, 2) areal lingvistika metodi.

Lingvistik gegemoniya – xalqaro til maqomiga ega bo‘lgan tillarning keng yoyilishi.

Lingvistik karta – til egalarining tarqalishi, izoglossalarning geografik taqsimlanishini aks ettiruvchi quroq.

Lingvistik hudud – til oilasi va uning ichki til oilalari.

Lingvistik uzviylik – I.Shmidt tomonidan ilgari surilgan tillar orasida chegaralarning bo‘lmasligi nazariyasi.

O

Oraliq til va sheva - kontinuum uzviyligida pog‘ona funksiyasini bajaruvchi tillar va shevalar.

P

Pi(d)jin – kontakt tillardan biridir, til umumiyligi bo‘limgan jamoalarda qo‘llangan.

Q

Qayd qilish metodi – bir til (shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlarini qayd qilish, tavsiflash yoki kartada aks ettirish.

Qarindosh tillar – kelib chiqishi jihatidan bir manbaga ega bo‘lgan tillar.

S

Substrat – o‘tmish til unsurlari.

Sistematika – til va shevalar tasnifi tamoyili, tilning ko‘rinishlari pog‘onaviyligi va tilning ichki qurilishi munosabatlari.

T

Takson – biror xususiyati jihatidan birlashsish qobiliyatiga ega bo‘lgan til va sheva birliklari.

Taksonomiya – paradigma hosil qilgan taksonlar birlashmasi.

Til zonasi – biror tilning atrof tillar hududida yoki dunyo bo‘ylab keng hududlarga tarqalishi.

Til massivi – lingvistik zona va azona (a-zona)ni birlashtiradigan yaxlit hudud.

Til oilasi – tillarning qarindoshligiga ko‘ra to‘plami.

“Til ittifoqi” – til va shevalarning o‘zaro aralashuvidan hosil bo‘lgan oraliq hudud.

Til va shevalar migratsiyasi – til va sheva egalarining migratsiyasi tufayli yuz beradigan lingvistik jarayon.

“To‘lqin nazariyasi” – *Qarang*: Lingvistik uzviylik.

U

“Urban dialekt” – yirik shaharlar dialekti bo‘lib, qarindosh va qarindosh bo‘limgan til va shevalarni qamrab oladi.

G‘

G‘olib til – mahalliy til o‘rnida boshqa til (siyosiy jihatdan ustun bo‘lgan) aholi muomalasiga kiradi.

Sh

Sharhlash metodi – arealdagi tillar, shevalarni o‘rganishda hamda dialektologik karta va atlaslarni tuzishda til va sheva faktlarini izohlash.

Adabiyotlar ro‘uxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-58-50-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
2. Абдурасулов Ё. Туркий тилларнинг қиёсий-тариҳий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
3. Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. – Алматы: Мектеп, 2003.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
5. Bartoli M., Vidossi G. Lineamenti di linguistica spaziale. – Millane, 1943.
6. Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica. Geneve, 1925.
- Бородина М. А. Проблемы лингвистической географии. – М. – Л.: 1966. – С. 7.
7. Благова Г.Ф. ТЮРКСК.чаятай – РУССК. чағатай-/джағатай- (Опыт сравнительного изучения старого заимствования) // Тюркологический сборник. – Москва: Наука, 1972.
8. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. – Москва: Наука, 1982.
9. Бондалатов В.Д. Социальная лингвистика. - Москва: Просвещение, 1987.
10. Бородина М. А. Проблемы лингвистической географии. – М. – Л.: 1966.
11. Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. – Москва: Наука, 1975.
12. Данияров Х., Кунгурев Р. Некоторые вопросы лингвистической географии // Вопросы диалектологии тюркских языков, Фрунзе, 1968. – С. 39.
13. Дарвишов И. Ареал лингвистика: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. - Тошкент: Наврӯз, 1919.
14. Девону луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони). – Тошкент: 2017 (Nashrga tayyorlovchi - Qosimjon Sodiqov).

- 15.** Диван Лугат ат Турк. – Алматы: Дайк-Пресс, 2005 (Z.-A. Auezova tayyorlagan nashr).
- 16.** Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.
- 17.** Жирмунский В.М. Немецкая диалектология: ИАН. – М.-Л., 1956. – С. 636.
- 18.** Ибрагимов Ю. М. Жанубий Орол бўйи шевалари тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дис. – Тошкент, 2000.
- 19.** Yunus G‘ozi Olim. O‘zbek tilining tovushlari // Maorif va o‘qituvchi, 1927, №12 (arab yozuvida).
- 20.** Yunus G‘ozi Olim. O‘zbek lahjalarini tasnidfa bir tajriba. – Toshkent: O‘zdavnashr, 1935.
- 21.** Мирзаев М.М. Ўзбек тилининг Бухоро групга шевалари. – Тошкент: Фан, 1969.
- 22.** Murodova N. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2019.
- 23.** Муродова Н. Раҳмонов Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини (фонетик ва морфологик материаллари асосида). Тошкент: Янги аср авлоди, 2017.
- 25.** Нурмонов А., Раҳимов А. Лингво-синергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013.
- 26.** Туркий сўзлар девони (Девону лугатит турк). – Тошкент: Фан, 1960 (Таржимон ва нашрга тайёрловчи – С. М. Муталибов)
- 27.** Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. – Тошкент: Фан, 1989.
- 28.** Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: ТДПУ, 2010.
- 29.** Реформатский В.В. Введение в языкovedение. – Москва: Аспект – Пресс, 1966.
- 30.** Решетов В.В. Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. -№ 1
- 31.** Chambers J.K., Peter Trudgill. Dialektology. - Cambridge Universitetu Press, 2004. – р 5.
- 32.** Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.

33. Шерматов А. Лингвистик география нима? –
Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
34. Ширалиев М. Ш. О проблеме языка и диалекте //
Вопросы диалектологии тюркских языков. – Баку: ИАН Аз.ССР,
1963, 34
35. Қалыев Ғ., Сарыбаев Ш. Қазақ диалектологиясы. –
Алматы: Мектеп, 1967.

Axborot manbaalari

<https://www.researchgate.net/publication>.

<https://unibook.upjs.sk>


<c:/itools/wms/cup-nev>

<https://bigenc.ru>

<https://studfile.net>

Ilovalar. Lingvistik kartalardan namunalar

J. Jiljeron lingvistik kartasi






Yuldash Ibragimov lingvistik kartasi



Карасу шористон жабек шөвалининде картасы





жанубий оролбуйи ўзбек шеваларининг
харита схемаси




Nigora Murodova lingvistik kartasi





I. Darveshov lingvistik kartasi




N. Raxmonov lingvistik kartasi



I. Darveshov lingvistik kartasi



N. Raxmonov lingvistik kartasi



Mundarija

Kirish.....	3
1-mavzu. Areal lingvistika fanining predmeti va vazifalari.....	5
2-mavzu. Arel lingvistika va yondosh fanlar.....	9
3-mavzu. Areal lingvistikaning shakllanishidagi tayyorgarlik davri.....	12
4-mavzu. Areal lingvistikaning yangi davri.....	16
5-mavzu. Til va dialektlarni o'rganish metodlari. Lingvistik geografiya metodi.....	21
6-mavzu. Areal lingvistikaning qayd qilish va sharhlash metodlari.....	24
7-mavzu. Lingvistik areal.....	30
8-mavzu. Areallarning turlari.....	33
9-mavzu. Areallarning tiplari.....	36
10-mavzu. Izoglossa.....	39
11-mavzu. Genetik va konvergent izoglossalar.....	42
12-mavzu. Takson va taksonomiya.....	45
13-mavzu. Taksonomik areal lingvistika.....	50
14-mavzu. Intensional takson.....	52
15-mavzu. Ekstensional takson.....	55
16-mavzu. Areal lingvistikada innovatsiya masalasi.....	59
17-mavzu. Lingvistik kontaktologiya va "til ittifoql".....	66
18-mavzu. Til zonasi va dialektal zona.....	72
19-mavzu. Tillar oilasi va zona.....	76
20-mavzu. O'zbek tilining dialektal zonalari.....	79
21-mavzu. O'zbek tilining azonal hududlari.....	82
22-mavzu. Lingvistik geografiya. Lingvistik karta va atlas.....	84
23-mavzu. Turkiy tillar lingvistik geografiyasining rivojlantirilishi.....	89
24-mavzu. Kontinuum.....	95
25-mavzu. Kontinuum zonalari.....	101
26-mavzu. Til va dialektlar sistematikasi. Klaster.....	105
27-mavzu. Sistematika va tillar (dialektlar) tasnifi.....	108
28-mavzu. O'zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi.....	119
29-mavzu. Mahmud Koshg'ariy va areal lingvistika.....	123

30-mavzu. Areal lingvistik tadqiqotlar.....	128
Glossary.....	133
Adabiyotlar ro‘yxati.....	137
Ilovalar	140

Ashirboyev Samixon

Areal lingvistika

darslik

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246, 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 04.05.2023.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 8,5. Shartli bosma taboq 8,7.

Adadi 500 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10

Ashirboyev Samixon

AREAL LINGVISTIKA



ISBN 978-9943-9441-9-0



9 789943 944190

